

83.3  
T-29

L. Tashmuxeamedova

# ADABIYOT TARIXI VA NAZARIYASI

o'quv qo'llanma

**1-QISM**



Toshkent - 2020





13.3  
7.29

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON  
MILLIY UNIVERSITETI

# ADABIYOT TARIXI VA NAZARIYASI

1-qism

*O'quv qo'llanma*

JIZZAX DPI

INV № 142422

AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT-2020

UO'K 821(091)

KBK 83.3g

T 29

**Tashmuxe medova, L.**

Adabiyot tarixi va nazariyasi (1-qism) [Matn] : o'quv qo'llanma / L.Tashmuxe medova. - Toshkent : Shafot Nur Fayz, 2020. - 160 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada «Adabiyot tarixi va nazariyasi» fanini o'rganish, badiiy asar mohiyatini chuqur anglash ko'nikmasini hosil qilish, mavjud matnlarni tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish masalalari yoritilgan.

O'quv qo'llanmada «Adabiyot tarixi va nazariyasi» fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tuvchi professor-o'qituvchilarga dasturilamal sifatida innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida turli mavzularga oid o'tkaziladigan seminar-treninglar materiallari berilgan. Materiallarni tayorlashda mualliflar Rossiya, Shvetsiya, Daniya trening-maktablarining ilg'or tajribasidan foydalanganlar.

Qo'llanma jurnalistika yo'nalishi bakalavrlariantlari, «Adabiyot tarixi va nazariyasi» fanidan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar olib boruvchi professor-o'qituvchilar, murabbiylar, rahbarlar uchun mo'ljallangan. Undan filologiya fakulteti bakalavrlariantlari, magistrantlari, pedagoglari, amaliyotchi jurnalistlar, muloqot bilan bog'liq kasb egalari hamda mazkur sohaga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

5220100- Jurnalistika (OAV faoliyati)

**Taqrizchilar:**

**M.I. Israil** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Y.M. Mamatova** – filologiya fanlari doktori.

ISBN: 978-9943-6739-9-1

© L.Tashmuxe medova

© "Shafot nur fayz" nashriyoti, 2020

---

## KIRISH

Mazkur o‘quv qo‘llanma ilg‘or xorijiy tajribani keng o‘rganish, umumlashtirish va undan ta‘lim va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-maydagi Qarorida: «Oliy o‘quv yurtlari jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi- universitetlar va oliy o‘quv yurtlari bilan yaqin hamkorlik doirasida keng ko‘lamda ishtirok etgan holda 2016/2017-o‘quv yili boshlangunga qadar barcha o‘quv rejalari va dasturlari tubdan qayta ishlab chiqilishini nihoyasiga yetkazishni ta‘minlasin, fanlarni o‘qitishning eskirgan, umrini o‘tab bo‘lgan yondashuv va uslublaridan batamom voz kechishni, bakalavriat va magistraturada jahon fani va ilg‘or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga asoslangan yangi o‘quv rejalari va dasturlarini joriy etishni, shuningdek, ta‘lim jarayonida ularni amalda qo‘llashni hamda oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish uchun ... yetakchi xorijiy olimlar va o‘qituvchilarni jalb etishni nazarda tutsin»<sup>1</sup>, deb alohida ta‘kidlangan.

Ushbu Qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ta‘lim va tadqiqotlarning mazkur axborot-resurs manbayini ishlab chiqishda Nyu-York Davlat universiteti (AQSH), Oksford universiteti, Bat universiteti va London Metropolitan universiteti (Buyuk Britaniya), Kemyong universiteti (Koreya Respublikasi), Shanxay universiteti (XXR) va boshqa yetakchi xorijiy universitetlarning boy ijobiy tajribasidan samarali foydalanildi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-maydagi «2016/2017-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishga qabul qilish t o‘g‘risida»gi Qarori. //«Xalq so‘zi» gazetasi, 2016-yil 27-may, №103 (6538).



Ilmiy-tadqiqotlar va tajribalarni amalga oshirish davrida bo‘lajak jurnalist zamonaviy axborot almashuv tizimlari va texnologiyalarini qo‘llashni bilishi zarur. Fan masalalarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni, «Davlat ta‘lim standartlari»da nazarda tutilgan, yoshlarni har tomonlama komil insonlar etib tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqligi orqali belgilanadi. Bu mumtoz madaniyatimiz va qadriyatlarimizni anglash, o‘zlashtirish, ajdodlarimiz targ‘ib etgan, ma‘naviy-axloqiy mezonlarni talabalar ruhiyatida ulg‘aytirish asosida amalga oshiriladi. «Adabiyot tarixi va nazariyasi» fani aynan shunday ko‘nikma va bilimlarni berishi lozim bo‘lgan fan hisoblanadi.

«Adabiyot tarixi va nazariyasi» fani talabalarga 1–4 semestrlarda o‘qitiladi. Mazkur o‘quv qo‘llanma 1-semestrda o‘qitiladigan «Adabiyot nazariyasi» qismiga bag‘ishlangan.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda madaniy va ma‘naviy il-dizlardan uzilmaslik, adabiy namunalarni o‘rgatish, o‘zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko‘lamini yuksaltirish, komil ma‘naviyatni shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, talabalarda badiiy asar mohiyatini chuqur anglash ko‘nikmasini hosil qilish, mavjud matnlarni tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish masalasini shakllantirish, egallangan bilim va malakani xalq ma‘naviyatini rivojlantirish yo‘lida amaliyotga tatbiq etish fanni o‘qitishning vazifalarini tashkil etadi.

«Adabiyot tarixi va nazariyasi» fani ijtimoiy-gumanitar, kasbiy fanlardan biri bo‘lib, boshqa kasbiy fanlarni chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Biz qo‘llanmamizda Dominick Lacapraning «History, literature, critical theory», Hans Bertensning «Literary Theory. The basics», Terry Eagletonning «Literary Theory» asarlaridan mavzuimizga oid qismlarini izohlab o‘tamiz.

## ADABIYOT NAZARIYASI FAN SIFATIDA

1. Nima uchun adabiyotni o'rganamiz?
2. Adabiyotshunoslik va uning tarkibiy qismlari.
3. Sharq adabiyotshunosligi.
4. Adabiyot nazariyasining xarakter xususiyatlari.
5. Adabiyot nazariyasi fanining tarixiy taraqqiyoti va manbalari.

**Tayanch so'zlar:** *adabiyot – so'z san'ati, badiiylik, xalq og'zaki ijodi (folklor), yozma adabiyot, adabiyotshunoslik, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik, Sharq adabiyotshunosligi, Forobiy, Aristotelning «Poetika» asari, «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi»), «Majolis un-nafois» («Go'zallar majlisi»), «Muxtasar».*

Har bir millatning o'ziga xos qadriyatlarini, dunyoqarashini, xalqona udumlarini ro'yi-rost ko'rsatadigan eng kuchli vositalardan biri o'sha xalqning adabiyoti hisoblanadi. Masalan, Abdulla Qodiriy, Oybek, Mirtemirning asarlarini mutolaa qilganimizda o'zbekona lutf hayratlantirsa, Said Ahmad, Abdulla Qahhor, Ne'mat Aminov, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov komediyalari va hajviyalarini o'qiganimizda yoki ko'rganimizda millatimizga xos beg'ubor kulgu va sho'xchan askiyadan zavq olamiz. Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanini o'qiganimizda o'zbekning mehnatkash, zahmatkash dehqoni ko'z oldimizga keladi. Cho'lpon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf she'rlarida ajib bir lirik ohang, joziba bizni ohanrobodek o'ziga tortsa, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron asarlaridagi shiddat va jasorat yanada maftun etadi.

Umuman, «Badiiy adabiyotning bu qadar kuchi, jozibasining siri nimada?» – degan savol barcha adabiyot ixlosmandlarini, badiiyat ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlarni o'ylantirgan, mushohada yuritishga undagan.

O'zbekning ma'rifatparvar ijodkorlaridan biri Cho'lpon 16 yoshida yozgan «Adabiyot nadur?» maqolasida adabiyot, umuman, ijod olami haqida quyidagilarni bayon qiladi: «Ha, to'xtamasdan harakat



qilib turgʻon vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur boʻlsa, maishat yoʻlida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti oʻlmagan va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, oʻydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz boʻlur»<sup>1</sup>.

Choʻlponning mazkur fikrlarini adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov quyidagicha izohlaydi: «Qadim-qadimlardan beri maʼlumki, badiiy asar chinakam sanʼat darajasiga koʻtarilmogʻi uchun unda gʻoyaviylik bilan badiiylik chambarchas birikib ketgan boʻlmogʻi kerak. Badiiyatsiz gʻoyaviylik adabiyotni muqarrar oʻlimga mahkum etadigan rak kasaliga oʻxshaydi. Adabiyot faqat badiiyati orqaligina, yaʼni teran hayotiy mazmunni, muhim hayot haqiqatini odamlarni hayajonlantiradigan, toʻlqinlantiradigan badiiy shakllarda ifodalaganidagina jamiyat ehtiyojini qondira oladigan qudrat kasb etadi»<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, adabiyot quruq gʻoyalar majmui emas, balki, birinchi navbatda, inson ruhiyati bilan bogʻliq boʻlgan hodisa ekanligini 16 yoshli yigitcha mukammal tushunyapti. U odamlarning shuuriga emas, his-tuygʻulariga ham taʼsir etishi, ularni quvontirib yoxud mahzun ahvolga solib, shu orqali ijtimoiy burchini oʻtashi zarur. Choʻlpon bu fikrlarni oʻziga xos obrazlarda bunday ifodalagan: «Adabiyot chin maʼnosi ila oʻlgan, soʻngan, qaralgan, oʻchgan majruh yarador koʻngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, oʻtkir yurak kirlarini yuvadurgʻon toza maʼrifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorugʻ va ravshan qiladurgan, chang va tuproqlar toʻlgan koʻzlarimizni artib tozalaydurgʻan buloq suvi boʻlgonlikdan bizga gʻoyat kerakdur»<sup>3</sup>.

Insonning komillashishiga, uning oʻzligini anglashiga taʼsir koʻrsatadigan vositalar orasida, ayniqsa, adabiyot alohida ajralib turadi. Chunki adabiyot insonning qalb quvvati va aql-tafakkuri rivojini oʻziga

<sup>1</sup> *Choʻlpon. Adabiyot nadir?* –T.: «Choʻlpon». 1994. – B. 36–37.

<sup>2</sup> *Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti.* –T.: «Sharq» NMAK. 2004. – B. 68.

<sup>3</sup> *Choʻlpon. Adabiyot nadir?* –T.: «Choʻlpon». 1994. – B. 36–37.



xos tarzda mujassamlashtiradi. Unda qalbning hissiyoti, tuygʻulari, aqlning mantiqiy mushohadasi, mulohazalari ajoyib tarzda uygʻunlashgan boʻladi. Adabiy asarlarida kishilarning his-tuygʻulari, fikr-mulohazalari obrazlar orqali akslanadi. His-tuygʻular qalbgaga xos kechinmalar sanaladi, fikr-mushohada esa miya mulki boʻlgan ong – aqlning mahsuli.

«Adabiyot» arabcha soʻz boʻlib, u «odob» (koʻplik shakli «adab») soʻzidan olingan. Odob-axloq esa insonni mukarram etuvchi, uni barcha mavjudotlardan ulugʻvor qiluvchi hodisadir. Odob-axloq insonni barcha mavjudotlardan ustun qiluvchi hodisagina boʻlib qolmasdan, balki kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, dunyoning osoyishtaligi, tinchligini taʼminlovchi, odamlarning aql-tafakkurini ravshan etuvchi tayanch omil hamdir. Shu boisdan asosi «odob», «adab» boʻlgan adabiyotga azal-azaldan jamiyat maʼnaviyatining poydevori sifatida qaralgan.

Adabiyot atamasi azal-azaldan kishilar turmushida juda keng qoʻllangan boʻlishiga qaramasdan, uning mohiyatini toʻla-toʻkis ifoda qiladigan yagona soʻz topilmagani juda qiziqdir. Masalan, «литература» soʻzi adabiyotning yozma xususiyatini ifoda qiladi. «Literatura» «yozilgan, bosilib chiqqan, chop etilgan yozuv mahsulotlari» demak-dir. Chunki lotincha «litera»dan hosil boʻlgan bu soʻz «harf» degan maʼnoni bildiradi. Biroq, adabiyotning yozma shakli bilan birga uning ogʻzaki shakli ham mavjuddir. Qolaversa, folklor, yaʼni xalq ogʻzaki adabiyoti yozma adabiyotdan avval paydo boʻlgan. U yozma adabi-yotning maydonga kelishiga asos, poydevor sifatida kishilik jamiyati tafakkuri tarixi, xayoloti va dunyoqarashi rivojini oʻzida aks ettirgan. Shu boisdan: «Adabiyotning yozma va ogʻzaki xususiyatini ingliz tili-da qoʻllanadigan «literatura» terminidan koʻra nemischa «wortkunst» yoki ruscha «slovesnost» soʻzlari oʻzida aniqroq mujassamlashtiradi», deb yozadi AQSHlik adabiyotshunoslar R. Uellek va O.Uorren (Теория литературы. – Moskva: Progress, 1978. – S. 39).

Adabiyotning tabiati, vazifalari xususida barcha davrlarda juda koʻplab asarlar yozilgan. Jumladan, shoʻro siyosati hukm surgan davrda ham rus, oʻzbek va boshqa xalqlar olimlari tomonidan adabiyot haqida qator tadqiqotlar yaratilgan. Ularda adabiyotning paydo boʻlishi, shakl-

lanishi, rivoji, janrlari tabiati, adabiyotdagi an'anaviylik va yangilanish jarayonlari xususida mulohazalar ilgari surilgan.

Biz qo'llanmamizda Dominick Lacapraning «History, literature, critical theory» asaridan mavzuimizga oid qismlarini izohlab o'tamiz. Mazkur kitob adabiyot (xususan, roman), tarix va tanqidiy tafakkur uchun umumiy bo'lgan muammoga bag'ishlangan esse kadridan boshlanadi. «Bu mavzu keng qamrovli, mening yondashuvim esa, selektivdir. Biroq muammolar tahlil qilinadigan uslub tarix va adabiyot uchun umumiy natijalarni beruvchi tarixiy-adabiy tahlilga mansubdir». Ushbu kitobda tarix va adabiyot o'zaro ziddiyatli munosabatga kirishadigan samarali so'rov shaklini tuzish – tarixiy anglash masalasida tanqidiy (jumladan, adabiy) nazariyalarning, adabiy tanqidning tarixiy masalalarining o'rni haqida so'z yuritiladi.

Ijtimoiy fanlar bilan yaqin munosabat va ijtimoiy tarixga yuz o'g'irib aytish mumkinki, tarixiy fanlar va adabiyot orasida aloqa bor edi. Bu tendensiya Gabriel Spigel asarida tarix, ijtimoiy nazariya va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda tahlil etilgan. Taniqli mantiqchi Villyam Spigel: «Yangi tendensiyalar tarixi» to'plamida dalil, lingvistik, tahrir, adabiyot va tanqidiy nazariya, til va madaniy burilishlar o'zaro bog'liq», deya ta'rif beradi.

«Men tarix va adabiyot o'rtasidagi munosabatlar haqida qayta o'ylash jarayonida bir o'lchov haqida o'ylashni istardim. Men fikrlash eng ishonchli yo'l deb o'ylayman va tasavvur qilish deb hamkorlikning murakkab va xilma-xil shakllari, ayniqsa, o'zaro so'roq usullari tarix va adabiyot o'rtasidagi munosabatlarga daxldor deb bilaman. Boshqa so'zlar bilan aytganda, tarix va adabiyot, bir-biriga savollar, topilmalarga javob izlab munosabat o'rnatishi mumkin. Tarix va adabiyot orasidagi aloqalar juda aniq va yaxshi rivojlangan bo'lib, bu, ayniqsa, tarixiy sharoitda jarayonni kiritishda adabiy matnlarda o'z aksini topadi.. Bu masala bugungi kunda jarohatli bo'shliqlar yoki «real»lik bilan tarixiy kuchlar orasida chambarchas bog'liqlik borligini isbotlay-

---

1 Dominick Lacapra. History, literature, critical theory. Cornell university press. 2013. 3-page



di. Bunday matnlar adabiy sohada va keng ijtimoiy-madaniy va siyosiy ma'noda o'zgarishlar bo'lgan vaqt davomida o'qiladi. Ilm doimiy ravishda puxta adabiyot yoki «adabiy» obyektini o'rganadi, o'zlashtiradi.

Haqiqiy badiiy asarning asosiy shakli doimiy sarguzasht bo'lib, bunda shaxsning kapitalizm, mustamlakachilik, o'sish kabi mavzudagi adabiy matn ijtimoiy-tarixiy yoki tarixiy jarayon yoki tarkibida bir turdagi bir alomat bir egizak tasvir emas, balki kontekstual bo'lib, o'ziga xos, betakror shaklda, ko'rinishi «real»likni aks ettirishi kerak. Matn o'sha davrning, vaqtning hujjati bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvning o'ziga xos variantida ushbu holatda kamida davlat yoki umumiy madaniyat darajasining o'ziga xos jihatlari adabiy hodisalarda yorqin aks etadi, adabiyot deb atalmish institut esa, zamonaviy madaniyat sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, adabiyot o'z nuqtayi nazaridan dinamikasi ko'proq yoki boshqa kontekstual bosim kamroq ochiq va shunga o'xshash farqlanuvchi tizimlari yoki zamonaviy jamiyat va madaniyatning boshqa sohaları (masalan, ilm-fan, ish yoki kasb-hunar) bilan bog'liq bo'ladi.

Yana bir javob: matn – avtonom yoki yangi tarixiy sharoitda asosiy adabiy ma'no ifodalovchi vosita hisoblanadi. Badiiy uslublar, manbalar bilan doimiy shug'ullanish adabiyotni yanada ko'proq tushunishga xizmat qiladi».

Adabiyotshunoslikning o'rganadigan manbasi adabiy-badiiy asarlar va ular yaratilgan sharoit, muhitdir. Bundan ayonlashadiki, adabiyotshunoslik juda ko'p fan, sohalar, xususan, tarix bilan uzviy bog'liq holda ish tutadi. Ayni choqda, barcha fanlar turli tarmoq, bo'limlarga ajralgani singari adabiyotshunoslik ham muayyan tarkibiy qismlarga bo'linadi. Bular: adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya, adabiyotshunoslik metodologiyasidir. Ularning har biri adabiyot hodisalarini ma'lum bir yo'nalish, nuqtayi nazardan o'rganadi. Barchasining bosh obyekti esa adabiy-badiiy asarlar sanaladi.

---

1 *Dominick Lacapra. History, literature, critical theory. Cornell university press. 2013,13-15-pages.*

Atoqli olim, professor Umarali Normatov shunday yozadi: «Adabiyotshunoslikda «Biografik metod» degan ilmiy maktab bor. Bu metod yozuvchi asarlaridagi ijodkor shaxsiyati, tarjimayi holi bilan aloqador jihatlarni tekshiradi. Odil Yoqubov ijodi bu xil tadqiqot uchun g'oyat boy material beradi. Adibning o'nlab asarlari, jumladan yangi to'plamdan joy olgan publitsistika hamda etyudlar, «Qaydasan, Moriko?», «Muzqaymoq», «Yaxshilik» kabi qissa va hikoyalarida muallifning o'zi asar personaji sifatida ishtirok etadi; shaxsan o'zi bevosita ishtirok etmagan asarlarida ham muallifning o'rni tayin – ehtirosiga to'la yoniq ovozi baralla eshilib turadi. Hatto olis tarixdan hikoya qilgan asarlarida ham yozuvchining shu xildagi shaxsiy ishtiroki ularga ajib fayz baxsh etadi».

Aynan «Biografik metod»da yozilgan asarlarni Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor va boshqa adib ijodida ham kuzatish mumkin.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan «Adabiyot tarixi» adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o'rganadi. Adabiyot tarixi har bir adabiy hodisani mavjud ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog'liq holda talqin qiladi. Qiyoslash orqali davrlar adabiyoti orasidagi o'zgarishlarni aniqlaydi. Milliy adabiyotlar o'rtasidagi farq-tafovutlarni ko'rsatadi. Adabiyotda ro'y bergan o'zgarishlarni muayyan belgi-xususiyatlariga ko'ra davrlashtiradi. Albatta, adabiyotning taraqqiyot bosqichlarini davrlarga ajratish nisbiy bo'ladi. Adabiyot tarixini davrlashtirish, avvalo, adabiyot hodisalariga qanday nuqtayi nazardan yondashishga bog'liq. Adabiyot tarixida- adabiyot janrlarida ro'y bergan yangilanishlar, ijodkorlarning hayot hodisalari va inson obrazini yaratishda qanday uslub, unsurlar qo'llagani ham aniqlanadi. Chunki adabiyot tarixi adabiy janrlar, adabiy uslublar tarixidir.

Adabiyotshunoslikning ikkinchi tarkibiy qismi hisoblangan «adabiyot nazariyasi» adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog'liqlikni, so'z san'atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini,

---

1 Normatov.U. Nafosat gurunglari. –T.: «Muharrir», 2010. – B. 203.



badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yoʻnalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni oʻrganadi. Shuningdek, u adabiyotni inson maʼnaviy-maʼrifiy faoliyatining bir koʻrinishi sifatida tahlil qiladi. Zotan, adabiyotning haqiqiy namunalarida insonning qalbi, tafakkuri akslangan va ular boshqalarga taʼsir eta oladigan quvvatga ega boʻladi.

Adabiyotshunoslikning uchinchi tarkibiy qismi hisoblangan «adabiy tanqid» joriy adabiy jarayonni tahlil qiladi. Yaratilayotgan asarlarning gʻoyaviy-estetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo boʻlayotgan oʻzgarish, yoʻnalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga taʼsiri haqida fikr bildiradi. Joriy adabiyot hodisalari xususida mulohaza bildiruvchi adabiyotchi mutaxassis – munaqqid, kitobxon va yozuvchi, shoir oʻrtasida oʻziga xos vositachi, hukam vazifasini bajaradi. Munaqqidning keng tafakkur bilan mulohaza yurita bilishi adabiyot ravnaqi va oʻquvchilar ommasini did-saviyasining yoʻqolishiga samarali taʼsir koʻrsatadi. Munaqqidlar faoliyati jamiyatda ijtimoiy fikrning faollashishiga samarali taʼsir koʻrsatgan asosiy omillardan biri boʻlganini tasdiqlovchi dalillar tarixda talaygina.

Qadim Sharqda sheʼriyat badiiy asar (doston, gʻazal, ruboiy, tuyuq va hokazo) darajasida qadrlangan. Aytish mumkinki, Sharq adabiyotshunosligi, asosan, sheʼriyatdan iborat boʻlgan. Sheʼrni tushunish, tahlil qilish, sharhlash kishilarning intellektuallik darajasini belgilaydigan oʻziga xos mezon hisoblangan. Shuning uchun oʻz zamonining barcha- peshqadam ijodkorlari sheʼriyatga doir maxsus- bir asar yaratishga harakat qilishgan. Jahon tibbiyot fani tarixida yuksak oʻrin tutgan Abu Ali ibn Sinodek mutafakkirning «Shoirlar panohgohi» asarini yozgani ham aynan shundan dalolat beradi. Yoki Alisher Navoiy, Bobur singari siymolarning «Xamsa», «Xazoyin ul-maoniy», «Boburnoma»yu yuzlab goʻzal gʻazal, tuyuqlar yaratish bilan kifoyalanmasdan, «Mezon ul-avzon» («Vaznlar oʻlchovi»), «Majolis un-nafois» («Goʻzallar majlisi»), «Muxtasar»dek asar bitgani, ularning aruz sheʼr tizimini gʻoyat nuktadonlik bilan tadqiq qilgani Sharqda azaldan sheʼriyatga gʻoyat eʼtibor berilganini tasdiqlaydi. Forobiy Aristotel-

ning «Poetika»sini sharhlab, eramizdan avval yashagan bu donishmand o'zining she'r satrlari haqidagi mulohazalarini to'la bayon qilishga ulgurmagan der ekan, u she'r san'ati haqida shunday deydi: «Bu san'at biror maqsadni amalga oshirayotgan paytda yo'ldan chiqib ketmaslikka yordam beruvchi va inson xayolini qog'ozda namoyon etuvchi san'atdir. She'rning olti xili bor. Shundan uchasi yaxshi va uchasi yomon xilidir. Yaxshilaridan biri shuki, inson uning yordamida aqliy quvvatini mukammallashtiradi, san'atga olib boruvchi fikri oydinlashadi, yaxshi ishlarga, fazilatli bo'lishga ilhomlanadi, xasislik yomon va qabih ishlardan saqlanadi. Ikkinchi yaxshi xili kishining ruhiy sezgilarini yuksaltiradi, haddan tashqari ehtiyotkorlikdan xoli qiladi, izzat-nafsni saqlaydi, g'azablanishdan, yomon ishlardan ehtiyot bo'lishga- yordam beradi-. Uchinchisi, ana shu yuqorida qayd etilgan yaxshi xislatlarni namoyon etishga yordam beradi».

Har bir fanning obyekti bo'lgani singari adabiyotshunoslikning ham o'z o'rganish manbasi bo'lib, bu – badiiy adabiyot. Badiiy adabiyot inson tafakkurining eng noyob ne'matlaridan biridir. Ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblangan badiiy adabiyotning og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lib, ularning har ikkalasi uchun ham bosh obyekt inson va uning o'ziga xos dunyosidir.

Yozuvchi, shoir mavjud voqelikni go'yo harakatlanayotganday ko'rsatadi. Ularning ko'zga dabdurustdan tashlanavermaydigan jihatlari haqida fikr bildiradi-. Hodisani xuddi ayni chog'da bo'layotgandek jonli holatda gavdalantirishga intiladi. Buning uchun xilma-xil qiyos, chog'lantirish, tashbeh, o'xshatishlarni qo'llaydi. Ular badiiy adabiyotning muhim asoslaridir.

Nazariya yoki nazariy fikrlash, undan mustaqil tarzda ma'lum maqsadda foydalanishni taqozo etishini tan olsakda, adabiyot nazariyasining tadqiq obyekti va tahlil usullari muammoli bo'lib qolmoqda. Nazariya hodisalar haqidagi fikrlarni umumlashtirish va tushunchalarni rivojlantirish imkoniyatlarini talqin va tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Adabiyot tushunchasi nazariyotchi olimlar o'rtasida bahs va munozaralarga sabab bo'lsa-da, u badiiy shakllangan yozma adabiyot sifatida uzoq tarixga egadir. Adabiyot nazariyasi ham adabiyot



lingari tarixiy vaziyatlarning natijasi yoki mahsuli hisoblanadi. XX asr oxirlariga kelib adabiyot nazariyasi uchun yangicha yondashuv hamda tahlillarni ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi.

«Adabiyot» tushunchasining ma'nosini to'raligi bilan ochib berish uchun, avvalo, adabiyotning bir necha muhim eng ko'zga tashlanadigan va hamma tomonidan tan olingan xususiyatlarini ko'rib chiqish lozim. Adabiyoti taraqqiy topgan har bir xalqning yutuqlari tezda butun jahon miqyosiga chiqadi. «Keling, Alisher Navoiydek shoir bo'lgani uchun quvonaylik. Bizga shunday shoirni armug'on qilgan o'zbek xalqiga katta rahmat aytaylik», – degan akademik N.I.Konrad. Adabiyotning butun insoniyat madaniyati bilan chambarchas bog'lanib ketgani uning bu qadar keng ommaviyligini ta'min etuvchi sabablardan biridir. Har bir xalqning vakillari tomonidan yaratilgan asarlarning butun insoniyat tomonidan qabul etilishida adabiyotning ana shu xususiyati – ommaviylik yana ham yaqqol ko'rinadi.

Adabiyotning yana bir xususiyati – uning ma'lum shaxslar, talant egalari tomonidan yaratilishi. Shuni ta'kidlash joizki, bu jihatdan yozma adabiyot xalq og'zaki ijodidan farq qiladi. Uning yana bir xususiyati badiiylikdir. Badiiylik hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg'otadigan qilib tasvirlashdir. Badiiylik barcha san'at turlariga xos hodisadir. Badiiylisiz san'at yo'qdir. San'atning mavjudligi, mohiyati uning badiiyligidir. Shuning uchun badiiylikni san'atning tashqi ko'rinishi, shakli sifatida qarash asossizdir. Badiiylik shakl va mazmun mutanosibli tufayli ta'sirchanlik kasb etadi. Adabiyotning badiiyligini ta'minlaydigan eng birinchi omil uning tilidir. Chunki adabiyot so'z san'atidir. Tasviriy san'at asarlariga ranglarning yorqinligi, ularning o'z o'rnida qo'llanishi- joziba baxsh etsa, adabiy asarni so'z nafosatli qiladi. Adabiy asarda hayotning kundalik oddiy hodisalari so'z tufayli yorqin, hayajonlantiradigan bo'lib ko'rinadi.

---

<sup>1</sup> *Gregory Castle. The Blackwell Guide to Literary Theory. Blackwell Publishing Ltd, 2007, 5-6 pages.*

Adabiyot nazariyasining asosiy obyekti sanalgan badiiy adabiyotning ikki shakli: xalq ogʻzaki ijodi (folklor) va yozma adabiyotni bir-biridan past yoki baland qoʻyib boʻlmaydi. Chunki har ikkisi ham soʻz sanʼatidir. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida ham, yozma adabiyot asarlarida ham hodisalar taʼsirchan, badiiy gavdalantiriladi. Ijtimoiy-maʼnaviy, tarixiy taraqqiyot tufayli yozma adabiyot qanchalik ravnaqqa erishgan boʻlmasin, folklor asarlari oʻrnini egallay olmaydi. Folklor yozma adabiyotning paydo boʻlishi, shakllanishi va rivojlanishini taʼminlagan poydevor sanaladi. XX asr adabiyotida yangi yoʻnalishlar yuzaga kelishiga ham qadimiy folklor mif (asotir)lari asos boʻlgan. Umuman, yozma adabiyotni yangi timsol, yangi obrazlar bilan boyitib borishga folklor asarlari samarali taʼsir koʻrsatadi.

Adabiyot nazariyasining asosiy obyekti boʻlgan xalq ogʻzaki ijodi asarlari va yozma adabiyot nima? Xalq donishmandligi, hayotiy tajribasini mujassam etgan maqollar, topqirlik, zukkolikni taqozo etadigan topishmoqlar, kishilarning qahramonligi, jasurligi, el-yurt manfaati uchun fidoyiligini taʼsirchan voqealarda aks ettiruvchi dostonlar, orzu-havas, quvonch-shodlik tuygʻularini satrlarga singdirgan qoʻshiqlar xalq ogʻzaki ijodi asarlari sanalsa, «Oʻtgan kunlar» (A. Qodiriy), «Yulduzli tunlar» (P. Qodirov)ga oʻxshagan romanlar, «Jamila» (Ch. Aytmatov), «Yodgor» (Gʻ.Gʻulom) singari qissalar, «Bemor» (A. Qahhor), «Urushning soʻnggi qurboni» (Oʻ. Hoshimov) kabi hikoyalar, «Birinchi muhabbatim» (A. Oripov), «Oʻzbekim» (E. Vohidov) kabi sheʼrlar yozma adabiyot namunalari. Xalq ogʻzaki ijodi uchun ham, yozma adabiyot asarlari uchun ham mushtarak jihat ularning hayot hodisalari va inson dunyosini obrazli ifoda etishidir. Obrazlilik adabiyotning har ikki shaklini umumlashtirib turuvchi bosh xususiyatdir. Folklor bilan yozma adabiyot asarlari orasidaga eng muhim farq – biri ogʻzaki shaklda, ikkinchisi esa, yozma tarzda vujudga kelishidadir. Shuningdek, maqol, ertak, topishmoq, qoʻshiq singari folklor asarlarning muallifi kim ekani, ularning qachon, qayerda yaratilgani nomaʼlum boʻladi. «Alpomish», «Manas» singari jahon madaniyati durdonalari sanalgan xalq dostonlarini ilk bora kim ijro etgani aniq emas. Buni aniqlashtirishga urinish ham



o'rinsiz. Folklor asarlarning o'ziga xos yana bir xususiyati ularning variantlilikidir. G'azal, ruboiy, tuyuq, roman, qissa, hikoya singari yozma adabiyot asarlari esa biror bir muallif tomonidan yaratiladi. O'sha asar uning nomi bilan bog'lanadi. Chunki bu asarning yaratuvchisi, kashfiyotchisi uning muallifi sanaladi.

### **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Gregory Castle*. The Blackwell Guide to Literary Theory. Blackwell Publishing Ltd, 2007, 5-6 pages.
2. *Sulton I*. «Adabiyot nazariyasi». – T.: «O'qituvchi», 2005.
3. *Xalizev V*. Теория литературы. – М., 2000.
4. *Quronov D*. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: «Fan», 2007.
5. *Cho'lpon*. Adabiyot nadir? –T.: «Cho'lpon». 1994.
6. *Sharafiddinov O*. Ijodni anglash baxti. –T.: «Sharq» NMAK. 2004.
7. *Normatov U*. Nafosat gurunglari. –T.: «Muharrir», 2010.

### **Mavzuga doir mustaqil ish topshiriqlari**

1. Adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi fanlarining ijtimoiy-tarixiy asoslari, o'zaro farqli va mushtarak xususiyatlarini aytib bering.
2. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari nima?
3. Adabiyot nazariyasi nimani o'rganadi?
4. San'at turlarining farqlanishi tamoyillari qanday?
5. Adabiyot va estetik kategoriyalar o'rtasidagi uzviylik nimada?

### **Keyslar banki**

**Keys 1.** Adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi fanlarining o'rganish obyektni topadi va ijtimoiy-tarixiy asoslarini tushuntiradi. Obyekti aniq bo'lmagan holda, ijtimoiy--tarixiy asosini bilib bo'lmaydi. Endi shular asosida ularning o'zaro farqli va mushtarak xususiyatlarini topish va aytib berish kerak.

### **Keysni bajarish bosqchichlari va topshiriqlar:**

- keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda);
- fanlarning farqli va mushtarak xususiyatlarini topish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish);
- adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi fanlarining ijtimoiy-tarixiy asosini aniqlang (individual holda).

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Adabiyotshunoslikning qanday tarkibiy qismlarini bilasiz?
2. Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi ekanligini qanday isbotlaysiz?
3. Jamiyat badiiy madaniyatini o‘stirishda bu fanning ahamiyati nimada?
4. Nazariya qanday yuzaga keladi?
6. Adabiyot nazariyasining xarakter xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
7. Adabiyot nazariyasi qanday fanlar bilan aloqador?
8. Adabiyot nazariyasining obykti nima?

### **Test savollari**

1. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini belgilang.

A. Matnshunoslik, manbaashunoslik;

B. Bibliografiya, adabiyot nazariyasi;

C. Adabiy tanqid, adabiyot tarixi;

D. Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid.

2. Adabiyot nazariyasining obyktini aniqlang.

A. She’riy asarlar tuzilishini aniqlaydi;

B. Badiiy asarlardagi o‘ziga xosliklarni o‘rganadi;

C. Epik asarlarning janr va turlarini tahlil qiladi;

D. Adabiy-badiiy asarlar va ular yaratilgan sharoit, muhit.



3. «Adabiyot» arabcha soʻz boʻlib, u «odob» (koʻplik shakli «adab») soʻzidan olingan. Ushbu atamaning boshqa tillardagi toʻgʻri variantini toping.

- A. «Wortkunst», «litera», «literary»;
- B. Nemischa «wortkunst», ruscha «slovesnost»;
- C. Lotincha «litera», ruscha literatura;
- D. Ingliz tilida qoʻllanadigan «literary».

4. Gʻarb adabiyotshunosligidagi qadimiy manbalarni aniqlang.

- A. Aristotel «Poetika», Belinskiy V.G. «Tanlangan asarlar»;
- B. Aristotel «Ritorika», «Poetika» asarlari, Bualo «Poetik sanʼat»;
- C. Bualo «Poetik sanʼat», Belinskiy V.G. «Tanlangan asarlar»;
- D. Boryev Y.B. «Estetika», Aristotel «Ritorika» asarlari.

5. Sharq mumtoz adabiyotshunosligida adabiyotshunoslikka oid asarlarni aniqlang.

- A. Navoiyning «Majolis un-nafois», «Hazoyin ul-maoniy» asarlari,
- B. Boburning «Mezon ul-avzon», Navoiyning «Majolis-un nafois» asarlari;
- C. Navoiyning «Mezon ul-avzon», Boburning «Muxtasar» asari; D. Navoiyning «Muhokamat ul-lugʻatayn», «Badoe ul-bidoya» asarlari-.

5. Adabiyot nazariyasining 2 asosiy obyektini belgilang.

- A. Xalq ogʻzaki ijodi (folklor) va yozma adabiyot;
- B. Nasriy va nazmiy asarlar;
- C. Lirik va epik asarlar;
- D. Adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga oid asarlar.

7. «Adabiyot» tushunchasining maʼnosini eng muhim va har tomonlama tan olingan xususiyatlarini belgilang.

A. Adabiyoti taraqqiy topgan har bir xalqning yutuqlari tezda butun jahon miqyosiga chiqadi, adabiyotning yana bir xususiyati uning maʼlum shaxslar, talant egalari tomonidan yaratilishidir, badiiy adabiyotning tili xalqning tilini yanada boyitadi;

**JIZZAX DPI**

B. Adabiy asarda hayotning kundalik oddiy hodisalari soʻz tufayli yorqin, hayajonlantiradigan boʻlib koʻrinadi, sujet va kompozitsiyasi oʻziga xos boʻladi;

C. Badiiylik barcha sanʼat turlariga xos hodisadir. Badiiylisiz sanʼat yoʻqdir, tarbiyaga biroz taʼsir qiladi;

D. Badiiylik shakl va mazmun mutanosibligi tufayli taʼsirchanlik kasb etadi, yozma adabiyot rivojlanadi.

9. Xalq ogʻzaki ijodi namunalari hamda yozma adabiyot asarlaridagi eng muhim mutanosiblikni aniqlang.

A. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida ham, yozma adabiyot asarlarida ham ijobiy va salbiy obrazlar boʻladi;

B. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida ham, yozma adabiyot asarlarida ham hodisalar taʼsirchan, badiiy gavdalantiriladi;

C. Xalq ogʻzaki ijodi namunalari ham, yozma adabiyot asarlari ham badiiy uslubda yoziladi;

D. Xalq ogʻzaki ijodi namunalari hamda yozma adabiyot asarlaridagi voqealar rivojida oʻxshash jihatlar mavjud.

10. Yozma adabiyot qanchalik ravnaqqa erishgan boʻlmasin, u folklor asarlari oʻrnini egallay olmasligini izohlang?

A. Folklor yozma adabiyotning paydo boʻlishi, shaklanishi va rivojlanishini taʼminlagan poydevor sanaladi. XX asr adabiyotida yangi yoʻnalishlar yuzaga kelishiga ham qadimiy folklor mif (aso-tir)lari asos boʻlgan. Umuman, yozma adabiyotni yangi timsol, yangi obrazlar bilan boyitib borishga folklor asarlari samarali taʼsir koʻrsatadi;

B. Egallay olmaydi;

C. Ijtimoiy-maʼnaviy, tarixiy taraqqiyot tufayli yozma adabiyot qanchalik ravnaqqa erishgan boʻlmasin, u folklor asarlari oʻrnini egallay olmaydi;

D. Har birining oʻz oʻrni bor.



11. Adabiyot nazariyasining asosiy obyekti bo'lgan xalq og'zaki ijodi asarlari va yozma adabiyot nima?

A. Xalq donishmandligi, hayotiy tajribasini mujassam etgan maqollar, topqirlik, zukkolikni taqozo etadigan topishmoqlar, kishilarning qahramonligi, jasurligi, el-yurt manfaati uchun fidoiyligini ta'kirchan voqealarda aks ettiruvchi dostonlar, orzu-havas, quvonch-shodlik tuyg'ularini satrlarga singdirgan qo'shiqlar xalq og'zaki ijodi asarlari sanaladi;

B. «O'tgan kunlar» (A.Qodiriy)ga o'xshagan romanlar, «Oq kema» (Ch.Aytmatov) singari qissalar, «O'g'ri» (A. Qahhor) kabi hikoyalar, «Bahor» (A.Oripov) kabi she'rlar yozma adabiyot namunalaridir. Folklor uchun ham, yozma adabiyot asarlari uchun ham mushtarak narsa ularning hayot hodisalari va inson dunyosini obrazli ifoda etishidir. Obrazlilik adabiyotning har ikki shaklini umumlashtirib turuvchi bosh xususiyatdir;

C. Folklor bilan yozma adabiyot asarlari orasidaga eng muhim farq – biri og'zaki shaklda, ikkinchisi esa yozma tarzda vujudga kelishida. Shuningdek, maqol, ertak, topishmoq, qo'shiq singari folklor asarlarning muallifi kim ekani, ularning qachon, qayerda yaratilgani noma'lum bo'ladi. «Alpomish», «Manas» singari jahon madaniyati durdonalari sanalgan xalq dostonlarini ilk bora kim ijro etgani aniq emas. Buni aniqlashtirishga urinish ham o'rinsiz. Folklor asarlarning o'ziga xos yana bir xususiyati ularning variantlilikidir. G'azal, ruboiy, tuyuq, roman, qissa, hikoya singari yozma adabiyot asarlari esa biror bir muallif tomonidan yaratiladi. O'sha asar uning nomi bilan bog'lanadi. Chunki bu asarning yaratuvchisi, kashfiyotchisi uning muallifi sanaladi;

D. Ikkisi ham badiiy adabiyot.

## TARQATMA MATERIALLAR

**ADABIYOT NAZARIYASI** – adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari, jamiyat hayotidagi o‘rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o‘rganadi va shu asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. Shuningdek, adabiyot nazariyasi badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator umumestetik masalalarni ham so‘z san‘atiga tatbiqan o‘rganadi. Adabiyot nazariyasi badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi. Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning yadrosini tashkil qiladi. Adabiyot nazariyasi *adabiyot tarixi* va *adabiy tanqid* materiallarini umumlashtirsa, bu ikkisi o‘z faoliyatida adabiyot nazariyasi ochgan qonuniyatlar, u ishlab chiqqan ilmiy tushunchalar tizimiga tayanadi. Shu tariqa adabiyotshunoslikning har uchala asosiy sohaları bir-biri bilan bog‘lanadi, yaxlit bir tizim – adabiyotshunoslik ilmini tashkil qiladi.

---

**SHARQ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA**, jumladan o‘zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining bir qator masalalari ancha keng o‘rganilgan. Badiiy masalalar sirasiga *ilmi aruz* (Navoiy, Bobur), *ilmi qo-fiya* va *ilmi badi’* (A. Husayniy, Taroziy) kabilarni kiritish mumkin. Mazkur masalalar adabiyotshunoslikning bir qismi – *poetika* doirasi bilan cheklangan edi. Sharqda «muallimi soniy» deya ulug‘lanuvchi Forobiy esa, yunon faylasufi Arastu ta‘sirida va bevosita uning asarlarini sharhlash jarayonida badiiy adabiyotning mohiyat, tur va janrlar kabi masalalariga e‘tibor qaratgan. Biroq, mumtoz adabiyotshunoslikda adabiyot nazariyasi muayyan bir tizim holiga kelmagan, tatbiqiy xarakterdagi hodisa edi. O‘zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining alohida tarmoq sifatida shakllanishi XX asrning dastlabki choragiga to‘g‘ri keladi, sohaning qaldirg‘ochlari sifatida Fitrat, Abdurahmon Sa‘diylarni ko‘rsatish mumkin.



## BADIIY ADABIYOTNING O‘ZIGA XOSLIGI

1. Mazmun va shakl haqida umumiy tushuncha.
2. Adabiy matnlar talqini va adabiyot nazariyasi.
3. Yozuvchi ijodining pafosi va badiiy asar.
4. Badiiy asarda mavzu va g‘oya.
5. Badiiy asar tili va uning xususiyatlari.

**Tayanch so‘zlar:** *mazmun, shakl, badiiy asar, pafos, yozuvchi ijodi pafosi, mavzu, g‘oya, badiiy asar tili.*

O‘zbekning ardoqli yozuvchisi O‘tkir Hoshimov badiiy asarga o‘ziga xos ta’rif beradi va bu tavsif ko‘plab ilmiy qoidalardan qisqa va lo‘ndaligi bilan bir marta o‘qigan insonning qalbida umrbod muhrlanadi: «Badiiy asar shunday daraxtiki, uning shoxida umumbashariy mevalar yetiladi, ildizi esa milliy zaminda yotadi»<sup>1</sup>.

Har bir fanning obyekti bo‘lgani singari adabiyotshunoslikning ham o‘z o‘rganish manbasi bo‘lib, bu badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot inson tafakkurining eng noyob ne’matlaridan biridir. Ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblangan badiiy adabiyotning og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Ularning har ikkalasi uchun ham bosh obyekt inson va uning o‘ziga xos dunyosidir. Albatta, tabiat hodisalari, hayvon, jonivorlar hayotiga bag‘ishlangan asarlar ham bo‘ladi. Biroq, ularda ham aslida kishilar nazarda tutiladi, odamlarga saboq bo‘ladigan, manfaat keltiradigan fikr, xulosalar ilgari suriladi. Tun, kun, quyosh, oy, yulduzlar, yil fasllari, o‘simliklar haqida mulohaza yuritilganda ham, avvalo, kishilar hayoti, turish-turmushi e’tiborga olinadi. Tabiat hodisalari, hayvonlar, o‘simliklar haqidagi asarlar, ayni chog‘da, kishilarning (demak, ijodkorning ham) badiiy tafakkur darajasini, falsafiy mulohaza yuritish miqyoslarini, xayol, tasavvur olamining qamrov doirasini ham bildiradi.

---

<sup>1</sup> Hoshimov U. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. –T.: «Sharq» NMAK. 2013. –B. 222.

Taniqli adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov «Adabiyotshunoslikka kirish» asarida: «Adabiyotshunoslikka oid asarlarda, darsliklarda: «Badiiy adabiyotning predmeti – inson» deb ko‘rsatiladi. Biroq, mazkur fikrni tor ma’noda tushunish, uni mutlaqlashtirish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki adabiyot insonni alohida (izolatsiya qilingan holda) emas, balki jamiyat, tabiat (bir so‘z bilan aytganda – borliq) uzviy aloqada o‘rganadi. Zero, insonning o‘zini ulardan xoli, izolatsiya qilingan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi, inson tabiatan ijtimoiy hodisadir. Modomiki adabiyotning predmeti ham, uning yaratuvchisi ham inson ekan, adabiyotning ijtimoiy bo‘lmasligi mumkin emas. Nima uchun asar yozildi, nima uchun ijodkor asarni yozishga kirishadi? Axir kundalik turmushda duch kelgan odamlar, hodisalar uning qalb qozonida, aql-idrokida qaynamaydimi, uni yozmasa bo‘lmaydigan holatga keltirib, qo‘liga qalam olishga majbur qilmaydimi? Demak, genetik jihatdan xohlasak-xohlamasak adabiyot ijtimoiy hodisa ekan. Biroq yaratilishi jihatidan, dunyoga nuqtayi nazar, o‘sha dunyo tufayli paydo bo‘lgan hissiyotlar, fikrlar nuqtayi nazaridan, tom ma’noda, shaxsiy hodisadir»<sup>1</sup>.

Badiiy adabiyotda kishilar dunyosi, ularning o‘zaro munosabatlarini aks ettirishdan avval borliq hodisalarini ko‘rsatish boshlangan. Biroq ular xuddi kishilar singari jonlantirilgan. Quyosh, oy, shamol, o‘simlik, hayvonlar xuddi odamlar singari gapirtirilgan.

«Tasavvur qiling: siz tasviriy san’at muzeyiga kirdingiz. Polotnolardagi ranglarni, odamlarning qiyofasini ko‘zingiz bilan ko‘rib, hayajonga tushasiz. Tasavvur qiling: siz magnitofonda musiqa tinglayapsiz. Cholg‘u ohanglari, xonandaning ovozi qulog‘ingiz bilan eshitib hayajonaga tushasiz...

Deylik, konsertga tushdingiz, sozanda soz chalyapti, xonanda qo‘shiq aytyapti. Raqqosa raqs tushyapti. Siz tomoshani ko‘zingiz bilan ko‘rib, qulog‘ingiz bilan tinglab zavqlanasiz. Endi, tasavvur qiling: siz kitob o‘qiyapsiz. Oq qog‘ozda qora chiziqlar xarflardan bo‘lak hech nima yo‘q. Rang ham, ovoz ham, raqqosaning harakatlari ham... Ammo

---

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti. –T.: 2004, –B. 27.



asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. Kitobdagi odamlarning qismatiga sherik bo'lib, o'zingiz bilmagan holda beixtiyor larzaga tushasiz.

Hech shubhasiz, badiiy adabiyot-dunyodagi sakkizinchi mo'jizadir». Mazkur fikrlarni nazariy jihatdan izohlaydigan bo'lsak, gap bu yerda badiiy asardagi badiiylik, ta'sirchanlik haqida ketyapti. Asardagi badiiylik hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg'otadigan qilib tasvirlashdir. Badiiylik barcha san'at turlariga xos hodisadir. Badiiylik bo'lmagan joyda san'at yo'qdir. San'atning mavjudligi, mohiyati uning badiiyligidir. Shuning uchun badiiylikni san'atning tashqi ko'rinishi, shakli sifatida qarash asossizdir. Badiiylik shakl va mazmun mutanosibligi tufayli ta'sirchanlik kasb etadi. Adabiyotning badiiyligini ta'minlaydigan eng birinchi omil uning tilidir. Chunki adabiyot so'z san'atidir. Tasviriy san'at asarlariga ranglarning yorqinligi, ularning o'z o'rnida qo'llanishi joziba baxsh etsa, adabiy asarni so'z nafosatli qiladi. Adabiy asarda hayotning kundalik oddiy hodisalari so'z tufayli yorqin, hayajonlantiradigan bo'lib ko'rinadi. Adabiy matnlar talqini va adabiyot nazariyasi bir-biriga qanchalik bog'liqligi masalasi nafaqat o'zbek olimlari, balki xorij ilm ahli orasida ham ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

«Shunday vaqtlar bo'ldiki, adabiy matnlar talqini va adabiyot nazariyasi bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan boshqa-boshqa narsalar degan fikrlar ilgari surildi. Keyingi 30 yil ichida adabiy matnlar talqini va nazariyasi bir-biriga yaqinlashdi. Ochig'ini aytganda, ko'plab zamondosh tanqidchilar va nazariyotchi olimlar fikriga ko'ra, adabiy matnlar talqini va adabiyot nazariyasini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ularning fikricha, matn doimo nazariy nuqtayi nazarga ko'ra talqin qilinadi. Yana mazkur olimlar shuni ta'kidlaydilar, nazariya talqinsiz faoliyat yurita olmaydi. Ilg'or akademik adabiy tadqiqotlar darajasining maqsadlari-

---

<sup>1</sup> Hoshimov U. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. –T.: «Sharq»NMAK, 2013. B. 222–223.

dan biri nazariya va amaliyotning muqarrar bog'liqligini isbotlashdan iboratdir»<sup>1</sup>.

Adabiyot haqida keng ko'lamda ilmiy fikr bildirish Aristotelning «Poetika» asaridan boshlangan degan qarash mavjud. Haqiqatan ham ushbu asar adabiyot fani haqidagi eng qadimgi ilmiy tadqiqotdir. Eramizdan avvalgi 366–322-yillarda yaratilgan ushbu asarda adabiy asar qismlari bir-biriga mutanosib bo'lishi zarurligi, san'atkor taqlidga berilmay, o'ziga xos yangi asar yaratishi shartligi, adabiyot xuddi rassomlik, musiqa singari nafasat yaratuvchi san'at turi ekanligi asoslab berilgan.

Adabiyotshunoslikning o'ziga xos xususiyati adabiyot davr hayotini, inson dunyosini tushunishning eng ishonchli vositasi ekanligini, so'z san'ati xalq dunyoqarashi, ruhiyatini aks ettiruvchi oyna bo'lib qolishini ilmiy sharhlashidadir. Adabiyotning kishilik jamiyati ravnaqida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatishda barcha davrlarning mutafakkirlari faol harakat qilganlar. Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Bualo, Lessing, Gyote, Gegel singari yuzlab donishmandlarning adabiyot va uning ahamiyati haqidagi mulohazalari adabiyotshunoslikning fan sifatida ravnaq topishiga ta'sir ko'rsatgan.

Forobiy Aristotelning «Poetika»sini sharhlab, eramizdan avval yashagan- bu donishmand o'zining she'r satrlari haqidagi mulohazalarini to'la bayon qilishga ulgurmaganini ta'kidlab, she'r san'ati haqida shunday deydi: «Bu san'at biror maqsadni amalga oshirayotgan paytda yo'ldan chiqib ketmaslikka yordam beruvchi va inson xayolini qog'ozda namoyon etuvchi san'atdir. She'rning olti xili bor. Shundan uchta yaxshi va uchta yomon xilidir. Yaxshilaridan biri shuki, inson uning yordamida aqliy quvvatini mukammallashtiradi, san'atga olib boruvchi- fikri oydinlashadi, yaxshi ishlarga, fazilatli bo'lishga ilhomlanadi, xasislik, yomon va qabih ishlardan saqlanadi. Ikkinchi yaxshi xili kishining ruhiy sezgilarini yuksaltiradi, haddan tashqari ehtiyotkorlikdan xoli qiladi, izzat-nafsnı saqlaydi, g'azablanishdan, yomon ishlardan ehtiyot bo'lishga yordam beradi. Uchinchi, ana

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics. Preface.



shu yuqorida qayd etilgan yaxshi xislatlarni namoyon etishga yordam beradi).

Forobiy «aqliy quvvatni mukammallashtiruvchi», «fikrni oydinlashtiruvchi» ta'sirchan omillardan biri deb e'tirof etgan adabiyot va uni o'rganadigan fan, tabiiyki, xalq tarixi va jamiyat hayotida alohida o'rin tutadi. Shu boisdan adabiyotshunoslik xususida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lish hayot hodisalari va inson dunyosi to'g'risidagi tasavvurlarni oydinlashtirish demakdir.

Voqea-hodisalarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ular-ning ichki mohiyatini gavdalantirish badiiy asarning shakl va mazmunidir. Bu badiiy asar shakl va mazmunini eng sodda tushuntirishdir. Yanada oddiylashtiriladigan bo'lsa, badiiy asarda mazmunning obrazlar, sujet, kompozitsiya va boshqa badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanishi shaklidir. Roman, hikoya, qissa, doston shakli deyilganda obrazlarning o'zaro munosabatlari, ular bilan bog'liq voqea-hodisalardan kelib chiqadigan sujet, voqealarning joylashish tartibi nazarda tutiladi. Ana shu obrazlar harakat, faoliyat, asar sujeti va kompozitsiyasining ma'lum maqsadga yo'naltirilgani o'sha asarning mazmuni hisoblanadi.

Hans Bertens «Literary Theory. The basics» asarida hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish haqida so'z yuritar ekan quyidagilarni yozadi:

«Lawrence shunday deydi: «Agar asar haqiqatni fosh etsa, hayotdagi barcha narsani, hattoki jo'shqin munosabatlarni ochib tashlasa, qanday munosabatlar bo'lishidan qat'iy nazar, u axloqiy asar hisoblanadi. Chunki Lawrence ta'kidlashicha, ishonchli detallar ko'lami va ularga berilgan urg'u tufayli asar o'quvchiga hayotni butunligicha, boricha taqdim eta oladi. Shundagina asar bizni o'sha butunlik ichida ishtirokchiga aylantira oladi».

Mazmunning ta'sirchan, shaklning yorqin bo'lishiga asos bo'luvchi omillar orasida obraz alohida ajralib turadi. Chunki obrazda, ya'ni

<sup>1</sup> Farobiy. –T.: «Fan», 1975. B. 112–113.

<sup>2</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics. – page 19.

asardagi inson qiyofasida ijodkorning maqsad, niyati mujassamlashgan bo'ladi. Obrazda aniq bir shaxs qiyofasi gavdalantirilishi ham yoki unda davr kishilariga xos xususiyatlar umumlashtirilgan bo'lishi ham mumkin. Obraz o'zining mana shu xususiyatiga ko'ra asar mazmunini namoyon- etishning o'ziga xos poydevori sanaladi.

Asarning asosiy qahramonlari uning sujetidagi voqealarni harakatlantirib turadi. Ular mana shu jihatiga ko'ra asarning shaklini belgilab beradi.

Aruz, barmoq she'r tizimlari, adabiy asarlarning barchasi ma'lum ma'noda shakl ko'rinishlaridir. G'azal, ruboiy, tuyuq, muxammas, tarji'band singari Sharq mumtoz adabiyotiga xos janrlar bir-birlaridan o'z ko'rinish tarzi, hajmiga ko'ra farq qiladi. Binobarin, ular o'z mazmun ko'lamini, fikrni qay darajada keng-tor ifoda etishiga ko'ra ham tafovutlanadi. Shuningdek, g'azal bilan g'azal, tuyuq bilan tuyuq, ruboiy bilan ruboiy orasida ham farq seziladi. Bu, avvalo, ulardagi fikrda namoyon bo'ladi, obrazlarda aniq bilinadi. Mazmun bo'lakmi, demak shakl ham o'zgacha bo'ladi. Bu o'zgachalik deylik g'azalning qofiyalanish tarzida, radiflarda, hijolarning miqdorida akslanadi. Tuyuq, ruboiylar o'rtasidagi farq ham shu unsurlarda bilinadi. Hikoya, qissa, roman, drama, komediya, tragediya kabi janrlarga mansub har bir asarning o'ziga xos jihatlari bundan ham aniqroq namoyon bo'lib turadi.

Badiiy asarning shakl va mazmuni uning mavzu va g'oyasiga muayyan darajada bog'liq bo'ladi. Mavzu va g'oya ham badiiy asar qiyofasini, ta'sirchanligini belgilashda uning shakl va mazmuni singari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu, ya'ni tema yunoncha so'z bo'lib, «narsa-buyum» degan ma'noni bildiradi. Biroq, badiiy asar mavzusi unda qalamga olingan voqea yoki narsa- buyumlar emas. Badiiy asar mavzusi ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasidir. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir. Adabiy asar mavzusi tanlangan biror bir moddiy narsa-buyum emas, balki fikr, qarash, ya'ni, hayotning muayyan muammosi xususida fikr yuritish badiiy asarning mavzusidir. Albatta, mavzuga ham borliqdagi narsa-hodisalar asos bo'ladi. Badiiy asar uchun eng asosiy narsa-hodisa



osa insondir. Inson hayoti, uning turli vaziyat-holatdagi kayfiyati, ke-  
chimalari, maqsad, intilishlari, borliqqa qarashlari, kishilar bilan mu-  
omala va munosabatlari badiiy asarning vujudi va jonidir.

Hayot ko'pdan ko'p muammolardan iboratligi, kishilar bir-biri bi-  
lan ko'zga ko'rinmas rishtalar orqali bog'langan muammolar girdobida  
yashashga mahkum bo'lgani uchun badiiy asarda ham bir qator mav-  
zular qalamga olingan bo'ladi. Biroq ijodkorlar o'z asarlarida ulardan  
ba'zilarinigina chuqurroq tahlil qilib, o'quvchilar e'tiborini o'shalarga  
jalb qiladi. Turmushning o'zida ham ayrim hodisalar muayyan payt-  
larda boshqa hodisalarga qaraganda ko'proq diqqatni tortadi. Ularga  
alohida ahamiyat beriladi.

Ijodkorning mavzu tanlashi, avvalo, uning hayotiy tajribasiga  
bog'liq. O'zbek yozuvchilarining aksariyati qishloq kishilari hayo-  
tidagi turli-tuman voqealarni ishonarli yoritib beradilar. Chunki, ular  
qishloqda tug'ilib o'sishgan, u yerdagi hayotni yaxshi bilishadi, o'zbek  
adabiyotida zavod-fabrika, shaxtadagi hayot haqida qiziqarli, ta'sirchan  
roman, qissa hozirgacha yozilmaganining sababi, bizda u joylardagi  
turmushning o'ziga xos nozikliklarini chuqur biladigan ijodkorlarning  
yetishib chiqmaganligidadir. Albatta, bu hodisa, avvalo, xalqimiz mil-  
liy turmush tarziga bog'lanadi.

Badiiy asarlar mavzulari ikki xil bo'ladi deyish mumkin. Birin-  
chisi – abadiy mavzular, ikkinchisi – davriy mavzular. Insonning  
ma'naviy-axloqiy turmush tarzi, sevgi-muhabbati, kishilarga, yurtiga  
munosabati, kishilararo muomala-munosabatlari, odamlarning baxti,  
baxtsizligi, quvonch, qayg'usi, mehr, qahri, saxiyligi, baxilligi va bosh-  
qalar adabiyotning abadiy mavzularidir. Ayni chog'da, har bir zamon-  
ning o'z muammolari bo'ladiki, ular davriy mavzular doirasiga kiradi.  
Masalan, 30-yillarda kolxoz qurilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi  
O'zbekistonda jiddiy muammo bo'lgan. Bu muammoni mavzu qilib,  
ko'plab she'riy, nasriy asarlar yozilgan.

Albatta, adabiyot o'z davrining dolzarb muammolarini yori-tib  
ko'rsatishi kerak. U bu bilan hayotning ijtimoiy taraqqiyotiga muayyan  
ta'sir ko'rsatadi. Kishilarning ong-u fikrini ma'lum bir yangilikka jalb  
etadi. Bundan ham muhimi – davr muammolarini

akslantirish, zamona kishilari qiyofasini gavdalantirish, ularning o'z ajdodlaridan qaysi jihatlari bilan farqaanishini namoyon etish imkonini beradi.

Har bir adabiy asar yozuvchining ayni mahalda qanday g'oyalarning maftuni ekanidan, hayotda nimalarni tasdiqlab, nimalarni rad etayotganidan dalolat sifatida maydonga keladi. Shu bilan birga, har bir asarning ana shunday ruhi hamda yozuvchining butun ijod mahsuli va hatto hayoti, ijtimoiy faoliyati orasida umumiylik bor.

### **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Hans Bertens*. «Literary Theory. The basics». First published 2001, rreface, page 19.
2. *Sulton I*. Adabiyot nazariyasi. – T.: «O'qituvchi», 2005.
3. *Sarimsoqov B*. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004.
4. *Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M*. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: «Akademnashr», 2013.
5. *Hoshimov O'*. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. –T.: «Sharq» NMAK. 2013.
6. *Quronov D*. Adabiyotshunoslikka kirish. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –T.: 2004.

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasini izohlang.
2. San'atning qanday turlarini bilasiz?
3. Badiiy adabiyotning asosiy obyekti nima?
4. Badiiy adabiyot estetik zavq beradi deganda nimani tushunasiz?
5. Badiiy asarning shakl va mazmuni nima?
6. Badiiy asarda mavzu va g'oya qanday aks etadi?



## Keyslar banki

**Keys 2.** Badiiy adabiyot estetik zavq beradi deganda nimani tushunasiz? Badiiy adabiyotning o'zi nima ekanligini tushuntiradi. Estetika so'zining ma'nosi qanday? Endi shular asosida ularning o'zaro mushtarak xususiyatlarini topishini va aytib berish kerak.

### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- badiiy adabiyotda estetikaning o'rni qandayligini bilish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).
- estetika so'zining ma'nosini aniqlashtirgan holda, badiiy adabiyot bilan mushtarak jihatlarini toping (individual holda).

## Test savollari

1. Afsona va rivoyatlardan qaysi janrdagi asarlarda foydalanib bo'lmaydi?
  - A. Doston, qissa;
  - B. Roman, masnaviy;
  - C. Fard, chiston;
  - D. She'riy roman, ertak.
2. O'zbek mumtoz adabiyotida eng kichik janr atamasi qaysi javobda ko'rsatilgan?
  - A. Bag'ishlov;
  - B. Tarkibband;
  - C. To'rtlik; D. Fard.
3. Mumtoz she'riyatda she'riy asarning oxirgi bayti qanday nomlanadi?
  - A. Qofiya;
  - B. Radif;
  - C. Maqta';
  - D. Matla'.

4. Qaysi janrlarda vazn, g'oyaviy-badiiy an'anaviylik yetakchi xususiyat hisoblanadi?

- A. Tazod, talmeh, sonet;
- B. Ruboiy, g'azal, muxammas;
- C. Drama, muxammas, fard;
- D. Tuyuq, tarjiband, tragediya.

5. Shoir va yozuvchilar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar qanday nomlanadi?

- A. Tuyuq;
- B. Memuar asar;
- C. Detektiv asar;
- D. Tazkira.

6. Voqealar, xarakterlar, kolliziya (to'qnashuvlar) kulgi, hajv, yumor asosida tasvirlansa, bunday asarlar qanday nomlanadi?

- A. Drama; B.
- Tragediya; C.
- Komediya;
- D. Pyesa.

7. Quyidagi badiiy vositalardan qaysi biri asardagi drammatizmni kuchaytiradi, voqealar rivojiga turtki va keskinlik beradi?

- A. Yechim;
- B. Badiiy portret;
- C. Badiiy konflikt;
- D. Peyzaj.

8. Biror badiiy asardagi obraz uchun asos bo'lgan shaxs nima deyiladi?

- A. Obraz;
- B. Tip;
- C. Xarakter;
- D. Prototip.



9. Dilogiya, trilogiya, epopeya ko‘rinishlari qaysi janr shakllari hisoblanadi?

- A. Drama;
- B. Doston;
- C. Roman;
- D. Hikoya.

10. Asarda tasvirlangan voqealarga ham, unda ishtirok etayotgan obrazlarga ham muallifning munosabati bevosita ifodalanmaydigan badiiy asarlar...

- A. Fantastik asarlar deyiladi;
- B. Hajviy hikoyalar deyiladi;
- C. Dramatik asarlar deyiladi;
- D. Liro-epik asarlar deyiladi.

11. Tasvirga muallif mutlaqo aralashmaydigan, obrazlarning xatti-harakatlariga, voqealarning rivojiga o‘z munosabatini bildirmaydigan badiiy asarlar nima deyiladi?

- A. Dramatik asarlar;
- B. Publitsistik asarlar;
- C. Epik asarlar;
- D. Lirik asarlar.

12. Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot o‘rtasida turuvchi janrni toping.

- A. Maqol;
- B. Qo‘shiq;
- C. Jangnoma;
- D. Ertak.

## TARQATMA MATERIAL

**MAVZU TANLASH MAHORATI.** Ijodkorning mavzu tanlashi, avvalo, uning hayotiy tajribasiga bog'liq. O'zbek yozuvchilarining aksariyati qishloq kishilari hayotidagi turli-tuman voqealarni ishonarli yoritib beradilar. Chunki, ular qishloqda tug'ilib o'sishgan, u yerdagi hayotni yaxshi bilishadi. Zavod-fabrika, shaxtadagi hayot haqida qiziqarli, ta'sirchan roman, qissa o'zbek adabiyotida hozirgacha yozilmaganining sababi, bizda u joylardagi turmushning o'ziga xos nozikliklarini chuqur biladigan ijodkorlarning yetishib chiqmaganligidadir. Albatta, bu, avvalo, xalqimiz milliy turmush tarziga borib bog'lanadi.

---

**BADIIY ASARDA MAVZU TURLARI.** Badiiy asarlar mavzulari ikki xil bo'ladi deyish mumkin. Birinchisi – abadiy mavzular, ikkinchisi – davriy mavzular. Insonning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi, sevgi-muhabbati, kishilarga, yurtiga munosabati, kishilararo muomala-munosabatlari, baxti, baxtsizligi, quvonchi, qayg'usi, mehri, qahri, saxiyligi, baxilligi va boshqalar adabiyotning abadiy mavzulari-dir. Ayni chog'da, har bir zamonning o'z muammolari bo'ladiki, ular davriy mavzular doirasiga kiradi. Masalan, O'zbekistonda 30-yillarda kolxoz qurilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi jiddiy muammo bo'lgan. Bu muammoni mavzu qilib, ko'plab she'riy, nasriy asarlar yozilgan.



## BADIIY OBRAZ VA OBRAZLILIK

1. Obrazli tafakkur san'at asarlarining o'ziga xos xususiyati sifatida-
2. Badiiy obraz tushunchasi.
3. Personaj mohiyatini ochuvchi vositalar.
4. Inson obrazi va uni yaratish vositalari.
5. Badiiy obraz turlari.

**Tayanch so'zlar:** *badiiy obraz va uning turlari. Buyuklik, tubanlik, hajviyona, fojeona va boshqa estetik kategoriyalar. Go'zallik qoidalariga rioya qilish. Go'zallik tushunchasining nisbiy ekani. Adabiyotning insonni ulug'lab, go'zallikni madh etishi.*

Badiiy asar borki, xarakter, timsol, personaj kabi atamalar mavjud. Kichkinagina hikoyada xarakterning tiniq bir nuqtasi, bir necha misrali she'rda xarakter kayfiyati, munosabati tasvirlanadi. Aristotel «Poetika» asarida xarakter «qandaydir maqsadga amal qilish, ...o'ziga xos, ...haqqoniy, ...izchil bo'lishi kerak»ligini aytgan, ayniqsa, «voqealarda xarakterlardagi kabi mantiqqa zid hech narsa bo'lmasligi lozimligini ta'kidlagan. Xarakter – badiiy adabiyotning umumbashariy muammosi. Bu atamani turli mamlakat yozuvchilari, adabiyotshunoslari o'z milliy adabiyotlari, san'atlari misolida yoritib berganlar. Qahramonlar obrazini yaratishda hodisalar o'zaro ichki bog'lanishga egaligi, vaziyat, xarakterlar uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, badiiy asar qahramonlari muallifga ergashishi emas, balki muallif o'z qahramonlariga ergashishi asar qismatini belgilovchi omil hisoblanadi, o'z asarini yozib tugatdim deb yengil tortgach, ijod lazzatining sururidan chuqur tin olib, burchini o'taganlikdan qoniqish hosil qilgan muallifga o'z qaydlari, tuzatishlari va takliflarini taqdim etadi va uni yangi dovondan oshishga chorlaydi.

Badiiy asar tahririda asarning tili bilan bog'liq ko'pgina masalalarni hal etishga to'g'ri keladi. Avvalo, shuni aniq bilish kerakki, badiiy asar tili va adabiy til ayni birdek emas. Ularning ijtimoiy vazifasi qo'llanish sohasi, qo'yiladigan talab turlicha. Badiiy asarda til – aso-

siy unsur, uning shakli bilan birga maqsadga erishishga xizmat qiladi. Boshqa tur asarlardan farqli o'laroq, badiiy asarda til badiiy obraz yaratishga xizmat qiladi. Borliqni obrazli aks ettirish tamoyili qanchalik-tadrijiy amalga oshirilsa, badiiy obraz yaratishda vosita sifatidagi ahamiyati shunchalik ayon ko'rinadi. Luqmon Bo'rixonning «Jaziramadagi odamlar» asari tahlilida o'zbek xalqining xarakteri o'ziga xos tarzda talqin qilingan:

Asardagi asosiy timsollardan biri – hikoyachining otasi Ergash, roman personajlaridan biri aytmoqchi, «butun odam». Bu ta'rifni berishdan asosiy maqsad xalq orasida qat'iyatli, o'z fikriga ega shaxs sifatida baholani. Uning qanday odamligi talabaligida domlaning axloqsizligiga isyon sifatida o'qishni tashlab kelishidanoq ma'lum bo'ladi. Xarakteri jihatidan: «Gaplaringiz qursin, – deb nolib qoladi onam ba'zan. – Eshitsang asal yutasan, ma'nosini chaqsang zahar qusasan...» Shu bir jumladan otaning oiladagi o'rni, bir so'zliligi, qattiqqo'lligini, har bir so'zida mas'uliyat borligini his qilasan.

Asarda mehnatkash, to'g'ri, lekin bir qadar dovdur, laqma Safarmurod chavandoz timsoli ham o'ta jonli va ta'sirchan ishlangan. Chunki o'zbek erkagi bosh kiyim, qurol-aslaha va ot abzalni birovga bermaydi.

Badiiy asarda so'z badiiy obraz xususida ma'lumot beradi, fikr uyg'otadi va mushohadaga undaydi. So'z badiiy asarda adabiy til yoki umumxalq tilida qat'iylashgan o'z shakli va ma'nosini saqlaydi, shu bilan birga yangi ma'noga, ekspressiv uslubiy bo'yoqqa ega bo'ladi. Natijada, obrazli ifoda yuzaga chiqadi. Qahramonning xarakterini yoritib berishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi. «Badiiy asarda so'z o'z tashqi shakliga ko'ra milliy til tizimiga xos so'z shakliga muvofiq kelishi bilan birga uning ma'nosiga tayangan holda faqat xalqning bilishga bo'lgan faoliyati, tajribasini ifodalovchi umumxalq tiligagina emas, balki badiiy asarda ijodiy yaratiladigan yoki qayta yaratiladigan mavjud olamga qaratilgan bo'ladi».

Badiiy asarda turli-tuman personajlar qatnashar ekan, albatta ularning har biriga xos nutq ham yaratiladi. Bu nutq tipikligi va individualligi, obrazlilik har bir shaxsning dunyoqarashini, tajribasini,



sulq-atvorini, ma'naviyatini, salohiyatini, boringchi, butun borlig'ini mubolag'ali va ishonchli qilib ochib berishga xizmat qiladi. Chunki har bir odamning nutqida uning bo'y-basti (ruhiy kayfiyati, his-tuyg'ulari ham) aks etadi, shuning uchun ham so'z xarakter ko'zguasi sanaladi. Adib personajlar nutqini tanlashda, ularning har biriga mos so'z va iboralaridan san'atkorona foydalansa, natijada, asarning nafosati-yu, latofatini taminlashga erishadi.

Xo'sh, badiiy obraz nima? Bu savolga javob berishga o'tishdan avval «obraz» so'zining nima ekanligini bilish lozim. Bu so'zning o'zagi «raz» (chiziq) bo'lib, undan «razit» (chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq), undan «obrazit» (chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq) paydo bo'lgan. Ana shu «obrazit» so'zidan «obraz» atamasi vujudga kelgan. Bu so'z «umuman olingan tasvir» ma'nosini bildiradi.

Aslida «obraz» slavyan tillariga xos so'z bo'lib, u voqea-hodisalarining xayolda namoyon bo'ladigan manzarasini bildiradi.

San'at va adabiyotdagi obrazning ilm-fandagi obrazdan ko'ra ta'sirchan bo'lishining asosiy sababi unda voqea-hodisalar ijodkorning aql-talakkuri, qalb quvvati bilan boyitilganidadir. San'atkor ularga o'z his-tuyg'ulari, hissiyotlari bilan jilo beradi. Haykaltarosh oddiy xarsang tosh, yog'ochni chizib, yo'nib, o'yib shakl beradi, ya'ni obraz yaratadi. Musavvir borliq hodisalarining dabdurustdan sezish, payqash mushkul bo'lgan qirralarini ta'sirchan bo'yoq, rang, chizgilar vositasida xuddi jonliday, harakatlanayotganday namoyon etishga intiladi.

San'at va adabiyotda obraz deyilganda inson nazarda tutilar ekan, demak, u ijodkorning maqsad, muddaosini ifoda etuvchi kishi tasviri bo'ladi. Yozuvchi, shoir, rassom, haykaltarosh bu kishini o'z hayotiy kuzatishlari, tajribasi, xayoli, quvvati bilan yaratadi.

Badiiy obraz terminini asarda qo'llangan badiiy vositalar (o'xshatish, sifatlash, mubolag'a kabi)ga nisbatan ham ishlatish mumkin. Shuningdek, muayyan davrga xos manzaralarni qabariq, ta'sirchan holda gavdalantirishga nisbatan ham «bu asarda davrning o'ziga xos obrazi gavdalantirilgan» deyish ham mumkin. Bundan anglashiladiki, badiiy obrazning ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, obrazda hodisalarining muhim xususiyatlari umumlashtirilgan bo'ladi. Ikkinchi-

dan, unda muayyan aniqlik (yakka hodisa, alohida bir odam) akslanadi. Demak, obraz ham umumlashgan hamda individuallashtirilgan xususiyatni o'zida gavdalantirgan hodisadir. Ayon bo'ladiki, badiiy obraz borliq hodisalarining shunchaki nusxasi emas. Badiiy obraz, avvalo, ijodkorning kashfiyoti, uning ijodiy mehnati mahsulidir. Ijodkor-obraz yaratish uchun o'zicha izlanadi. Uning bu ishiga chetdan yordam ko'rsatib yoki hashar qilib bo'lmaydi. Badiiy obraz yaratish har bir ijodkorning o'z ishi. U bu ish jarayonida o'z xayoloti, aql-tafakkuriga tayanadi. U o'zicha nimalarnidir to'qiydi, xayolida turli-tuman manzaralar chizadi.

O'zbek adabiyotini o'rganar ekanmiz e'tiborimizni bir jihat o'ziga tortdi: Qodiriy, Cho'lpon, Fitratlar nafaqat XX asr o'zbek madaniyatida, umuman, go'zallik, ezgulik, insoniylik idealining badiiy talqini-ga ko'ra, o'zbek ijtimoiy-badiiy tafakkurida yangi sahifalar ochgani ko'zga tashlanadi. Ularning ideali o'tmish ijodkorlari ideallaridan tubdan farq qiladi. Ideal so'zi adabiyotshunoslikda qanday talqin qilinadi? «San'atkor ideali asrlardan beri ajdodlar sinovidan o'tib kelgan o'lmas qadriyatlarni, yana o'sha san'atkor yashayotgan muhit sharoitida yetilgan eng ilg'or orzu-intilishlarni o'zida mujassam etadi»<sup>1</sup>. Qodiriy, Cho'lpon, Fitratning estetik idealiga o'lmas qadriyatlar, sharqona odob bilan birgalikda o'z davrining ilg'or ijtimoiy maqsadi ham singib ketgan. O'z davrining ilg'or ijtimoiy maqsadi – yurt ozodligi ularning ongidan shu qadar chuqur joy olganki, endi u ijodkorning shaxsiy dardiga, orzusiga, hayotining mazmuniga – idealiga aylandi.

Masalan Qodiriyning ideallari – Otabek, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor aynan shu ijtimoiy-ma'naviy vazifani bajargan. Qodiriy o'z ideallarini realistlik tamoyillar asosida yaratdi.

Mazkur qahramonlar milliy mustaqillikni ongli va erkin hayotni, ilg'or tuzumni yoqlaydi, orzu etadi. Shu orzularning barchasi asarning g'oyasiga, mazmuniga, yozuvchining estetik idealiga singdirilgan.

Yozuvchi nafaqat erkak qahramonlarning balki, ayol qahramonlarning yelkasiga ham ijtimoiy-ma'naviy vazifalarni ado etishni yuklaydi.

---

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Andijon. «Hayot» nashriyoti. – B. 48.



Ung ayyukli, estetik ideal darajasiga ko'tarilgan qahramonlardan biri bu Kumush obrazidir. Kumush islomiy aqidalar asosida shakllangan o'zbekona qadr-qimmat, go'zal odob, sharqona madaniyat, ibo, hayo, nazokatni o'zida jamlagan islomiy ayoldir. U islom dini talablarini sidqildan bajaruvchi, muqaddas kitoblarni o'qib, insoniy, oliy fazilatlarini o'zida mujassam etgan ayol. Kumush o'ziga yuklatilgan farzandlik, kelinlik, xotinlik vazifalarini ado etar ekan, o'zbekona udum, hayo va ibo chegarasidan chiqmaydi. Mamlakatdagi ichki nizolar, mustamlaka iqtibdodi ostida darz ketayotgan milliy qadriyatlar, yangi jamiyatni qurishda pokdomon insonlar zarurligi, mo'tadil ma'naviy muhit va mezonlarning ustuvorligini ta'minlash zarurati adibdan o'tmish va kelajakka saboq vazifasini o'tovchi qahramonlar yaratishni taqozo qilgan. Kumush obrazi ham yuqoridagi qahramonlar kabi o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy vazifalarni ado etgan.

Badiiy asarning ta'sirchan, jozibali chiqishini ta'minlash uchun har bir ijodkor, albatta, **badiiy to'qimadan** foydalanadi. Badiiy to'qima obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni o'ylab topishdir. Badiiy to'qima obrazning qiyofasini yorqin etganidek, asardagi voqealarning qiziqarliligini ta'minlaydigan asos, poydevor hamdir. Chunki badiiy to'qima ijodkorga mavjud voqealikni aslidagidan ko'ra keskinroq, shiddatliroq, qiziqarliroq ko'rsatish imkonini beradi.

Badiiy to'qima asosida ta'sirchan badiiy obrazlar yaratadigan ijodkorning muayyan maqsad, muddaosi bo'ladi. U qahramonlari qiyofasi, fe'l-atvorini ham, davr hodisalarini ham o'z maqsadiga muvofiq ko'rsatishga harakat qiladi. Ijodkor hodisalarni gavdalantirishda xolis turganday bo'lsada, u albatta nimalarnidir yoqlaydi, nimalarnidir inkor etadi. Uning bu munosabati ochiq-oshkora yoki yashirin, pardalangan tarzda ham bo'lishi mumkin. Adabiyotda mavjud bo'lgan ana shu holatni nazarda tutib, sho'ro mafkurasi hukmron davrlarda badiiy asarlardagi qahramonlar keskin tarzda ijobiy va salbiy obrazga ajratilardi. Qahramonlarning bu tarzda ikki guruhga ajratilishining bosh sababi sovet adabiyotida kishilarga ijtimoiy-sinfii nuqtayi nazardan qaralishida edi. Odamlar mulkdor, mulkdor emasligiga qarab, boylar va

kambag'allarga bo'linardi. Boylar ezuvchilar, ya'ni ekspluatatorlar deyilardi. Ular boshqalar mehnati evaziga boylik orttiruvchilar, kishilarni ezuvchilar deb la'natlanardi. Hamda aksariyat adabiy asarlarda boylar salbiy qahramon sifatida ko'rsatilardi. Kambag'allar esa xo'rlangan, haqoratlangan kishilar sifatida gavalantirilar va ular ijobiy qahramon deb ardoqlanardi.

Adabiyotda inson obrazini yaratish tarixini kuzatadigan bo'lsak, mavjud darslik va qo'llanmalarda ta'kidlanganidek, quyidagi turdagi badiiy obrazlar yaratilganiga guvoh bo'lamiz:

1. Realistik obrazlar.
2. Romantik obrazlar.
3. Xayoliy-fantastik obrazlar.
4. Majoziy (simvolik) obrazlar.

Xarakter xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar realistik obrazlar deb yuritiladi. Abdulla Qahhorning «O'g'ri», «Bemor», «Sinchalak» asarlaridagi qahramonlar realistik obrazlar sanaladi. Muqimiyning «Tanobchilar» satirasidagi Sultonali, Hakimjon obrazlari ham realistik obrazlar hisoblanadi. Chunki real hayotning o'zida Qobil bobo, amin, ellikboshi, Sotiboldi, Qalandarov, Saida va «Tanobchilar» qahramonlari singari kishilar mavjud. Ularning fe'l-atvori, xatti-harakati ayni shu asarlarda ko'rsatilganiga muvofiq keladi.

Romantik obrazlar ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar simyosidir. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to'g'risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo'ladi.

Xayoliy-fantastik obrazlar romantik obrazlarga o'xshab ketadi. Bu obrazlarda ham ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo'ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo'jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko'rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin. Masalan, «Alpomish» dostonida xalqning ideal qahramoni ko'rsatilgan. Doston bosh qahramoni Alpomish hamisha dushmanlaridan g'olib keladi. U har qanday mashaqqatlarni yengib o'tadi. Alpomish – o'tda yonmas, suvda cho'tmas qahramon. Uni dushmanlari makr-u hiyla bilan zindonga solganlarida ham o'ldirolmaydilar.



Xayoliy-fantastik obrazlar folklordagina emas, yozma adabiyotda ham mavjud. Xususan, hozir fantastik asarlarga qiziqish juda kuchli. Fantastik asarlardagi obrazlar kishilarning tasavvurini boyitadi.

Majoziy obrazlar muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, soʻfiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi. **«Majoziy personaj bosh qahramon boʻladimi yoki ikkinchi darajalimi, butun borligʻi bilan jamiyatning asosiy gʻoyularini yoki qadriyatlarini oʻzida aks ettiradi»**<sup>1</sup>.

Majoziy obrazlar adabiyotda keng qoʻllanib kelinadi. Ular hodisalarning taʼsirchanligini oshiradi.

Allegorik, yaʼni kinoyaviy obrazlar ham majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda boʻladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning feʼl-atvoridagi kamchilik, illatlar koʻrsatiladi. Hamzaning «Toshbaqa va chayon», A.Krilovning «Boʻri va qoʻzichoq» masallarida odamlarning feʼl-atvorlari gavdalantirilgan. Shunday ekan, ularni romantik, realistik, xayoliy-fantastik, majoziy qahramonlar deb atash ham mumkin. Obraz va qahramon istilohlari ayni oʻrinda bir-biriga teng keladi. Umuman, obraz-qahramonda koʻpchilik kishilarga xos xarakter-xususiyatlar mujassamlashgan boʻladi.

Obraz-qahramon haqidagi mulohazalar oʻz-oʻzidan xarakter tushunchasi bilan bogʻlanadi.

«Muallifning yoki asar ichidagi soʻzlovchining qaysidir obraz haqidagi taʼrifi uning aynan shu obraz haqidagi tasavvurini beradi. Boshqacha aytganda, muallifning yoki soʻzlovchining kitobxonga bevosita asar qahramoni haqidagi taqdimoti hisoblanadi.

Bilvosita tasavvurni esa asardagi xarakterning soʻzlari va harakatlari uygʻotadi. Qizigʻi shundaki, kitobxon xuddi real hayotdagi singari qahramonning ongida qanday oʻylar borligini bila olmaydi. Boshqacha aytganda, bilvosita tasavvur orqali kitobxon qahramon idrokida qanday oʻy-xayollar borligini oʻzi aniqlashga majbur boʻladi.

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 102.

Personaj mohiyatini ochib beruvchi vositalar mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Ruhiy holat tasviri.
2. Tashqi ko'rinish tasviri.
3. Personajning o'y-xayollarini kuzatish.
4. Qanday so'zlayotgani.
5. Boshqa obrazlar u haqda nima deyayotgani.
6. U tasvirlanayotgan muhit.
7. Qahramonning boshqalarga munosabati.
8. O'ziga nisbatan munosabati.
9. O'ziga yuklatilgan vazifani qanday bajarayotgani.

Albatta eslab qolish kerak bo'lgan jihat: badiiy asar qahramonini shu vositalarning bir nechtasi orqali anglash mumkin.

*Badiiy xarakter.* Badiiy xarakter muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual- xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi. Badiiy xarakter o'zida obyektiv va subyektiv jihatlarni birlashtiradi. Inson hayotining ijtimoiy-psixologik realligi badiiy xarakterning obyektiv tomoni bo'lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilishi va g'oyaviy-hissiy baholanishi subyektiv tomonidir. Badiiy xarakterning subyektiv jihati, bir tomondan, uning ijodkor tomonidan yaratilgan yangi mavjudlik, badiiyat hodisasi bo'lishini; ikkinchi tomondan, uning konseptual funksiyasi badiiy xarakter orqali amalga oshadi, ya'ni jamiyatning joriy holati xarakterlar vositasida badiiy tadqiq etiladi va yaxlit konsepsiya ishlab chiqiladi. Aytish kerakki, badiiy xarakterning bu qadar katta ahamiyat kasb etishi ko'proq adabiyot taraqqiyotining so'nggi davrlarida kuzatiladi. Xususan, antik adabiyotda badiiy konsepsiyani ifodalashda xarakter emas, tasvirlangan voqeaning o'zi hal qiluvchi rol o'ynagan. Negaki, antik ijodkorlar uchun xarakterning muayyan turg'un tiplari (zolim, mushfiq va boshq.) mavjud bo'lib, ular asar sujetida shu tipga mos harakatlantirilgan. Uyg'onish davriga kelib esa, qahramon bu turg'un xususiyatlarni o'zgartirish, turli niqoblarda

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 102.



harakat qilish imkoniga ega bo'lgan, ya'ni antik adabiyotga nisbatan bunda xarakter individual chizgilar ham kasb etgan. Xullas, jamiyatda shaxs maqomining o'zgarib borishi barobarida badiiy xarakterda individuallik salmog'i ortib, inson xakteri unga tabiatan ato etilgan turdagi xususiyatlar jamlanmasi emas, ayni chog'da, davr va muhitning mahmuli ekani ham anglanib borgan va shu tariqa realizm bosqichiga yaqinlashgan sari adabiyotda badiiy xarakterning roli va ahamiyati ham ortgan. Realizm adabiyotida badiiy xarakter hayotni ko'lamli va teran badiiy idrok etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Zero, badiiy xarakterlarning shakllanishi va rivojlanishi, hayotiy amallari, o'zaro kurashlari, ruhiyati va shu kabilarni tasvirlash orqali voqelikni atroflicha chuqur badiiy idrok etish, unga g'oyaviy-hissiy baho berish – badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalash mumkin bo'ladi.

### **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Hans Bertens*. «Literary Theory. The basics». First published 2001, rreface, page 102.
2. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. Epos. – T.: «Fan», 1991. 2-jild. Lirik. – T.: «Fan», 1992.
3. *Boboyev T.* Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: «O'zbekiston». 2000.
4. *Quronov D.* Cho'lpon nasri poetikasi. – T.: «Sharq». 2004.
5. *Sharafiddinov O.* Ijodni anglash baxti. – T.: «Sharq». 2004.
6. *Quronov D.* Adabiyotshunoslikka kirish. –Andijon. «Hayot» nashriyoti. 2002.

### **Mavzuga doir mustaqil ish topshiriqlari**

1. Badiiy obraz haqida tushuncha bering.
2. Epizodik obrazlarning vazifalari qanday?
3. Badiiy adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik masalasi nimalarga bog'liq?
4. Realistik obrazlar haqida ma'lumot bering.
5. Romantik obrazlar haqida ma'lumot bering.

6. Xayoliy-fantastik obrazlar haqida ma'lumot bering.

7. Majoziy(simvolik) obrazlar haqida ma'lumot bering.

### **Keyslar banki**

**Keys 1.** Badiiy obraz tushunchasini o'rganadi va asosiy xususiyatlarini tushuntiradi. Shular asosida badiiy obraz turlarini topish va aytib berish kerak.

#### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

– keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

– badiiy obraz turlarini topish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

– obrazning xususiyatlariga ko'ra qanday hodisa ekanligini toping (individual holda).

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Obraz istilohini qanday tushundingiz?

2. Obrazli tafakkur va tushunchalar asosidagi tafakkurni bir-biriga qiyoslagan holda amalga oshiring. Badiiy obrazning konkretligi deganda nimani tushunasiz?

3. Badiiy adabiyot individuallashtirish orqali umumlashtirishga intilishini o'z misolingizda tushuntiring.

4. Badiiy obrazning ko'p ma'nolilik kasb etishini nimalarga bog'liq deb bilasiz?

5. Badiiy adabiyotda inson obrazining markaziy o'rin tutishi nimga bog'liq?

6. Badiiy obraz turlarining har biriga misollar keltiring.

### **Test savollari**

1. Qaysi asarlarning bosh qahramonlari makr-hiyla bilan dushman tuzog'iga ilinib, zanjirband va zindonband qilinadi?

A. «Layli va Majnun», «Shum bola»;



- B. «Parhod va Shirin», «Alpomish»
- C. «Sab'ayi sayyor», «Padarkush»;
- D. «Saddi Iskandariy», «Ulug'bek xazinasi».

2. Biror badiiy asardagi obraz uchun asos bo'lgan shaxs nima deyiladi?

- A. Obraz;
- B. Tip;
- C. Xarakter;
- D. Prototip.

3. Dramatik asarlarda asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, hulqi, xatti-harakati, qiliqlari, intonatsiyasi, sahna manzarasi haqida muallif tomonidan beriladigan izohlar nima deb ataladi?

- A. Replika;
- B. Remarka;
- C. Ramz; D.
- Ssenariy.

4. Tasvirga muallif mutlaqo aralashmaydigan, obrazlarning xatti-harakatlariga, voqealarning rivojiga o'z munosabatini bildirmaydigan badiiy asarlar nima deyiladi?

- A. Dramatik asarlar;
- B. Publitsistik asarlar;
- C. Epik asarlar;
- D. Lirik asarlar.

5. Sayohat taassurotlari va tafsilotlarini tasvir etuvchi badiiy asarlar nima deb ataladi?

- A. Sayohatnoma;
- B. Tazkira;
- C. Roman;
- D. Hikoya.

6. Mifologik obrazlar berilgan qatorni toring.
- A. Kumush, Zaynab, Otabek;
  - B. Ram, Arjun;
  - C. Jamshid, Kayumars, Prometey;
  - D. Sotiboldi, Qobil bobo.
7. Afsonaviy obrazlarni belgilang.
- A. Jamshid, Alomat;
  - B. Alpomish, Go'ro'g'li;
  - C. Qo'chqor, Olimjon;
  - D. Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi.
8. Romandagi epik xarakterlar tasviri ikki kitobda nihoya topsa ... deyiladi.
- A. Pentalogiya;
  - B. Tetralogiya;
  - C. Dilogiya; D. Trilogiya.
9. Adabiy asarda badiiy g'oyaning ehtiros bilan, g'oyat ta'sirchan, o'quvchini hayrat va larzaga solar darajada ifoda etilishi – ...
- A. Remarka;
  - B. Peyzaj;
  - C. Prolog;
  - D. Pafos.
10. Badiiy asarda aks ettirilgan hodisa, tuyg'u, personajlarning xarakteri, ruhiyati, xatti-harakati va taqdiridan kelib chiqadigan fikr ...
- A. Badiiy konflikt;
  - B. Sujet;
  - C. Badiiy g'oya;
  - D. Kompozitsiya.



## TARQATMA MATERIAL

**XARAKTER** – o‘z xatti-harakatlari, maqsad, intilishlari, o‘y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe‘l- atvori bilan alohida ajralib turadigan to‘laqonli obraz. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo‘la olmaydi. Asardagi yetakchi qahramon har jihatdan faol bo‘lsa, o‘zining barcha jihatlari bilan yorqin ko‘rinib tursagina u badiiy xarakter bo‘ladi. O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardagi obrazlarni xarakter jihatidan tahlil qiling. O‘ziga xos jihatlari aniqlang.

**PERSONAJ** – badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan badiiy xarakter darajasiga ko‘tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi. Biror badiiy asar misolida shunday personajlarni ta’riflang, qiyosiy tahlil qiling.

## BADIY ASAR TILI

1. Badiiy til tushunchasi.
2. Badiiy tilning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Badiiy nutq shakllari.
4. Badiiy tilning adabiy til hamda milliy til bilan munosabati.

**Tayanch so'zlar:** *so'z, badiiy nutq, badiiy til, adabiy til, adabiy til me'yorlari, badiiy san'atlar.*

Adabiy-badiiy asar yaratish uchun faqatgina so'zdan foydalaniladi. Buning uchun birgina so'z zarur, xolos. Shuning uchun qadim Sharq shoirlari asarlarining asosiy mavzusi bayonini boshlashdan avval so'z sharafiga maxsus qism bag'ishlaganlar.

Herman Hesse yozuvchilar uchun tilning qanchalik muhimligini quyidagi so'zlar orqali ifodalaydi: «Biz yozuvchilar tilga qarammiz. Til- bizning qurolimiz. Ammo biron zamon yo'qki, ichimizdan birontamiz bu qurolni mukammal darajada bilaylik; har holda, o'zim haqimda aytishim mumkinki, bundan yetmish yil muqaddam maktabga qadam qo'ygan paytimdan boshlab, shu paytgacha men nemis tilini bilish va sir-u sinoatlarini egallashdan ko'ra, biron ish bilan shu qadar muntazam va sidqidildan shug'ullangan emasman, lekin shunga qaramay, hozir ham bu ishda o'zimga tetapoya qilib kelayotgan bir havaskorga o'xshab ko'rinaman... Bizning hamma tillarimiz ham ancha tabarruk yoshlarga yetgan, lekin ularning lug'at zaxirasi uzluksiz o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. So'zlar xastalanadi, vafot etadi va tildan butkul g'oyib bo'ladi va istagan tilda istagan vaqtda ko'hna so'zlar qatoriga yangilari kelib qo'shilib olishi mumkin. Lekin bundagi yangilanish jarayoni ham, umuman olganda, har qanday rivojlanish jarayoni qanday kechsa xuddi shundayligicha qoladi. Tilingiz har qanday yangi hodisalar va buyumlarni, yangi hayotiy sharoitlarni, yangi ijtimoiy vazifalarni, insonning yangi ehtiyojlarini atamoq uchun muvofiq so'zlar kashf etish qobiliyatiga ega, tilimizning bu qobiliyatiga qarab, biz hamisha qoyil qolamiz va taajjub bilan tasannolar aytamiz, biroq bu hodisani



yaqinroqdan sinchiklabroq o'rganadigan bo'lsak, ko'ramizki, yangi bo'lib ko'ringan yuzta so'zning to'qson to'qqiztasi eski lug'at zaxirasi masjida so'zlarni bir-biriga chatishtirib, yamab hosil qilingan ekan.

Asrlar davomida yashab kelgan, yombidek zalvorli, pishiq va to'laqonli so'zlar – ota, ota-bobolar, yer, daraxt, tog', vodi, non kabi so'zlar. Ular astoydil aytiladigan, dillarning tub-tubidan chiqadigan chin so'zlardir. Bularning har biri cho'ponga ham, hukumat a'zosiga ham bab baravar tushunarli. Ularning har biri nafaqat bizning aql-iddokimizni harakatga keltiradi, balki tuyg'ularimizni ham qo'zg'atadi, qalblarda xotiralar to'liqini hosil qiladi, tasavvurlarimiz va sezgilari-mizni jumbushga keltiradi. Ularning har birining zamirida hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan shunday mangu narsalar yotadiki, bu narsalarsiz yashab bo'lmaydi»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, adabiy-badiiy asar tilida xalqning qalbiga kirib borib, mustahkam o'rin egallagan xalqona so'zlar ham muhim ahamiyatga ega ekanligini o'zbek adabiyotida yaratilgan ko'plab asarlar ham isbotlaydi.

Jonli til xalq o'rtasida faoliyat ko'rsatuvchi tildir. Tilni xalq yaratadi. Tilni adabiy til va xalq tili deb ajratishning ma'nosi shuki, san'atkorlar tomonidan ishlangan yoxud xali ishlanmagan til bor.

«Proza janrining shakllanishi ham, xalq tilining bundagi ishtiroki ham shunday bir tirik, serharakat jarayonki, buni tadqiq etish bir-biriga qo'shilib oqayotgan daryolarni tadqiq etib, birining ikkinchisiga ta'sirini o'rganishga o'xshaydi»<sup>2</sup>.

Biroq, yuqoridagi badiiy tilni faqat jonli til belgilaydi, degan fikrlardan uzoq bo'lish lozim. Chunki, unda mumtoz adabiyotimizning o'ziga xos an'analari, nafosati, obrazlilik, emotsionalligi va boshqa omillar ham ishtirok etadi.

Adabiyot insonshunoslik bo'lganligi uchun ham qahramonning tashqi qiyofasi va uni o'rab turgan voqelik bilan birga insonning ma'

---

<sup>1</sup> Herman Hessi. Jahon adabiyoti kutubxonasi. Jahon adiblari haqida. «Ma'naviyat», 2010. – B. 33–34.

<sup>2</sup> Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. –T.: «Fan», 1973. – B. 71.

naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli, ta'sirli tarzda yoritib berish ijodkorlar oldida turgan eng qiyin, eng sharaflı vazifalardan hisoblanadi.

Inson mavjud hayot haqidagi eng haqqoniy tasavvurni o'z sezgilari vositasi bilan ilg'aydi. Har bir inson o'z fikrini, tushunchasini, bilimini turfa xil ifodalaydi. Buning natijasida g'ayritabiiy o'xshatishlar, jonlantiruv, go'zal qiyoslar vujudga keladi. O'z navbatida, sizda ham so'zlashuvchining iqtidoridan kelib chiqib, shu narsa haqida fikr paydo bo'ladi.

Insonda boshqalarning tuyg'usini chuqur his qila bilish, yuqtira bilish qobiliyati bo'lganligi uchun ham, – deydi Tolstoy, – bugun odamzod shu vaqtgacha boshdan kechirgan hamma narsani har bir kishi his qila bilishi mumkin. Odam bundan ming yil oldin o'tgan kishilarning tuyg'ularini ham his qila olish va o'z tuyg'ularini boshqalarga yuqtira olish imkoniyatiga ega.

Badiiy asar tili xarakterlar va manzaralarni yaqqol gavdalantirish uchun, birinchi navbatda, ularning ichki dunyosini, mohiyatini butun qarama-qarshiliklari bilan aks ettiradi va shu akslangan hayot kitobxon his-tuyg'ularini uyg'otadi. Demak, hayot inson qalbining turfa xil holatlarini tasvirlash orqali kitobxon his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish tasviriylik va emotsional xususiyatni keltirib chiqaradi. Bunda esa «badiiy asar umrni uzaytiruvchi mo'jiza» hisoblanadi. Badiiy tilning obrazliliigidan tug'iladigan muhim xususiyatlardan yana biri ma'nodorligi aforizm va dialektizmlarning qo'llanishidir.

G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida shevaga oid so'zlarning ishlatilishi hikoyaning badiiy tasvirini jonlantirgan. «Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvada, ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz». Uvada – eskirib, yirtilib to'zgan degan ma'noni anglatadi. To'da – bir yerga to'plab yoki uyib qo'yilgan narsa. Sholcha-jundan to'qilgan palosi.

---

1 O'zbek tilining izohli lug'ati. –T: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» B. 227–261.



«Kunduz kunlari garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o'tib  
mizg'iganday qush uyqusi qilaman. Kechalari xayol olib qochib keta-  
di». Qush uyqusi – ma'no ko'chish hodisalaridan metonimiya hodisasi  
ro'y bergan. So'qqaboshgina aravakash tog'alarining topganlari o'zi-  
ning ro'zg'oridan ortib, bularga bo'lishi qiyin. Qutlayamut – o'lmaslik  
uchun, yashash uchun eng zarur rizq-ro'z, kundalik tirikchilikka yetarli  
ovqat.

Yozuvchi o'z hikoyasida so'zlarni shunday qo'llaganki, shu asnoda,  
o'sha muhitni uslubi va o'z qalamida tasvirlay olgan. Shunday ekan,  
«Adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa  
bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi.

Adibning yozuvchilik nigohi qanchalik o'tkir bo'lmasin, tafakkur  
quvvati qancha baquvvat bo'lmasin inson tabiatining sir-u asro-ridan  
har qancha boxabar bo'lmasin qalami o'tmas, uslubi to'mtoq, tili g'aliz  
bo'lsa, uning olijanob niyatlari qog'ozda qolib ketaveradi. Yozuvchi  
odamlar qalbida kechadigan ismsiz, tuyg'ularga nom bera-di, so'z sehri  
bilan kitobxonga ta'sir ko'rsatib, uning fikriy dunyosini, ruhiy olamini  
harakatga keltiradi». Badiiy asar tili go'zal bo'lishi kerak, chunki  
san'atkorning vazifasi go'zallik yaratishdir. Buning uchun tasvir  
etilayotgan xulq, manzara, holat so'z tufayli kitobxonning ko'z oldida  
aniq va yorqin borlig'icha namoyon bo'lishi lozim. Mana shu  
misolning o'zidanoq, muallif nutqi badiiy asar qurilishida asosiy o'rinni  
egallaydi. U doimo adabiy til me'yorlari asosida ish ko'radi, vulgarizm,  
varvarizm, jargon, sheva so'zlariga o'xshash leksik boyliklardan  
mohirona foydalana olgan. Unda hikoyachining yoshi, jinsi, saviyasi,  
ma'naviyati, madaniyati, shevasi, kasb-kori aks etishi tabiiydir.  
Frazeologizmlar mohiyat e'tibori bilan, asosan, so'zlashuv- va badiiy  
nutq mevasidir. Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar esa  
ma'lum muddatdan keyin yuzaga keladi. Masalan, birgina o'lmoq  
ma'nosini anglatadigan yuzga yaqin frazeologizmlar sinonimik qato-  
rining paydo bo'lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini

---

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. –T: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi». B. 391.

tugʻdiradi. Masalan, bu tizimga kiradigan olamdan oʻtmoq, dunyodan oʻtmoq, omonatini topshirmoq, qulogʻi ostida qolmoq, jon bermoq shakllari soʻzlashuv uslubida ishlatilsa, vafot etmoq hayotdan koʻz yummoq, hayot bilan vidolashmoq kabilar ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. Alloh rahmatiga yoʻl tutmoq, shahodat sharobini ichmoq singarilar badiiy matnga tegishlidir.

Kichik bir xulosa sifatida shuni takidlash lozimki, badiiy uslub-da adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolmasdan, undagi koʻplab birliklarning tilda meʼyorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib, doimiy ravishda taʼsir oʻtkazib turadi. Va bu: «Adabiyot odatiy tilni oʻzgartiradi, kundalik nutqdan muntazam chetga chiqadi»<sup>1</sup>. «Til umuman olganda, muhim tarixiy muammo sifatida qabul qilinadi, undan ijod amaliyotini koʻrsatuvchi, adabiy va dabdabali tadqiqotlar obyekt sifatida foydalaniladi»<sup>2</sup>.

Xalqimizning suyakli yozuvchisi Abdulla Qodiriy mavzudagi bir xillik, mahorat taqchilligiga toʻxtalar ekan, shunday yozadi: «Yozuvchilikda- bir qonun bor: hammadan ilgari maʼno, undan soʻng shu maʼnoni-fikrni ifoda qilish uchun soʻz qurish, soʻz qurish emas – sanʼatkorona, yaʼni shundoq soʻzki, aytmoqchi boʻlgan fikringiz-ni ifodasi uchungina maxsus yaratilgan boʻlib, yasama boʻlmasin!»<sup>3</sup>. Julqunboy ijodkor masʼuliyati, mahorati, mulohazakorligi, badiiy adabiyotning tiliga xos xalqchilik, uslub, kitobxon taʼbiga muvofiqlik singari masalalarni oʻrtaga qoʻyar ekan, «Mushtum»ning 13-sonidagi qusurlarni haqli tanqid qiladi. Bunday kamchiliklar jurnalning aksariyat sonlari uchun xos ekanligidan taassub qiladi. U individual uslubni malakaning oshishi, mahoratning yuksalishi bilan tugʻiladigan, taraqqiyotida tadrijiylikka asoslanadigan xarakterga ega deb toʻgʻri tushunadi. Jurnalning ichki mohiyatiga diqqat qilinganligiga qaramasdan, sogʻlom tafakkurga muvofiq kelmaydigan, «aqlga sigʻmaydurgan», hayotdan

<sup>1</sup> Terry Eagleton. Literary Theory. Bleckwell Publishers Ltd, 2003, –Page 2

<sup>2</sup> Dominick Lacapra. History, literature, critical theory. Cornell university press. 2013, 10-11-pages.

<sup>3</sup> Julqunboy. Mushtum. (Tanqid.)



haliyagina jaholat-u g'ofillikni izlovchi o'xshovsiz hajviy suratlardan qanoatlanmaydi. Munaqqid afsus bilan yozadi: «O'z hayotimizni lav-halariga chin libos kiydirguvchi o'z kishimiz, o'z sur'atkashimiz yo'q. Bu yo'qlik ham tilni tishlatadir»<sup>1</sup>.

Badiiy asar tili bilan adabiy til o'rtasida muayyan tafovut mavjud. Ular aynan bir hodisa emas. Avvalo, badiiy asar tili adabiy tilga nisbatan keng hodisadir. Chunki, unda adabiy tilning o'zi ham, sheva, kasb-hunar, jargonga oid so'zlar ham, tasviriy ifodalar, turli iboralar ham mujassamlashgan bo'ladi. Adabiy til esa, me'yoriy grammatika qoidalariga asoslangan, umumiy talaffuz qoidalariga ega bo'lgan va shu asosda xalq jonli tilidagi har xilliklarni bir xillashtirib olgan til sanaladi. Shu boisdan o'quv-ta'lim ishlari, rasmiy ish qog'ozlari, ilm-fan, jurnalistika, matbuot adabiy tilda olib boriladi. Adabiy til ham millat madaniyatining o'ziga xos bir ko'rinishidir.

*Adabiy tilning diskursning boshqa shakllaridan farqi nimada? Farqi shundaki, adabiy til odatiy tilning shaklan o'zgargan holatidir. Badiiy vositalar yordamida til kuchayadi, o'zgaradi, bo'yoqdorligi oshadi. Uning ta'sirchanligi ortadi.*

Biroq, badiiy asar tili ham, adabiy til ham umumxalq tiliga asoslanadi. Umumxalq tili har ikkalasining asosi sanaladi.

Abdulla Qodiriy yuqorida tilga olingan maqolada aytilmoqchi bo'lgan fikrning mazmundorligi, so'zning zalvori va jozibasi, xarakterning tabiiyligi, tasvir aniqligi, ifodaning tushunarli bo'lishligi, uslub ravonligi, ijodkor samimiyati, iste'dodining darajasi kabi o'nlab masalalarni kun tartibiga qo'yadi. Uning bu boradagi fikrlari aforizm darajasiga yetgan: «So'z – qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin», «So'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak». «Bir soatda emas, o'n soatda yozish, bir qayta emas, o'n qayta tuzatish kishining yordamiga termulishga qaraganda ham foydali, ham unumlidir», «Hunar bo'lsa (mahorat demoqchi – L.T.) xonaqoh

<sup>1</sup> Julqunboy. Mushtum. (Tanqid).

<sup>2</sup> Terry Eagleton. Literary Theory. Bleckwell Publishers Ltd, 2003, –Page 3.

hech bir vaqt torlik qilmas»<sup>1</sup>. Birgina maqola doirasida kuzatilgan bunday fikrlar adibning qalam ahligagina emas, adabiyot, san'at, matbuot oldiga qo'ygan qat'iy talablari edi.

Badiiy asar tili muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so'zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so'zlar, jargonlar, neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (*metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik munosabat, ritorik so'roq)*) kabilardan tarkib topgan bo'ladi. Bu unsurlar badiiy asar tilining jozibali, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Muallif personajlarning tashqi qiyofasi, ichki kechinmalarini tasvirlash bilan ularni so'zlatadi. So'zlatganda ulardan har birining nutqiga alohida e'tibor beradi. Chunki personajlarning har biri o'ziga xos tarzda gavdalanishi, ularning gap-so'zlari ana shu xususiyatini yorqin namoyon etishi lozim. Qahramonning diqqatni jalb etadigan birinchi belgisi uning nutqidir.

*Badiiy diskurs odatiy tildan yiroq. Ammo bir vaqtning o'zida adabiy tilning tajribasidan foydalanadi. Bu shunday holatki, xuddi havoda nafas olayotganimizda havoni his qilmagandek, badiiy adabiyotning tilidan adabiy tilning tajribasini his qilmasdan foydalanamiz. Lekin havo iflolsansa, o'zgarsagina, uni his qila boshlaymiz. Til bu harakatimiz, nutqimiz muhiti. Badiiy asarning tilidan foydalanganimizdan uning bayon tuzilmasiga e'tibor bermaymiz. Faqat maxsus tahlilga tortib, uning tuzilmasini aniqlaymiz.*

Asar qahramonlari nutqi dialog va monolog shaklida ifoda etiladi.

Dialog, monolog asarni ta'sirchan qiladigan vositalar sirasiga kiradi.

Dialog yunoncha «dialogos» so'zidan olingan bo'lib, «ikki kishi o'rtasidagi so'zlashuv»- degan ma'noni anglatadi. **Monolog** ham yunoncha (monos – bir va logos – so'z, nutq) so'z bo'lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

---

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy. Kichik asarlar . –T.: 1969. B. 186–187.

<sup>2</sup> Terry Eagleton. Literary Theory. Bleckwell Publishers Ltd, 2003, –



Monologlar namoyon bo'lish tarziga ko'ra ikki xil bo'ladi: **tashqi monolog** va **ichki monolog**. Tashqi monolog qahramonning o'z nutqini ovoz chiqarib bayon etishi bo'lsa, ichki monolog uning ichki o'y-kuchlolaridir. Tashqi monolog shakli ko'proq drama, komediya, tragediyada qo'llansa, ichki monolog barcha janrlardagi asarlarda keng ishlatiladi.

Avvallari qo'llangan bo'lsa-da, ayni paytda, nutqda ishlatilmay qolgan so'zlar **arxaik so'zlar** sanaladi. **Shevaga xos so'zlar** esa muayyan hudud kishilari nutqiga xos so'z va iboralardir. Arxaik so'zlar o'tmish manzarasini gavdalantirish maqsadida qo'llansa, shevaga xos so'zlar personajlar tilining o'ziga xosligini namoyon etish, uning manzil -makanini bildirish uchun lozim bo'ladi. **Kasb-korga oid so'zlar** esa qahramonlar mashg'uloti, ularning turmush tarzini ko'rsatish vajidan asqotadi. Masalan, shaxtyorlarning ish tarzi bilan cho'ponlarning kundalik ishi bir-biridan farq qiladi. Shunday ekan, chorvadorlar, shaxtyor yoki baliqchilar haqidagi asar personajlar nutqidan ham aniq bilinib turishi lozim. Ana shu maqsadda yozuvchilar o'z asarlarida shevaga, kasb-korga oid so'z, iboralarni qo'llashadi. Bular mavjud voqelikni aniq aks ettirish imkoniyatini yaratadi.

Ba'zan kishilar o'zaro muloqotlarida faqat bir-birlari tushunadigan so'z, iboralarni qo'llashadi. Masalan, tibbiyot xodimlari bemor huzurida uning kasalligi haqida bir-birlari tushunadigan atamalarni qo'llab gaplashishadi. Ular davolash usullari, qanday dori-darmonlarni ishlatish lozimligi xususida o'zaro maslahatlashishadi. Biroq bu muloqotda nimalar deyilayotganini hamma bemor ham to'liq tushunavermaydi. Tibbiyot xodimlari nutqidagi boshqalar uchun tushunarsiz terminlar kasb-korga, aniqrog'i, sohaga oid so'zlar sanaladi.

*Har qanday til sinf, hudud, mavqe va shunga o'xshash xususiyatlarga ko'ra diskurslarning nihoyatda murakkab diapazonidan iboratki, bu xususiyatlarni yagona lingvistik turkumga kiritib bo'lmaydi.*

Biroq yana shunday so'z, iboralar ham borki, ular jargonlar deb ataladi. Jargon fransuzcha so'z bo'lib, «buzilgan til» degan ma'noni

---

1 Terry Eagleton. Literary Theory. Bleckwell Publishers Ltd, 2003, –Page 4.

bildiradi. Yangi paydo bo'lgan so'zlar, asosan, zamonaviy mavzudagi asarlarda ishlatiladi. Fan-texnika, ijtimoiy hayot taraqqiyoti tufayli paydo bo'lgan yangi so'z, atama, terminlar davr ruhini aks ettirish maqsadida badiiy asarlarda qo'llanadi. Masalan, «neyroxirurgiya», «bi-onika», «kosmonavtika» kabi so'zlar. «birja», «aksiya», «konsalting», «fyuchers» singari iqtisodiyot terminlari ham hozirgi o'zbek tili uchun neologizm hisoblanadi.

Shakldosh, ma'nodosh so'zlar ham xuddi yangi paydo bo'lgan so'zlar, jargon, kasb-kor, sheva, arxaik so'zlar singari badiiy asar tili-ning muhim uzvlaridir. Shakldosh so'zlar badiiy asarda har xil ma'no anglatib keluvchi so'zlardir. Shakldosh so'zlardan sharq adabiyotida qadimdan keng foydalanib kelingan. Xususan, shakldosh so'zlar aso-sida tuyuqlar yozish an'anaga aylangan. Tuyuq ijodkorlarning so'zni bilish, uni his qilish, anglash darajasini ko'rsatadigan o'ziga xos o'l-chov bo'lgan.

Ma'nodosh so'zlar Sharq mumtoz adabiyotida mutashobih so'zlar deb yuritilgan. Sinonimlar ijodkorning so'z boyligini bildiradigan hodisa sanaladi. Aslida hech bir tilda ma'nosi bir-biriga aynan teng so'zlar yo'q. Tildagi har bir so'z betakror ma'noni ifoda qiladi. Har bir so'zning o'z jilosi, qamrov doirasi, ko'lami bo'ladi. Masalan, yuz, bet, chehra, aft, turq so'zlari sinonim so'zlar hisoblanadi. Biroq yuz, chehra so'zlari ijobiylik sifatini bildirsa, aft, turq salbiy ma'noni ifoda qiladi. Umuman, har bir so'zning o'z ta'sir ko'lami, ma'no yo'nalishi bo'ladi.

Zid ma'noli so'zlar esa omonim, sinonimlardan yanada farq qiluv-chi so'zlar sanaladi. Zid ma'noli so'zlar so'zlar hodisa mohiyatidagi qarama-qarshilikni anglatadi. Masalan, ulug' shoir Alisher Navoiy:

*Podshoh yo'qlatsalar nogoh gado deb axtaring*

*Tutmangiz hargiz nominni bahtiqaro deb axtaring, –*

deydi. Istash va amaldagi qarama-qarshilikni «Podshoh – gado» zid ma'noli so'zlar vositasida ifodalash fikrga obrazlilik, ta'sirchanlik baxsh etgan. Antonim hodisasi Sharq adabiyotida **tazod** deb yuritiladi.



Ko'chma so'z – so'z birikmasining o'z ma'nosidan boshqa ma'no-  
da qo'llanishidir. Ko'chim **trop** deb ham yuritiladi. Ko'chimlar ham  
nutq ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ko'chimlar bir ne-  
cha turlarga bo'linadi: metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, alle-  
goriya (majoz) kabilar.

**Metafora** yunoncha «metaphora» so'zidan olingan bo'lib, «ko'chi-  
rilo» degan ma'noni anglatadi. Metafora o'xshashli ko'chimdir. U  
narsa-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan bo'ladi. Biroq  
metafora aynan o'xshatish emas. Metafora bilan o'xshatish bir-  
biridan birmuncha farq qiladi. Masalan, o'xshatishda albatta ikki yoki uch  
o'xshatiluvchi narsa bo'ladi. Ular soni istalgancha ko'payib, kengayib  
borishi ham mumkin. Masalan, Cho'lponning «Xalq» she'rida bir ne-  
cha o'xshatish ketma-ket qo'llangan.

Metafora Sharq adabiyotida **istiora** deb yuritiladi.

**Metonimiya** ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan  
o'xshashsiz ko'chimdir. **Metonimiya** yunoncha «metonomadzo»  
so'zidan olingan bo'lib, «qayta nomlash» demakdir. Metafora  
(istiora)da bir-biriga o'xshash narsa-buyum va ularning belgilari  
ko'chiriladi. Metonimiyada esa tashqi ko'rinishi yoki ichki  
xususiyatlari bilan bir-biriga aloqador, biroq bir-biriga o'xshamagan  
narsa-buyumlar belgilari chog'ishtiriladi.

**Sinekdoxa** ham metonimiyaning bir shaklidir. **Sinekdoxa** yunon-  
cha «synekdoche» so'zidan olingan bo'lib, unda bir qism yoki bo'lak  
orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya'ni, bir butun  
hodisa orqali uning ayrim bo'lagi haqida mulohaza yuritiladi: «Oyoqlar  
kishilar vujudining bir a'zosidir».

**Allegoriya (majoz)** ko'chim turlaridan biridir. U ertak va masal-  
larda, ayniqsa, keng qo'llanadi. Masalan, tulki qiyofasida ayyor kishi-  
lar nazarda tutiladi. Chumoli mehnatkash, zahmatkash odamlar timsoli  
sanaladi. Allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng  
o'ng'ay shakli hisoblanadi. Chunonchi, Abdulla Oripovning «Tilla ba-  
liqcha» she'rida ham fikr birmuncha pardalab berilgan. Mustabid tu-  
zum jamiyat a'zolarini qobiqqa solib qo'ygani haqidagi fikr ko'lmak  
hovuzda qolgan baliq timsolida aytilgan.

**Allegoriya** yunoncha allos – boshqa, o‘zga va agoreuo – gapiraman, demakdir. Gulxaniyning «Zarbulmasal», A.Krilovning «Bo‘ri bilan qo‘zichoq» kabi masallari allegorik, ya’ni majoziy asarlardir.

**Jonlantirish** ham badiiy asarlarda keng qo‘llanadigan badiiy tasvir vositalari sirasiga kiradi. Jonlantirish kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko‘chirishdir. Masalan, *xo‘mraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xo‘mrayish jonsiz bulutga ko‘chirilgan bo‘ladi. Asarlarda tog‘- tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi.

**Sifatlash** jonlantirishdan birmuncha farq qiladigan badiiy tasvir vositasi sanaladi. Sifatlash narsa -hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko‘rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo‘ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo‘lib, unda narsa-hodisalarning o‘tkinchi belgilari ta’kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo‘lib, bunda narsa-hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi. *Po‘lat nayza, olmos qilich, uchqur ot* kabilar doimiy sifatlash sanaladi. Har ikkala sifatlash turi voqea-hodisani yorqin ko‘rsatishga imkon beradi. Masalan, *oppoq tong, ona zamin*.

**O‘xshatish** badiiy adabiyotning barcha tasvir vositalari orasida eng ko‘p qo‘llanadigan hodisadir. O‘xshatish narsa-buyumning ma’lum bir belgisini boshqa narsa- buyumga solishtirishdir. O‘xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkonini beradi. O‘xshatish narsalarning bevosita o‘xshash tomonlarini ko‘rsatish yoki **-dek (-day)** qo‘shimchasi, *xuddi, o‘xshash, go‘yo, misli, misoli, singari, yanglig‘, bamisoli, kabi* ko‘makchilari yordamida hosil qilinadi.

Badiiy asarlarda tasvir vositalari ayrim holda ham, bir nechasi birgalikda, o‘zaro bog‘liq holda ham ishlatiladi. Masalan, ayrim she’rlarning bir bandida o‘xshatish ham, sifatlash ham, mubolag‘a, jonlantirish ham qo‘llangan bo‘ladi. Ular ta’sirchan obraz va manzara yaratish bilan birga, ijodkorning voqelikka munosabatini ham bildirib turadi.

**Mubolag‘a** narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag‘a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi. Mubolag‘a badiiy



asarda aksariyat hollarda o'xshatish, jonlantirish, sifatlash, metafora kabi tasviriy vositalar bilan birga qo'llanadi. Mubolag'a, ayniqsa, folklor asarlarida – ertak, dostonlarda ko'p qo'llanadi.

Badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning o'ziga xos qurilishidir. U oddiy so'zlashuvdagi nutqdan gap tuzilishiga ko'ra jiddiy farq qiladi. Badiiy asar tili ba'zi o'rinlarda, hatto, grammatika qoidalariga ham mos kelmaydi. Ilmiy asarlar tilida esa, grammatika qoidalariga to'la rioya qilingan bo'ladi. Badiiy asar tilida fikrning ta'sirchan bo'lishi asosiy maqsad qilib qo'yilsa, ilmiy asarlarda fikrning mantiqan ishonchli bo'lishiga e'tibor qaratiladi. She'riy, nasriy asarlarda fikrning hissiy ta'sirchan bo'lishiga erishish uchun gap qurilishining ohang, parallelizm, takror, anafora, inversiya, antiteza, ritorik murojaat, ritorik so'roq kabi ifoda usullari qo'llaniladi.

**Ohang** lotincha «intonare» so'zidan olingan bo'lib, «qattiq talaffuz etish» degan ma'noni bildiradi. U so'zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi. Badiiy asarda intonatsiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.

**Parallelizm** ikki yoki undan ortiq narsa -hodisani yonma-yon qo'yish orqali mazmunni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo'l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi. Parallelizm yunoncha «parallellos» so'zidan olingan bo'lib, «yonma -yon boruvchi» degan ma'noni bildiradi. Parallelizmlar mazmunan teng yoki bir-biriga yaqin hodisalarning qiyoslanishi, o'xshatilishi, qarama-qarshi- qo'yilishi, talaffuzda bir xil ohangdorlikka asoslangan bo'lishi (intonat-sion parallelizmlar) va boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin. Radiflar ham parallelizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Albatta, bunda misralarda fikr mazmuni o'xshash yoki bir-biriga yaqin hodisalarni ifoda qilishi lozim.

**Takror** parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko'rinib turadi. Chunki takror ayrim so'z, iboralarning ma'lum bir tartib asosida qayta-qayta qo'llanishidir. Takror muayyan maqsadga muvofiq qo'llanadi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko'rinishlari bor.

**Anafora** yunoncha «anaphor» soʻzidan olingan boʻlib, «yuqoriga koʻtarilish» degan maʼnoni bildiradi. Bunda bir xil soʻz yoki soʻz birikmasi sheʼr misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.

*Qaysi bir ozorin aytay jononima agʻyorning,*

*Qaysi bir ogʻritganin koʻnglimni dey dildorning.*

(Bobur)

Takrorning ham barcha koʻrinishlari mazmunni kuchaytirish, fikrni taʼsirchan qilishga qaratilgan boʻladi. **Anafora, inversiya** uning ana shunday ifoda usullari hisoblanadi.

**Inversiya** lotincha «inversi» soʻzidan olingan boʻlib, «oʻrin almashtirish» degan maʼnoni bildiradi. Bunda gap boʻlaklari grammatika meʼyorlari tartibidan farqliroq tarzda qoʻllanadi. Inversiya taʼkidlamoqchi boʻlgan fikrga mantiqiy urgʻu berish, uni kuchaytirish, taʼsirchanligini oshirish maqsadida qoʻllanadi.

*Koʻp jahongir koʻrgan bu dunyo,*

*Hammasiga guvoh yer osti.*

*Lekin doʻstlar, sheʼr ahli aro*

*Jahongiri kam boʻlar rosti.*

(Abdulla Oripov)

Grammatik meʼyorga amal qilinadigan boʻlsa, bu misralar «Bu dunyo koʻp jahongir koʻrgan...» tarzida yozilishi kerak edi.

**Antiteza** ham fikr taʼsirchanligini oshirish maqsadida qoʻllanadigan ifoda usullaridandir. U qarama-qarshi fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

*Menga nomehribon yor oʻzgalarga mehribon ermish,*

*Mening jonim olib, agʻyorga oromijon ermish.*

(Alisher Navoiy)

*Menga nomehribon – oʻzgalarga mehribon – bu zid tushunchalar.*



**Ritorik murojaat** tantanavorlik, ko‘tarinkilik yoki kesatish, kuchli g‘azab, nafratni ifodalash uchun qo‘llanadigan xitob shaklidagi ifoda usulidir.

Badiiy asar tilida bu kabi tasviriy vositalar, ifoda shakllari ko‘p. Ularning barchasi mazmunning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Omonim, sinonim, antonim, ko‘chim, istiora, metonimiya, allegoriya, sinekdoxa, anafora, antiteza, inversiya kabilar badiiy asar matnida ara-lash holda, bir-biriga bog‘liq tarzda yoki alohida-alohida shaklda namoyon bo‘ladi. Ular mazmuni ta‘sirchan qilishga, qahramonlar ruhiy olamini yorqin gavdalantirishga yordam beradi.

### **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. *Terry Eagleton. Literary Theory.* Bleckwell Publishers Ltd, 2003, –Pages 2-4.
2. *Sulton I.* Adabiyot nazariyasi. – T.: «O‘qituvchi». 2005.
3. *Sarimsaqov B.* Badiiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004.
4. *Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M.* – Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: «Akademnashr». 2013.
5. *Herman Hessi.* Jahon adabiyoti kutubxonasi. Jahon adiblari adabiyot haqida. «Ma’naviyat». 2010.
6. *Qodirov P.* Xalq tili va realistik proza. –T.: «Fan», 1973.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi».
8. *Abdulla Qodiriy.* Kichik asarlar. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969.

### **Mavzuga doir mustaqil ish topshiriqlari**

1. Tilning badiiy, ijtimoiy va falsafiy mohiyati nimalarda aks etadi?
2. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi nima?
3. Muallif tili va qahramon tili haqida ma’lumot bering.
4. Monolog va dialog nima?
5. O‘xshatish va sifatlash haqida ma’lumot bering.

## Keyslar banki

**Keys 1.** Monolog nima ekanligini tushuntiradi. Birorta asardan o'zgalarga qaratilgan nutqni amalga oshiradi. Endi shular asosida ularning dialogdan farqli jihatini asoslab berishi kerak.

### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- asardan o'zgalarga qaratilgan nutqni amalga oshirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).
- monolog va dialogning o'zaro va farqli jihatlarini aniqlang. (individual holda).

## Mavzu yuzasidan savollar

1. Badiiy asar tilida arxaizm, neologizm, dialektizm, varvarizm, vulgarizm, jargonizmlarga misollar ayting.
2. Badiiy asar tili, xalq tili va adabiy til o'rtasidagi mushtarakliklar nimalarda ko'rinadi?
3. Badiiy asar tili – avtor va personaj tili haqida ma'lumot bering.
4. Badiiy tasvir vositalari: sodda va murakkab majozlar deb nimalarga aytiladi?

## Test savollari

1. Badiiy asarda biror predmetni, hodisani, detalni bir necha barobar kichraytirib tasvirlash san'ati ... deyiladi.
  - A. Tablig';
  - B. G'uluv;
  - C. Tafrit (litota);
  - D. Mubolag'a.
2. Aytilishi va yozilishi bir xil, ma'nolari har xil bo'lgan jinsdosh so'zlar orqali obraz, lavha, kechinma, tuyg'uni ta'sirchan ifodalash san'ati...



- A. Mubolag‘a;
- B. Tablig‘;
- C. Tajnis;
- D. Tazod.

3. «Sabr qilsang g‘o‘radin halvo bitar, Besabrlar o‘z oyog‘idan yitar». Gulxaniyning ushbu baytida qanday badiiy san‘at qo‘llangan?

- A. Tajnis;
- B. Tazod;
- C. Takrir;
- D. Irsolu masal.

4. «Malaksan yo bashar yo hur-u g‘ilmongan bilib bo‘lmas, Bu lutf-u bu nazoat birla sendin ayrilib bo‘lmas». Mashrabning mazkur g‘azalida qo‘llangan badiiy san‘atni toping.

- A. Talmeh;
- B. Irsolu masal;
- C. Tajohulu orif;
- D. Tardi aks.

5. Yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatni kashf etishi va uni so‘z vositasida obrazli ifodalay olishi ... deyiladi.

- A. Uslub;
- B. Badiiyat;
- C. Poetika;
- D. Metod.

6. Lug‘aviy ma‘nosi biron narsani omonat (vaqtinchalik)ga olmoq bo‘lgan she‘r san‘atini belgilang.

- A. Tazod;
- B. Tarse‘;
- C. Istiora;
- D. Intoq.

7. Badiiy san'atlar ichida so'zlatish, gapirtirish ma'nolarini ifodalaydigan san'at turini aniqlang.

- A. Talmeh;
- B. Istiora;
- C. Laff va nashr;
- D. Intoq.

8. Tazmin so'zining lug'aviy ma'nosini belgilang.

- A. Ma'nosi berkitilgan so'z;
- B. Bir narsani ikkinchi bir narsa orasiga qo'ymoq;
- C. Shubhaga solish;
- D. So'zni so'zdan ajratmoq.

9. Mubolag'a turlarini belgilang.

- A. Tablig';
- B. G'uluv;
- C. Ig'roq;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

10. Adabiy til uslublarining qaysi biri inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi?

- A. So'zlashuv uslubi;
- B. Publitsistik uslub;
- C. Ilmiy uslub;
- D. Badiiy uslub.

11. Tuzsiz she'rlarimni deb shirindan shirin bolalarim yurar oyoq uchida (M.Yusuf). Ushbu satrda ma'no ko'chishining qaysi ko'rinishi bor?

- A. Metonimiya;
- B. Metafora; C. Sinekdoxa; D. Vazifadoshlik.



12. Bu uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Ushbu ta’rif adabiy til uslublarining qaysi biri haqida?

- A. So‘zlashuv uslubi;
- B. Publitsistik uslub;
- C. Rasmiy uslub; D.
- Ilmiy uslub.

## TARQATMA MATERIAL

**Metafora** – yunoncha «metaphora» so‘zidan olingan bo‘lib, «ko‘chirish» degan ma’noni anglatadi. U narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan bo‘ladi. Biroq metafora aynan o‘xshatish emas.

**Metonimiya** – ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiya yunoncha «metonomadzo» so‘zidan olingan bo‘lib, «qayta nomlash»dir.

### **She’riy va nasriy asarlardan misollar topish.**

---

**Sinekdoxa** – yunoncha «synekdoche» so‘zidan olingan bo‘lib, unda bir qism yoki bo‘lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya’ni, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo‘lagi haqida mulohaza yuritiladi.

**Allegoriya (majoz)** – yunoncha allos – boshqa, o‘zga va agoreuo – gapiraman demakdir. U ertak va masallarda, ayniqsa, keng qo‘llanadi. Masalan, tulki qiyofasida ayyor kishilar nazarda tutiladi. Chumoli mehnatkash, zahmatkash odamlar timsoli sanaladi. Allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng o‘ng‘ay shakli hisoblanadi

### **She’riy va nasriy asarlardan misollar topish.**

## SUJET, KONFLIKT, KOMPOZITSIYA

1. **Shakl** va mazmun.
2. **Mavzu** va g'oya.
3. **Fabula** va sujet.
4. **Sujet** va kompozitsiya.

**Tayanch soʻzlar.** *Sujet, konflikt, kompozitsiya voqealar rivoji, ekspozitsiya, epilog, prolog, kulminatsiya, tugun, yechim, konflikt.*

Adib maʼlum bir narsani, mavzuni tanlab oladi. Bu xuddi homila kabi uning ichida, ongida rivoj topadi, obrazlar, voqealar tizimini xayolidan oʻtkazib, gʻoyasini pishiradi. Muallif tomonidan boʻljak asar uchun mavzu tanlab olinganidan soʻng uning oldida keyingi muam-mo koʻndalang boʻladi. Bu muammo – asarning tuzilishini aniqlashdan iborat. Albatta asarning qurilishi, yaʼni tarkibini belgilash ham ancha masʼuliyatli hisoblanadi. Bu oʻrinda muallif asari kompozitsiyasini tuzib olish harakatiga tushib qoladi. Aslida kompozitsiya soʻzi lotin tili-dan olingan boʻlib, u oʻzbek tilida tuzilish, qurilish sifatida maʼno ang-latadi. Asar kompozitsiyasi nafaqat voqealar tizimi bilan: balki soʻzlar qurilishi, ularning berilishi bilan ham bogʻliq. Chunki «Badiiy asarlarda faqat obrazlar, til va uslubiy vositalar barchasi muallif ilgari surayot-gan muayyan gʻoyaga xizmat qiladi. Asar tuzilishi ham yuqoridagilar singari muallif gʻoyasiga singdiriladi. Agar obrazlar, tasvir vositalari muayyan tartibda joylashtirilmas ekan, ham tasvirdagi, ham qismlar-aro mezon va uygʻunlikka putur yetadi. Ijodkor har qancha mahoratli soʻz sanʼatkori boʻlmasin, oʻz gʻoyasi va maqsadiga toʻla erishgan hi-soblanmaydi. Mabodo, ijodkor maqsadi, gʻoyasi, nuqtayi nazari izchil va aniq boʻlmasa, uning asari tuzilish jihatidan puxta, muvaffaqiyatli chiqmaydi»<sup>1</sup>.

Bu oʻrinda asardagi uygʻunlikka alohida eʼtibor berish lozim. Asardagi har bir detal, har bir element bir-birini talab qilsa, bir-biriga

---

<sup>1</sup> *Normatov U. Qodiriy bogʻi.* –T.: «Yozuvchi». 1995. – B. 4.



Yengib ketsa, ana shu uyg'unlik deyiladi. Badiiy asardagi har bir unsur, voqea, hodisa parchasi, vosita hamisha muayyan maqsadga xizmat qiladi, bir- biri bilan ham shaklan, ham mazmunan munosabat kasb etgan holda mantiqiy bog'liqlik – uyg'unlik kasb etadi. Shunday qilib, kompozitsiya- asar mazmuni to'laqonli tarzda ayonlashuvini ta'minlovchi shakliy unsur hisoblanadi. Ushbu unsurdan mohirona foydalanish, ya'ni uni aniq maqsadga yo'naltirish, albatta, har bir ijodkor ijodiy laboratoriyasini tadqiq etishda asqotadi. Ma'lumki, asar kompozitsiyasi ijod mahsulini xuddi odam organizmini qon tomirlari o'rab olgani kabi ta'sir o'tkazadi, uning har bir unsur ustidan hukmronligi, ta'sir kuchi bo'ladi.

Har bir ijodkor o'zi tanlagan mavzu bo'yicha asar yaratishda kompozitsiyani o'zi belgilashiga to'g'ri keladi. Lekin bu masalaga har qancha individual yondashmasin, bunda uning tanloviga ijodiy usul, adabiy yo'nalish, oqim va shularga xos va mos ijod tamoyillari bevosita ta'sir etadi, ijod namunasi esa bular orqali namoyon bo'lib boradi. Demakki, asar kompozitsiyasi ijod laboratoriyasini o'rganishdagi eng asosiy, muhim elementlardan biri, u orqali ijodkor nazarda tutgan g'oya, asarning badiiy qamrovi yuzaga chiqadi.

Zamonaviy adabiyotda bo'lgani kabi, mumtoz adabiyotda ham asar kompozitsiyasi muhim o'rin kasb etadi. Faqat ulardagi qolip hozirgi adabiyotdagi kabi murakkab bo'lmagan, asar qahramonlari hayoti o'ta sodda til va kompozitsiya bilan talqin etilgan, ularning asardagi missiyasi ham juda sodda – ular oldinda turgan bir daradan o'tadilar va maqsadlariga erishadilar. Hayotiy asarlar kompozitsiyasi bir qolipda qotib qolmaydi, balki zamon va makonda, ijod taraqqiyotining turli bosqichlarida badiiy asar kompozitsiyasi turli shakllarga ega bo'lgan, dastlab badiiy asarni bir qahramon obrazi birlashtirib turuvchi bir necha hikoyalardan iborat tuzilish yetakchilik qilgan bo'lsa, keyinchalik asar qahramonining oldida qator to'siqlar paydo bo'lishi va qahramon ularni birin-ketin yengib o'tishi ustunlik qilgan.

Zoir Tohirov hozirgi davr adabiyoti xususida fikrlar ekan, undagi o'zgarishlarni bir necha misollar yordamida tahlil qiladi hamda o'z so'zlarini asoslaydi. «XX asr badiiy ijod sahnidagi hayotiy asarlar

## SUJET, KONFLIKT, KOMPOZITSIYA

1. Shakl va mazmun.
2. Mavzu va g'oya.
3. Fabula va sujet.
4. Sujet va kompozitsiya.

**Tayanch so'zlar.** *Sujet, konflikt, kompozitsiya voqealar rivoji, ekspozitsiya, epilog, prolog, kulminatsiya, tugun, yechim, konflikt.*

Adib ma'lum bir narsani, mavzuni tanlab oladi. Bu xuddi homila kabi uning ichida, ongida rivoj topadi, obrazlar, voqealar tizimini xayolidan o'tkazib, g'oyasini pishiradi. Muallif tomonidan bo'lajak asar uchun mavzu tanlab olinganidan so'ng uning oldida keyingi muam-mo ko'ndalang bo'ladi. Bu muammo – asarning tuzilishini aniqlashdan iborat. Albatta asarning qurilishi, ya'ni tarkibini belgilash ham ancha mas'uliyatli hisoblanadi. Bu o'rinda muallif asari kompozitsiyasini tuzib olish harakatiga tushib qoladi. Aslida kompozitsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, u o'zbek tilida tuzilish, qurilish sifatida ma'no anglatadi. Asar kompozitsiyasi nafaqat voqealar tizimi bilan: balki so'zlar qurilishi, ularning berilishi bilan ham bog'liq. Chunki «Badiiy asarlarda faqat obrazlar, til va uslubiy vositalar barchasi muallif ilgari surayotgan muayyan g'oyaga xizmat qiladi. Asar tuzilishi ham yuqoridagilar singari muallif g'oyasiga singdiriladi. Agar obrazlar, tasvir vositalari muayyan tartibda joylashtirilmas ekan, ham tasvirdagi, ham qismlararo mezon va uyg'unlikka putur yetadi. Ijodkor har qancha mahoratli so'z san'atkori bo'lmasin, o'z g'oyasi va maqsadiga to'la erishgan hisoblanmaydi. Mabodo, ijodkor maqsadi, g'oyasi, nuqtayi nazari izchil va aniq bo'lmasa, uning asari tuzilish jihatidan puxta, muvaffaqiyatli chiqmaydi».

Bu o'rinda asardagi uyg'unlikka alohida e'tibor berish lozim. Asardagi har bir detal, har bir element bir-birini talab qilsa, bir-biriga

---

<sup>1</sup> Normatov U. Qodiriy bog'i. –T.: «Yozuvchi». 1995. – B. 4.



Yig'ilib ketsa, ana shu uyg'unlik deyiladi. Badiiy asardagi har bir unsur, voqea, hodisa parchasi, vosita hamisha muayyan maqsadga xizmat qiladi, bir- biri bilan ham shaklan, ham mazmunan munosabat kasb etgan holda mantiqiy bog'liqlik – uyg'unlik kasb etadi. Shunday qilib, kompozitsiya- asar mazmuni to'laqonli tarzda ayonlashuvini ta'minlovchi shakliy unsur hisoblanadi. Ushbu unsurdan mohirona foydalanish, ya'ni uni aniq maqsadga yo'naltirish, albatta, har bir ijodkor ijodiy laboratoriyasini tadqiq etishda asqotadi. Ma'lumki, asar kompozitsiyasi ijod mahsulini xuddi odam organizmini qon tomirlari o'rab olgani kabi ta'sir o'tkazadi, uning har bir unsur ustidan hukmronligi, ta'sir kuchi bo'ladi.

Har bir ijodkor o'zi tanlagan mavzu bo'yicha asar yaratishda kompozitsiyani o'zi belgilashiga to'g'ri keladi. Lekin bu masalaga har qancha individual yondashmasin, bunda uning tanloviga ijodiy usul, adabiy yo'nalish, oqim va shularga xos va mos ijod tamoyillari bevosita ta'sir etadi, ijod namunasi esa bular orqali namoyon bo'lib boradi. Demakki, asar kompozitsiyasi ijod laboratoriyasini o'rganishdagi eng asosiy, muhim elementlardan biri, u orqali ijodkor nazarda tutgan g'oya, asarning badiiy qamrovi yuzaga chiqadi.

Zamonaviy adabiyotda bo'lgani kabi, mumtoz adabiyotda ham asar kompozitsiyasi muhim o'rin kasb etadi. Faqat ulardagi qolip hozirgi adabiyotdagidagi kabi murakkab bo'lmagan, asar qahramonlari hayoti o'ta sodda til va kompozitsiya bilan talqin etilgan, ularning asardagi missiyasi ham juda sodda – ular oldinda turgan bir daradan o'tadilar va maqsadlariga erishadilar. Hayotiy asarlar kompozitsiyasi bir qolipda qotib qolmaydi, balki zamon va makonda, ijod taraqqiyotining turli bosqichlarida badiiy asar kompozitsiyasi turli shakllarga ega bo'lgan, dastlab badiiy asarni bir qahramon obrazi birlashtirib turuvchi bir necha hikoyalardan iborat tuzilish yetakchilik qilgan bo'lsa, keyinchalik asar qahramonining oldida qator to'siqlar paydo bo'lishi va qahramon ularni birin-ketin yengib o'tishi ustunlik qilgan.

Zoir Tohirov hozirgi davr adabiyoti xususida fikrlar ekan, undagi o'zgarishlarni bir necha misollar yordamida tahlil qiladi hamda o'z so'zlarini asoslaydi. «XX asr badiiy ijod sahnidagi hayotiy asarlar

munosabatlar majmuidan iboratdir. Bu hodisa kompozitsiya deb yuritiladi.

**Kompozitsiya** lotincha «compositio» soʻzidan olingan boʻlib, «tuzilish, qurilish, tarkib» degan maʼnoni bildiradi. Bundan anglashiladiki, kompozitsiya badiiy asarning barcha unsurlari bilan uzviy bogʻliqdir. Shu maʼnoda ham asar mazmuni, gʻoyasi, qahramonlari qiyofasi, umuman, asarning taʼsirchanlik darajasi uning kompozitsiyasidan kelib chiqadi. Sujet ham kompozitsiya tarkibiga kiradi.

**Sujet** fransuzcha «sujet» boʻlib, «narsa, mazmun, mavzu» degan maʼnoni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar oʻrtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi sujetdir.

*Sujet taʼrifini 1925-yilda Boris Tomashevskiy bergan boʻlib, uning talqiniga koʻra, belletristika tili odatiy tildan farq qiladi. Bu taʼrifni keltirishda olim oʻzidan avvalgi olimlarning fikrlariga tayangan. Yana bir farq shundan iboratki, nafaqat tilda, balki uning amaliy qoʻllanilishida ham namoyon boʻladi.*

Sujetning oʻzi ham bir qator qismlardan tarkib topgan: **ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim**. Biroq, sujetlar oʻz tuzilishiga, namoyon boʻlish tarziga koʻra bir-biridan farq qiladi.

Badiiy asarlar kompozitsiyasi tahlil qilingan ayrim tadqiqotlarda «fabula» termini ham uchraydi. **Fabula** lotincha «fabula» soʻzidan olingan boʻlib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos boʻlgan hayotiy material nazarda tutiladi.

*Ikkita tushuncha: fabula (Shklovskiy tomonidan 1921-yilda kiritilgan) va sujet (alifboning transkripsiyasiga bogʻliq ravishda) qiyosiy tahlil qilinadi. Fabula nimadir hisobiga namoyon boʻladi. Fabulada aslida nima sodir boʻlganligi haqida soʻzlanadi. Fabula maʼlum bir voqeaning quruq suyagi (skeleti)dir<sup>2</sup>.*

*Fabula suyak boʻlsa, sujet uning goʻshti (voqeaning qanday sodir boʻlgani). Sheʼriyatda bu alohida tus oladi. Masalan, sheʼr oʻquvchini*

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 35.

<sup>2</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 36



yoki tinglovchini qofiya, sujeti bilan o'ziga jalb qiladi. Detektiv asarlarda ham sujetning va uni qiziqarli, ta'sirli qiluvchi badiiy vositalarining ahamiyati katta.

Hayotning o'zida ziddiyatlar xilma-xil bo'lgani singari badiiy asarda ham badiiy konfliktning turli ko'rinishlari qo'llaniladi. Ularni shartli tarzda quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin: **ichki ruhiy konflikt** (qahramon qalbidagi kurashlar, hissiyotlar to'qnashuvi), **ijtimoiy konflikt** (turli guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar), **oilaviy konflikt** (oila a'zolari o'rtasidagi mojarolar), **shaxsiy-intim konflikt** (shaxs va boshqalar manfaati o'rtasidagi kurash) kabilar.

Sujet tarkibidagi unsurlar orasida dastlab ekspozitsiyaning nima ekanligini sharhlash joizdir. **Ekspozitsiya** lotincha «expositio» so'zidan olingan bo'lib, «tushuntirish» degan ma'noni anglatadi. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, qahramonlar unib-o'sgan muhit shart-sharoiti kabilar tasviri ekspozitsiya deb yuritiladi. Ekspozitsiya asarning istalgan o'rnida bo'lishi mumkin. Sujetning yana bir unsuri **voqealar tugunidir**. Badiiy asarda qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar paydo bo'lishi voqealar tugunidir. Tugun, ko'pincha, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror jiddiy muammo yuzasidan tortishishi tufayli paydo bo'ladi. Tugun voqealar rivojini belgilaydi, qahramonlarni faol harakatlantiradi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar o'rtasida emas, qahramonning aynan o'zining o'y-kechinmalari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, qahramon nimadandir ta'sirlansa, o'z ko'nglida o'sha hodisani o'ylab tashvishlana boshlashi mumkin. Bu holat ham tugun sanaladi.

Voqealar tuguni yuzaga kelgach, u qandaydir tarzda o'sib, rivojlanib boradi. Suetdagi voqealarning ma'lum tugundan so'nggi rivojlanish jarayoni **voqea rivoji** deyiladi. Tugun to'satdan yuzaga kelganday bo'lishi mumkin. Biroq voqea rivoji uzoq davom etadigan jarayon bo'ladi. Voqealar rivoji jarayonida ham turli chigalliklar yuzaga keladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida Homid Otabek bilan Kumush o'rtasidagi munosabatlarni buzish uchun turli

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 36.

hiyla- nayranglar qiladi. Uning yovuzliklari tufayli qahramonlar nihoyatda mushkul holatlarga tushadi. Sujet voqealari rivoji davomida paydo bo'lgan ana shu yangi tugunlar yoki chigalliklarga **perepetiyalar** deyiladi.

Har qanday ziddiyat, kelishmovchilik ham bora-bora eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Hayotning ana shu haqiqati badiiy asar sujetidagi voqealar rivojiga ham mos keladi. Chunki qahramonlar orasidagi qarama-qarshilik ham o'sib, o'zining eng baland darajasiga ko'tariladi. Ular asar sujetining **kulminatsion nuqtasi** sanaladi.

Gumanist uchun qarama-qarshiliklar ko'pligini biz matnlarda ko'rishimiz mumkin. Sujetlarni tahlil qilishda nizolarning kelib chiqishi, sabablarini aniqlash orqali haqiqatni anglash sodir bo'ladi. Badiiy adabiyotlarda sujetlarda nizolarning, kurashlarning aks ettirilishi badiiy vositalar orqali amalga oshiriladi.

Asar sujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko'tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko'rsatadigan epizodi **voqealar kulminatsiyasi** deyilsa, sujet voqealari va qahramonlar taqdirining hal bo'lishini gavdalantiruvchi epizod **yechim** deb ataladi. Ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiyasi va yechimi sujetni tashkil etuvchi, birtiruvchi qismlar hisoblanadi. Ular birgalashib, asarning ahamiyatini belgilab beradi.

Asar sujetining tarkibiga kirmaydigan, biroq unga aloqador bo'lgan yana ikki unsur ham borki, ulardan biri – muqaddima, ikkinchisi xotima. **Muqaddimada** muallif o'quvchiga o'z maqsad-muddaosini ma'lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar beradi. **Xotima** esa qahramon-larning asar sujeti voqealari tamom bo'lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qismdir.

Sujet voqealari boshlanishi (ekspozitsiya), tuguni, rivoji, kulminatsiyasi va yechimi qahramonlar o'rtasida kechadi. Bundan anglashiladiki, sujet markazida qahramon yoki qahramonlar turadi. Tabiiyki, ana shu qahramonlar moddiy mavjudot sifatida o'z qiyofa, ko'rinishiga ega bo'ladi. Ularning holat, ko'rinishlarini tasavvur qilish va shu asosda

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 134.



ma'lum bir fikr va xulosaga kelish mumkin. Badiiy asardagi qahramonlarning tashqi qiyofasi, ko'rinishi, yuzi, kiyim-kechagi, yurish-turishi tasviri **portret** deb ataladi.

Tabiiyki, personajlar ko'rinishi, qiyofasi xususidagi bu mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to'g'risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa, ijodkor e'tiborni qaratgan detallar asosida hosil bo'ladi. **Detal** qahramon portretini emas, uning fe'l-atvorini ko'rsatishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon xarakter-sajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo'ladi.

Joy- manzaralar tasviri ham, qahramonlar portreti gavdalantirilgan o'rinlar ham ijodkorning aynan o'ziga tegishli bo'ladi. Albatta, asardagi har bir so'z muallif tomonidan bitiladi. Qahramonlarni ham asar muallifi so'zlatadi. Biroq portret, peyzaj asar ijodkorining kashfiyoti ekani hammasidan ham aniqroq bilinib turadi. Badiiy asarda yana shunday o'rinlar uchraydiki, ularda muallif o'zini yana ochiq-oshkora namoyon etadi. Asardagi bu o'rinlar **lirik chekinish** deb nomlanadi. Lirik chekinish ijodkorning sujet voqealarini to'xtatib, ular tufayli o'zida paydo bo'lgan ichki kechinmalarni bayon etishidir.

Asarning asosi sanalgan sujet va kompozitsiya juda murakkab hodisa sanaladi. Har bir asar o'ziga xos sujet va kompozitsiyaga ega bo'ladi. Yuqorida badiiy asar sujeti, kompozitsiyasi, ularga daxldor unsurlar xususida umumiy tarzda mulohaza bildirildi, xolos. Chunki badiiy asarning bu ikki hodisasi haqida kengroq mulohaza yuritish o'z-o'zidan asarning boshqa unsurlari xususida to'xtalishni taqozo etadi. Negaki, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq hodisalardir. **Peyzaj** ana shu hodisalardan biridir.

**Peyzaj** fransuzcha «paysage» so'zidan olingan bo'lib, «mamlakat», «joy» degan ma'noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqea-hodisalar kechgan joylar ko'rinishi tasviridir. U qahramonlarning holati, kayfiyatini gavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi.

Bir xil mavzu, bir xil qahramonlar taqdiri naql qilingan bunday asarlar **sayyor sujetga** asoslangan bo'ladi. Sayyor sujet barcha milliy

adabiyotlar tarixida mavjud bo'lgan hodisadir. «Layli va Majnun» dostoni – abadiy ishq qissasini dastlab Nizomiy dostoniga aylantirgan. Unga 118 ta nazira bitilgan. Shulardan 67 tasi fors, 37 tasi turkiy tilda bo'lsa, 7 tasi kurd, 7 tasi urdu, 2 tasi panjob tillaridadir. Arman, gruzin tillarida ham Layli va Majnun ishq haqida doston yaratilgan. Rus shoiri V. Xlebnikov ham 1911-yilda shu nomda doston bitgan.

*Bir xil fabula bir nechta asarni birlashtirishi mumkin. Lekin sujet va undagi badiiy ta'sir vositalarining xilma-xilligi joziba baxsh etadi.*

Biroq sayyor sujetlar asosida bitilgan asarlar bir asarning ayni nusxasi emas. Ular bir mavzu, bir sujetning yangi qirralari, yangi jihatlari va yangi ma'nolarini kashf etib bergan alohida mustaqil asarlardir. Sayyor sujetlar ijodkorlar tafakkur darajasi, badiiy mahorati miqyosi, mushohada ko'lamini ko'rsatib beradi.

Abdulla Qodiriy «Qizil O'zbekiston» gazetasining 14-mart 60-sonida bosilgan «Yozuvchi o'z ishi to'g'risida» nomli ma'ruzasidan ko'zlangan maqsad nima edi? Bizningcha, yosh yozuvchilarga to'g'ri yo'nalish berish, demakki o'zbek adabiyoti istiqboli haqida kuyunchaklik bosh maqsad bo'lgan. Uning adabiy-estetik konsepsiyasiga ko'ra, yosh qalamkashlar quyidagi bosqichlarni o'tashi lozim:

- turmush ichiga kirib, uning turli sohalarini teran o'rganish;
- sinchkov kuzatuvchanlik orqali yig'ilgan materiallarga tayanib asarning ishonchlilik darajasini oshirish qobiliyatini o'stirish;
- ijod jarayonining individual tabiati o'zida qanday kechayotgani xususida ibratli xulosalar chiqarish;
- tinimsiz mahoratni oshirish;
- adabiyotdagi oqim va maktablarni yaxshi bilish;
- ustoz so'z san'atkorlari asarlarini o'ta sinchkovlik bilan o'qib-o'rganish<sup>2</sup>.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, Abdulla Qodiriy o'z tajribalari muayyan darajada yoshlarga ibrat bo'lishini ko'zlangan. Kelgusi

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 35.

<sup>2</sup> Qodiriy A. Yozuvchi o'z ishi to'g'risida. «Qizil O'zbekiston» gazetasining 14-mart 60-soni.



rejalari bilan o'rtog'lashgan. U o'zining hajvchilikni yangidan boshlash va tarixiy mavzuda roman yozish niyatida ekanligini bayon qilgan. Ma'ruzaga qizg'in tayyorlanish asnosida Abdulla Qodiriy ijodiy yo'lining barcha jihatlarini tahlil etib, tegishli xulosalar chiqargani aniq. Bu xulosalarning ikki jihati bizga ma'lum. Demak, Abdulla Qodiriy badiiy ijodida hajvchilik va tarixiy roman yetakchilik qiladi. Uning adabiy-estetik olamiga kelsak, Abdulla Qodiriy yoshlar oldiga qo'yayotgan talablar nafaqat o'z davri va bizning kunlarimiz, balki barcha davrlar uchun o'lmas fikr-mulohazalardir. Shunga qaramasdan, 30-yillar adabiy siyosati ustuvor bo'lgan bir davrda masalalarning bu qadar jasorat bilan prinsipial tarzda qo'yilishi va hal etilishi mislsiz bir ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim.

Abdulla Qodiriy maqolada tubandagi masalalarga asosiy e'tibor qaratgan:

1. Kitobxonning aytilmoqchi bo'lgan fikrni tushunishini og'irlashtirmaydigan, ya'ni unga malol kelmaydigan darajada so'z isrofgarchiligiga sabab bo'luvchi ortiqcha detallardan tiyilish. «G'oyat siqiq va quyuq yozish».

2. Detallarning o'zaro mantiqiy bog'lanishini ta'minlash.

3. Muallif ta'rif-tavsifi («so'zlay berish») emas, qahramon so'zlari va xatti-harakatlari orqali («ko'rsatish») hikoyada juda muhimdir.

4. Dialoglarda voqeani siljitish va qahramonni xarakterlashga yo'naltirish jarayonida muallif izohiga ehtiyoj sezilmasini.

So'zning qudrati, o'rni, shakl, kompozitsiya, uslub, mahorat kabi muammolarga bu qadar nekbin diqqat qaratish Abdulla Qodiriy estetik merosining o'ta nodir jihatlaridir. Bunday yuksak mavqedan turib, nazariy masalalarni tahlil qila olgan adib bevaqt qatag'on qilinmaganida, o'zbek adabiyotini yanada bebaho durdonalar bilan boyitgan bo'lardi.

---

<sup>1</sup> Qodiriy A. Kichik asarlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969. – B. 200.

## **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Hans Bertens* «Literary Theory. The basics». First published 2001, rreface, pages 35, 36, 134.
2. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. Epos. – T.: «Fan», 1991. 2-jild. Lirik. – T.: «Fan», 1992.
3. *Boboyev T.* Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: «O'zbekiston», 2000.
4. *Sulton I.* Adabiyot nazariyasi. – T.: «O'qituvchi», 2005.
5. *Qodiriy A.* Kichik asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969.
6. *Qodiriy A.* «O'tkan kunlar». «Mehrobdan chayon» –T.: «O'qituvchi». 1994.
7. *Normatov U.* Qodiriy bog'i. – T.: «Yozuvchi». 1995.
8. *Tohirov Z.* Ijod laboratoriyasi. –T.: Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013.
9. *Qodiriy A.* Yozuvchi o'z ishi to'g'risida. «Qizil O'zbekiston» gazetasining 14-mart, 60-soni.

## **Mavzuga doir mustaqil ish topshiriqlari**

1. Lirik asarda konflikt va sujet masalasi.
2. Adabiyotda mazmun va shakl birligi.
3. Ijtimoiy g'oya va badiiy g'oya o'rtasida umumiy va farqli jihatlari.
4. Badiiy asarda fabula, sujet va kompozitsiya.
5. Sujet tiplari.
6. Sujet unsurlari.
7. She'riy asarda sujet.
8. Badiiy asarda konflikt muammosi.
9. Konflikt turlari.
10. Badiiy asarda peyzaj.
11. Badiiy asarda portret.
12. Badiiy asarda makon va zamon (xronotop tushunchasi).
13. Kompozitsiya vositalari.



## KEYSLAR BANKI

**Keys 1.** Badiiy konflikt nima? Bu savolga javob topish uchun konflikt soʻzining maʼnosi va obyektini oʻrganiladi. Endi shular asosida konfliktga misol boʻladigan badiiy asardan biror parchani aytib berish va tushuntirish kerak.

### **Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

- keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda);
- asardagi ziddiyatli hodisaning yechimini topish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish);
- Personajlarning ana shu ziddiyatga boʻlgan munosabatini aniqlang (individual holda).

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Badiiy asarda fabula, sujet va kompozitsiya nima?
2. Sujet tiplarini aytib bering.
3. Sujet unsurlarini aytib bering.
4. Sheʼriy asarda sujet qanday tasvirlanadi?
5. Badiiy asarda konflikt muammosi nimada?
6. Konflikt turlarini aytib bering
7. Badiiy asarda peyzaj nima?
8. Badiiy asarda portret nima?
9. Badiiy asarda makon va zamon (xronotop tushunchasi) nimami anglatadi?
10. Kompozitsiya vositalarini sanab oʻting.

### **Test savollari**

1. Bir necha sujet tarmoqlariga ega boʻladigan epik va liro-epik asarlar qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?
  - A. Qasida, ruboiy, mustazod;
  - B. Qissa, felyeton, murabba;
  - C. Masnaviy, roman, doston;
  - D. Hikoya, esse, qita.

2. Voqealar, xarakterlar, kolliziya (to‘qnashuvlar) kulgi, hajv, yumor asosida tasvirlansa, bunday asarlar qanday nomlanadi?

A. Drama; B.

Tragediya; C.

Komediya; D.

Pyesa.

3. Bo‘rini dogi galadin nur qil,

Suv beribon bog‘ni ma‘mur qil..

Ushbu misralarda gap nima haqida boradi?

A. Insoniylik haqida;

B. Ma‘rifatparvarlik haqida;

C. Ochko‘zlikni qoralash haqida;

D. Xalqparvarlik haqida.

4. Quyidagi badiiy vositalardan qaysi biri asardagi dramatismni kuchaytiradi, voqealar rivojiga turtki va keskinlik beradi?

A. Yechim;

B. Badiiy portret;

C. Badiiy konflikt;

D. Peyzaj.

5. Dramatik asarlarda asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, hulqi, xatti-harakati, qiliqlari, intonatsiyasi, sahna manzarasi haqida muallif tomonidan beriladigan izohlar nima deb ataladi?

A. Replika;

B. Remarka;

C. Ramz; D.

Ssenariy.

6. O‘zining umumiy mavzui, yetakchi g‘oyasi, asosiy qahramonlari sujet aloqadorligi bilan bir butunlikni tashkil etuvchi uch mustaqil asar qanday nomlanadi?

A. Diologiya;



- B. Tetrologiya;
- C. Pentologiya;
- D. Trilogiya.

7. Muayyan asar to‘qimasidagi predmet, belgi, chizgi nima deb yuritiladi?

- A. Voqea;
- B. Obraz;
- C. Detal;
- D. Sharoit.

8. Sujetning kirish, boshlanma qismi, asar voqeasi bo‘lib o‘tadigan joy, qahramonlarning konfliktgacha bo‘lgan paytdagi qiyofasi, holatini namoyon etadigan vaziyat, shart-sharoit tasviri ... deyiladi.

- A. Kompozitsiya;
- B. Ekspozitsiya;
- C. Konflikt;
- D. Portret.

9. Badiiy asar sujetida konflikt va harakatning paydo bo‘lishi, boshlanishiga sabab bo‘ladigan voqea ... deyiladi.

- A. Tugun;
- B. Konflikt;
- C. Kompozitsiya;
- D. Voqea rivoji.

10. Asardagi voqealar rivojining yuksak cho‘qqisi ... deb yuritiladi.

- A. Voqea rivoji;
- B. Kulminatsiya;
- C. Yechim;
- D. Ekspozitsiya.

11. O‘lmas Umarbekovning «Yoz yomg‘iri» qissasining sujetini toping.

- A. Assotsiativ sujet;
- B. Xronikal sujet;

- C. Retrospektiv sujet;
- D. Konsentrik sujet.

12. Assotsiativ sujet elementlari yorqin namoyon bo'lgan asarni belgilang.

- A. «Yoz yomg'iri»;
- B. «O'tkan kunlar»;
- C. «Qutlug' qon»;
- D. «Diyonat».

## TARQATMA MATERIAL

**Konflikt** lotincha «conflictus» degan so'zdan olingan bo'lib, «to'qnashish» degan ma'noni bildiradi. Ziddiyat, to'qnashuv hayot taraqqiyotini ta'minlovchi asos bo'lgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli bo'lishining yetakchi vositasidir. Badiiy konflikt roman, qissa, hikoya, doston qahramonlari o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Qahramonlar bir-birlaridan fe'l-atvori, tabiati, maqsad, intilishlariga ko'ra farq qiladi va shunga ko'ra, ular o'rtasida ziddiyat vujudga keladi. Obrazlar o'rtasidagi ziddiyat ham, qahramonlarning o'z ichidagi to'qnashuvlari ham biror-bir voqea tufayli namoyon bo'ladi. Voqealarning qay tarzda kechishi asar mavzusi va g'oyasining ahamiyatini namoyon qilgani singari qahramonlarning qiyofasini ham aniq tasavvur etish imkonini beradi.

---

**Kompozitsiya** lotincha «compositio» so'zidan olingan bo'lib, «tuzilish, qurilish, tarkib» degan ma'noni bildiradi. Bundan anglashiladiki, kompozitsiya badiiy asarning barcha unsurlari bilan uzviy bog'liqdir. Shu ma'noda ham asar mazmuni, g'oyasi, qahramonlari qiyofasi, umuman, asarning ta'sirchanlik darajasi uning kompozitsiyasidan kelib chiqadi. Sujet ham kompozitsiya tarkibiga kiradi.

Sujetning o'zi ham bir qator qismlardan tarkib topgan bo'ladi: **eks-pozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim**. Biroq sujetlar o'z tuzilishiga, namoyon bo'lish tarziga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Istalgan romanni sujetning tarkibiy qismlari bo'yicha tahlil qilish mumkin.



## SHE'R TIZIMLARI

1. She'riy va nasriy nutq haqida.
2. She'rning muallifga daxldorligi.
3. Ritm tushunchasi.
4. Ritmik bo'lak va ritmik vositalar.

**Tayanch so'zlar:** *ritm, bo'g'in, qofiya, radif, turoq, band, sillabik she'r tizimi, metrik she'r tizimi, sillabo-tonik she'r tizimi, tonik she'r tizimi, aruz, barmoq vazni, erkin vazn, yopiq bo'g'in, qisqa bo'g'in, rukn.*

Badiiy ijod nima, ijodkor kim, degan savolga XII asrda yashagan ulug' o'zbek mutafakkirlaridan biri – tarixchi, faylasuf, shoir, hakim Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'ziga xos javob beradi. «She'riyat shunday san'atki, – deydi u «Chahor maqola» asarida, – bu san'at yordamida shoir o'zining tasavvurlarini qo'zg'atib, haqiqiy fikrlarini boshqacha tarzda birlashtirib, kichikni ulkanga, ulkan narsalarni esa kichik narsalarga aylantiradi. Go'zal narsalarga xunuk libos kiydiradi, xunuk narsalarga go'zal qiyofa baxsh etib, yaraqlatib ko'rsatadi. G'azab-nafarat va kishi hissiyotlari kuchi ta'sirida odamlar yo jazavaga tushadilar yoxud g'amginlikka cho'kadilar va shu hollar dunyoda ulug' ishlar-ga sabab bo'ladi» (Mahmudov M. «Talent va ijod falsafasi» asari). To'g'ri, Aruziy bu fikrlarni deyarli o'n asr oldin aytib o'tgan, bundan tashqari, matn orasida «shoir» deya ta'kidlanadi. Biroq yaxshiroq nazar solinsa, «shoir» so'zi o'rniga «adib» yoki «ijodkor» so'zlaridan biriga almashtirish mumkin va bu holatda mutafakkir so'zlarining naqadar haqiqat ekanligiga guvoh bo'lamiz. Tabiiyki, uning aytganlarini to'g'ridan to'g'ri qabul qilib bo'lmaydi, u bunda ijodkorning naqadar ulkan kuchga-ega ekanligini, u asarlari tufayli o'quvchi kayfiyatiga ta'sir etishi mumkinligini alohida ta'kidlamoqda. Chindan, ijodkor real hayotni (yoki o'z fantaziyasini) o'quvchiga ko'zgudagi kabi ko'rsatar ekan, uning ruhiy barqarorligiga ta'sir etadi, kayfiyatini ko'taradi, tushiradi, qandaydir g'oya tomon safarbar etadi – bu albatta ijodi natijasi – asariga mahorat bilan singdirilgan fikrga bog'liq.

She'r so'zlar tizmasidan tarkib topgan misralardan tuzilishi aniq ko'rinib turadi. Chunki so'z va so'zlar she'rda nasriy asardagidan ko'ra bo'lakcha – o'ziga xos tarzda joylashgan bo'ladi. She'rning alohida belgilaridan dastlabkisi **ritm**. Qofiyasiz, misralarida bo'g'inlar miqdori har xil she'rlar bo'lishi mumkin. Biroq ritmsiz she'r yo'q. Ritm – she'rning asosi. Ritm – she'riy nutqning ko'rki. U muayyan vazndagi nutq bo'laklarining misralar, bandlarda ma'lum bir tartibda takrorlanishidan hosil bo'lgan zarbli ohangdorlikdir. Bu zarbli ohangdorlik inson sezgilariga ta'sir qiladi.

*Biz she'r yoki roman yoki pyesa o'qiganimizda, qo'shimcha savollar tug'iladi. Bu nima va kim uchun? Bu nima degani? Nima uchun buning ma'nosi shunday va nima sabablarga ko'ra? Bunday savollar adabiyotning rivojlanishiga sabab bo'ladi.*

Ma'lumki, har bir til o'ziga xos tuzilishga ega bo'ladi. Har bir til ma'lum bir grammatik me'yorlarga asoslanadi. Shunga muvofiq she'r ritmi ohangdorligini muayyan unsurlar vujudga keltiradi. Bo'g'in, turoq, ritmik pauza, vazn ana shunday unsurlardandir.

*Poeziya murakkab ma'nolarni uzatishi lozim. She'riyat shunday bo'lishi kerakki, undagi munosabatlar badiiy adabiyotning boshqa shaklida namoyon bo'lmasligi kerak.*

Bir nafas bilan aytiladigan so'z va so'zning bo'lagi **bo'g'in** deyiladi. **Bo'g'in** nutq tovushlaridan tarkib topadi. Bo'g'in ohangdorlik – ritm hosil qilishi uchun ma'lum tartibda guruhlanishi – misralarda muayyan tartibda izchillik bilan takrorlanishi lozim. Bo'g'inlarning misralarda qat'iy tartibda guruhlanishi esa **turoq** deyiladi.

*Odam zoti / dunyodaki bor,*

*Uning bilan / muhabbatdir yor. (Hamid Olimjon)*

Bu misralarda turoqlanish 4+5 tarzida guruhlangan. Qofiyadosh so'zlar («bor», «yor»)ning vazn jihatdan tengligi (1) musiqiylikni paydo qilgan.

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page x.

<sup>2</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 14.



**Qofiya** she'rni jarangdor qiluvchi, misralarga musiqiy ohang beruvchi muhim unsurdir. U misralar oxirida keladigan ohangdosh soʻzlardir. Biroq, ritm orqali misralarda vujudga kelgan ohangdorlik qofiya tulyli mukammallashadi. Qofiyaning jarangdor boʻlishi she'rning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Ohangdoshlik darajasiga ko'ra qofiyalar **to'liq qofiya** va **och qofiya** bo'ladi. Bir-biriga to'la ohangdosh soʻzlar qofiyadosh bo'lib kelsa, bu **to'liq qofiya** deyiladi.

*Yuksak arg'uvonning uchida hilol*

*Paxmoq bulutlarni etadi nimta.*

*Qaydadir shoir kuylaydi behol:*

– *Ko'nglim ham bu kecha oyday yarimta...* (Abdulla Oripov)

Mazkur satrlardagi *hilol* – *behol*, *nimta* – *yarimta* soʻzlari o'zaro to'la ohangdoshdir. Shuning uchun ular to'liq qofiya hisoblanadi.

Ba'zi she'r misralarida soʻzlardagi aksariyat tovushlar emas, balki ba'zi bir tovushlarga bir xil bo'ladi va ular ma'lum bir ohangdoshlik - ni yuzaga keltiradi. Bunday ohangdosh soʻzlarga **och qofiya** deyiladi.

*Biz Romeo, telba Romeo,*

*Sevib qolgan oshiq Dartanyan.*

*Romanlarda ishqiy sarguzasht,*

*Romanlarda haqiqat tuban...* (A. Qutbiddin. Sen va sen uchun)

*Dartanyan* – *tuban*, *yor* – *mushketyor* soʻzlari «*hilol* – *behol*», «*nimta* – *yarimta*» darajasida ohangdosh emas. Shuning uchun ularni och qofiya deyish mumkin.

**Radif** qofiyadan keyin misralar oxirida takrorlanib keluvchi aynan bir xil soʻz yoki soʻz birikmasidir. Radif arabcha soʻz bo'lib, «otga mingashib kelmoq» degan ma'noni bildiradi. Sharq she'riyatida radif keng qo'llanadi. Jumladan, Alisher Navoiy g'azal, ruboiy, tuyuqlarida ham radiflar ko'p ishlatiladi. Masalan:

*Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,*

*Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*

*Har neniki sevmak ondin ortiq bo'lmas,  
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*

Ushbu ruboiyda «*seni ko'p sevarmen, ey umri aziz*» soʻzlari radif sifatida misralar oxirida takrorlanib kelgan. Radiflar yakka bir soʻz yoki yuqoridagi singari bir necha soʻzdan tashkil topgan ham boʻlishi mumkin.

**Turoq** boʻgʻinlar guruhidan tashkil topadi. Turoqlar guruhidan misralar vujudga keladi. Misralar ham xuddi boʻgʻin, turoqlar singari uyushib, muayyan musiqiylik hosil qiladi. Misralarning bunday birikuvini **band**larni vujudga keltiradi. **Band** misradan koʻra kengroq, koʻlamliroq fikrni anglatadi. Banddagi fikr muayyan tugallikka ega boʻladi. U yaxlit manzarani gavdalantiradi.

**Sheʼr tizimlari.** Jahon adabiyotida toʻrtta sheʼr tizimi, ayniqsa, keng tarqalgan. Bular: **sillabik** (boʻgʻinlar miqdoriga koʻra), **metrik** (turoq, toʻxtam (pauza), takt miqdoriga koʻra), **sillabo-tonik** (boʻgʻin va ohang), **tonik** (ohang) tizimlaridir.

**Sillabik sheʼr tizimi** boʻgʻinlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan oʻzbek xalq sheʼriyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari sheʼriyati ham sillabik sheʼr tizimiga mansubdir.

**Metrik sheʼr tizimi** esa boʻgʻinlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab sheʼriyati shunday xususiyatga ega.

**Sillabo-tonik sheʼr tizimi** boʻlsa, urgʻuli, urgʻusiz boʻgʻinlarning maʼlum tartibda kelishiga asoslanadi. Rus sheʼriyati shundaydir.

**Tonik sheʼr tizimi** misralarda urgʻusiz boʻgʻin qancha boʻlishidan qatʼiy nazar, ritm hosil boʻlishi, urgʻularning bir maromda kelishiga asoslanadi.

Adabiyotni oʻrganish sheʼrning texnik tahlil va strategiyalari bilan chegaralanmaydi. Sheʼrlarni oʻrganishda paradoksal samaralar ahamiyatlidir.

---

<sup>1</sup> *Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 23.*



She'r tizimi xalq tili xususiyatlariga bog'liq hodisa sanaladi. O'zbek tili ifoda imkoniyatlari, grammatik me'yorlari sillabik va metrik she'r tizimiga mos tushadi.

Sharq xalqlari she'riyatida **aruz** va **barmoq vazni** deb ataluvchi she'r tizimi keng tarqalgan. Hozirgi o'zbek she'riyatida esa, ular bilan bir qatorda, **erkin vazn** deb yuritiluvchi tizim ham mavjud.

**Barmoq vazni** turkiy til xususiyatlariga asoslangan she'r tizimidir. Shuning uchun o'zbek xalqining eng qadimgi og'zaki she'riyati namunalari ayni shu vaznda yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit -turk» asaridagi to'rtliklar, xalq qo'shiqlari barmoq vazniga mansub bo'lib, ular, asosan, yetti bo'g'indan tuzilgan, 4+3 shaklida turoqlangan, a-a-a-b tarzida qofiyalangan.

O'zbek xalq dostonlari, masalan, «Alpomish» dostonidagi she'rlar ham, shuningdek, maqollar, hikmatli so'zlar ham barmoq vazniga mansubdir.

**Barmoq vazni** misralarda bo'g'inlarning muayyan miqdoriga va bir xil turoqlarning o'ziga xos tartibda takrorlanishiga asoslangan she'r tizimidir. Misralardagi bo'g'inlar miqdori barmoq bilan sanalgani sababli, mazkur she'r tizimi **barmoq vazni** deyilgan. Barmoq vaznida birinchi misrada bo'g'inlar miqdori va turoqlar tartibi qanday bo'lsa, qolgan misralarda ham aynan shunday bo'ladi. Masalan, Abdulla Ori-povning «Tilla baliqcha» she'ri shunday boshlanadi:

*Tuxumdan chiqdi-yu / keltirib uni  
Shu loyqa hovuzga / tomon otdilar.  
Tashlandiq ushoq yeb / o'tadi kuni,  
Xoru xas, xazonlar / ustin yopdilar.*

*Ba'zilar e'tiroz bildirishlari mumkin, chunki badiiy matnlar bir so-atda yaratilmaydi, uning muallifga daxldorligi kuchli, muallifni matn-dan ajratib bo'lmaydi, deb. Shunday holatlarni kuzatishimiz mumkinki, she'rda muallifning niyatini yaqqol ko'rmaymiz. Bu haqda faqat tah-min qilishimiz mumkin.*

---

1 Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 24.

Barmoq vaznidagi she'rlarda turoq, qofiya, band ritm (zarb)ni vujudga- keltiradigan asosiy unsur hisoblanadi. **Aruz she'r tizimi** esa, Sharq she'riyatida juda keng tarqalgan adabiy hodisalardan sanaladi. U misralardagi **hijo** (bo'g'in)lar miqdori va sifati (qisqa yoki cho'ziqligi)ning qat'iy tartibda kelishiga asoslanadi. Aruz arab tili xususiyatlariga mos she'r tizimi bo'lsa-da, u fors, turk va boshqa sharq xalqlari she'riyatiga ham chuqur kirib borgan. Tabiiyki, u bu jarayonda har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida akslantirgan. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi Sharq mutafakkirlarining she'riy asarlari aruz vaznida yozilgan. Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida «Aruz fani sharif fandur» deydi.

Aruz – murakkab she'riy tizim. Uning nazariy asoslarini o'rganishni dastlab arab olimi Xalil ibn Ahmad binni Umar binni Tamim-ul Basriy (hijriy 174, milodiy 790–791-yilda tug'ilgan) boshlab bergan. Aruz shu olim yashagan vohaning nomidir. Bu voqa kishilari uyni bayt deyishgan. Xalil ibn Ahmad ham she'rlarning ikki misrasini bayt deb atagan.

Misralardagi bo'g'inlarning uzun yoki qisqa, ochiq yoki yopiqligi quyidagicha aniqlanadi:

1. Oxiri undosh tovush bilan tugagan bo'g'in **yopiq bo'g'in** sanaladi. Masalan: *kun, tun, quyosh, oy, yil*. Yopiq bo'g'inlar cho'ziq bo'g'in hisoblanadi. Cho'ziq unlilar ishtirokida yasalgan bo'g'inlar ham cho'ziq bo'g'in deyiladi. Misol uchun: *bo-la, xo-la, o-na*. Cho'ziqlik «–» belgisi bilan ko'rsatiladi.

2. Qisqa unlilar ishtirokida yasalgan ochiq bo'g'inlar **qisqa bo'g'in-lar** hosil qiladi. Masalan: *so-g'i-nib, bor-ga-ni*. Qisqalik «V» belgisi bilan ko'rsatiladi.

3. Ayrim hollarda, aruz vazni xususiyatlari talabiga muvofiq ayrim bo'g'inlar o'zgarishga uchrashi ham mumkin. Masalan, yopiq bo'g'inlar oxiridagi undosh tovush o'zidan keyin kelgan tovushga qo'shilib ketsa, yopiq bo'g'in ochiq bo'g'inga aylanadi.

Aruz vaznida rukn hodisasi bor. **Rukn** misralardagi bo'g'inlarning guruhlanib kelishidir. Aruz vaznida o'n to'qqizta bahrni hosil qiluvchi sakkizta asosiy rukn mavjud. Ular: **foulun, foilun, mafoiylun, foilo-**



**lon, mustaf'ilun, maf'ulotun, mutafoilun, mafoilatundir.** Bu sakkiz rukn o'z paradigma (chizma)siga ham ega. Masalan, foulun ushbu tarzda belgilanadi: V — —.

Rukn bo'g'inlardagi undosh va alif miqdoriga, ularning harakatli, ya'ni «zer», «zabar» yoki «pesh»li bo'lishiga va aksincha, ya'ni harakatsiz bo'lishiga qarab, uch guruhga bo'linadi: sabab, vatad, fosila.

**Sabab** bo'g'indan keyingi eng kichik unsurdir. U bir uzun (*qo'l, non, gul*) yoki ikki qisqa (*yu-zi, ko'-zi, qo'-li*) bo'g'indan tuzilishi kerak.

**Vatad** jamlovchi va ajratuvchi bo'ladi. Jamlovchi vatad bir ochiq, bir yopiq bo'g'inli so'z (*va-tan*) yoki ko'p bo'g'inli so'zlardagi bir ochiq, bir yopiq bo'g'indir.

Ajratuvchi ochuvchi vatad esa bir yopiq, bir ochiq bo'g'inli so'z (*ol-ma*) yoki ko'p bo'g'inli so'zlardagi bir yopiq, bir ochiq bo'g'indir.

**Fosila** bir uzun bo'g'in bilan ikki yoki uch qisqa bo'g'inning birgalikda kelishidir. Fosila ham ikki xil (kichik va katta) bo'ladi. Kichik fosila ikki ochiq (VV) va bir yopiq (—) bo'g'inli so'z (*ti-la-gim*) yoki ko'p bo'g'inli so'zlardagi shu tartibdagi bo'g'indir. Katta fosila esa birinchi, ikkinchi va uchinchi ochiq, oxirgisi esa yopiq bo'g'inli so'zlardir (*so'-ra-ma-gan*).

Aruzda misralarda ruknning ma'lum tartibda takrorlanishidan **bahr** paydo bo'ladi. Aruz she'r tizimida sakkizta asosiy ruknning muayyan tartib bilan takrorlanishidan **o'n to'qqizta** asosiy bahr vujudga kelgan. Bular: **hazaj, rajaz, ramal, vofir, komil, mutaqorib, mutadorik, sare', munsarih, hafif, muzori', mujtas, muqtazab, tavil, madid, basit, jadid, qarib, mushokil.**

O'zbek mumtoz she'riyatida **ramal, hazaj, razaj, mutaqorib**, ayniqsa, keng qo'llangan. Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» devonidagi 2600 g'azalning 1400 dan ko'prog'i **ramal bahrida** (ramali musammani maqsur va mahzufda) yozilgan. **Vofir bahri** talablari o'zbek tili xususiyatlariga to'g'ri kelmagani uchun o'zbek shoirlari bu bahrda she'r yozishmagan.

**Hazaj bahri** mafoiylun ruknining takrorlanishi asosida paydo bo'lgan. Uning uch guruhi (hazaji musamman, hazaji musaddas, hazaji

murabba') mavjud. Hazaji musamman hazaj bahrining o'n olti bo'g'inli vaznidir. Mazkur bahrning o'n ikki bo'g'inli vazni esa hazaji musaddas deb yuritiladi. Sakkiz bo'g'inli vazni hazaji murabba' deyiladi.

**Rajaz bahri** mustaf'ilun ruknining takrorlanishi asosida vujudga kelgan. Bu bahrning ham uch guruhi mavjud: musamman, musaddas, murabba'. Mazkur bahrning o'n olti bo'g'inli vazni razaji musammani solim, o'n ikki bo'g'inlisi razaji musaddasi solim deb yuritiladi.

**Ramal bahri** foilotun ruknining baytlarda va misralarda turlicha takrorlanishi asosida hosil bo'ladi. Uning ham uch guruhi mavjud: musamman, musaddas, murabba'.

Hazaj, razaj, ramal va boshqa bahrlarning har birida ko'pdan-ko'p vaznlar mavjud. Ularning har birini bo'g'in, ruknlari takroriga muvofiq paradigma (chizma)sini belgilash mumkin.

Aruz o'zbek adabiyotida, asosan, mumtoz she'riyatga xos vazn sanaladi. Bu vazn hozirgi paytda o'zbek she'riyatida kam qo'llaniladi. Biroq o'zbek adabiyoti tarixini aruz tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki mumtoz adabiyotimizdagi barcha she'riy janrlar aruz tizimiga mansubdir. Masnaviy, g'azal, muxammas, musaddas, musamman, tarji'band, murabba', ruboiy, tuyuq kabilar aruz she'r tizimiga mansub janrlardir.

**G'azal** arabcha so'z bo'lib, «ayollar bilan suhbatlashishni yaxshi ko'rish», «go'zallikni ta'rif-tavsiflash» degan ma'noni bildiradi. G'azal birinchi bayti o'zaro (a-a), keyingi baytlarining juft misralari matla'ga qofiyadosh bo'lgan she'r janridir. G'azalning birinchi bayti matla' (mabda') – boshlanma, so'nggi bayti maqta' – tugallanma deb ataladi. G'azal besh baytdan o'n baytgacha va undan ko'p baytdan ham iborat bo'lishi mumkin. G'azal tuzilishi jihatidan parokanda va yakpora bo'ladi. **Parokanda** g'azallarda har bir bayt nisbiy mustaqillikka ega bo'ladi. **Yakpora** g'azallar voqeaband yoki **musalsal g'azallar** deb ham yuritiladi. Ularda baytlar bir-biri bilan bog'liq holda keladi. G'azallar mavzu va g'oyasi jihatidan **oshiqona, orifona, rindona, hajviy, yumoristik, axloqiy-ta'limiy, tabiat manzarasiga bag'ishlangan** bo'ladi.

**Masnaviy** arabcha so'z bo'lib, «ikkilik, juft» degan ma'noni bildiradi. Masnaviy ikki misradan tarkib topgan, **a-a, b-b, v-v** va hokazo tarzida



qofiyalanadigan she'r shaklidir. Voqealarni erkin ifodalashga qulay bu janrdan Sharq adabiyotida keng foydalanilgan. Jumladan, Firdavsiyning «Shohnoma»si, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy, Navoiy «Xamsa»lari, Muhammad Solihning «Shayboniynoma»si masnaviy janrida bitilgan. Umuman, muayyan sujetga asoslangan katta hajmli asarlar, xususan, dostonlar, tarjimayi hollar, she'riy tarixlar masnaviy yo'lida yozilgan.

**Musallas** bandlari uch misradan (a -a-a, b-b-a...), **murabba'** bandlari to'rt misradan (a-a-a-a, b- b-b-a...), **muxammas** bandlari besh misradan (a-a-a-a-a, b-b- b-b-a...), **musaddas** bandlari olti misradan (a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a...), **musabba'** bandlari yetti misradan (a-a-a-a-a-a-a, b- b-b-b-b-b-a...), **musamman** bandlari sakkiz misradan (a-a-a-a-a-a-a-a, b-b -b-b-b-b-b-a...), **mutassa'** bandlari to'qqiz misradan (a-a-a -a-a-a-a-a-a, b-b-b- b-b-b-b-b-a...) tarkib topgan she'riy janrlardir (qavs ichida ushbu she'r janrlarining qofiyalanish tartibi ko'rsatilgan). Ma'lumki, band shakl jihatidan she'rning alohida qofiyalanish tartibiga ega bo'lagidir. U she'r mazmunini bosqichma-bosqich, izchil ochib borish vositasidir.

**Tuyuq** shakli bir xil, mazmuni har xil, ya'ni omonim so'zlar asosida yoziladigan to'rt misradan iborat she'riy janrdir. Tuyuqlar, asosan, **ramali musaddasi maqsur bahrida** yoziladi. **Ramal** arabcha so'z bo'lib, «tuyaning tez va bir maromda yurishi» degan ma'noni bildiradi.

**Ruboiy** arabcha so'z bo'lib, «to'rtta» demakdir. Ruboiy ham xuddi tuyuq singari to'rt misradan tarkib topgan. Biroq u shakldosh so'zlarga asoslanmaydi. Ruboiy aruz vaznining **axrab** va **axram** tarmoqlaridagina yaratiladi. U chuqur falsafiy xulosalarni ifoda qiladi. Ruboiy **dubay-tiy**, ya'ni ikki baytli deb ham yuritiladi. Ruboiyning birinchi misrasida biror fikr aytiladi, ikkinchi misrasida shu fikr kuchaytiriladi, uchinchisida unga zid fikr bildiriladi va to'rtinchi misrada shoir o'z xulosasini ma'lum qiladi.

Hozirgi o'zbek she'riyatida aruz va barmoq she'r tizimlaridan farq qiluvchi yana bir she'riy tizim mavjud. Bu she'riy tizimda misralarda bo'g'inlar miqdori tengligi, hijolarning cho'ziq va qisqalik tartibi kabi qoidalarga amal qilinmaydi. Unda misralarda bo'g'inlar miqdori ham, turoqlar tartibi ham, qofiyalanish tarzi ham, bandlarda misralar miqdori

ham turlicha, ya'ni erkin bo'ladi. Bunday she'r tizimi **erkin she'r** tizimi deb yuritiladi. U Yevropa xalqlari she'riyatida, ayniqsa, keng tarqalgan. Erkin vazndagi she'rlarda ham ichki ritm, ichki musiqiylik, muayyan jarangdorlik mavjud bo'lib, bu vaznda ham qator mashhur asarlar yaratilgan. Jumladan, M.Lermontovning «Maskarad» drammasi, A.Griboyedovning «Aqllilik balosi» komediyasi, Nozim Hikmatning «Inson manzaralari» asari erkin vaznda yozilgan. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Mirtemir, Rauf Parfi singari ko'plab o'zbek shoirlari ham bu vaznda qator e'tiborli asarlar ijod qilishgan.

Erkin she'r tizimi xususiyatlari aruz va barmoq vazni singari chuqur o'rganilmagan. Erkin she'r tizimi – alohida mustaqil adabiy hodisa. Chunki u aruz va barmoq she'r tizimidan jiddiy farq qiladi. Mazkur she'r tizimidagi o'ziga xoslik, avvalo, unda turoqlar, misralar, qofiyalar tartibidagi har qanday o'zgarish ma'no talabiga, his-hayajon darajasiga bog'liqligidadir.

Erkin she'r tizimida uch xil she'riy janr mavjud: **erkin, oq, sarbast**. Erkin she'rda turli vazn va turoqdagi satrlar erkin ravishda ishlatiladi. Unda ayrim misralarda so'zlar qofiyadosh ham bo'ladi. **Oq she'r** misralari o'zaro qofiyalanmaydigan, biroq bo'g'inlar miqdori teng bo'lgan she'rdir. Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi oq she'rda yozilgan.

**Sarbast she'r** erkin va oq she'rdan qofiyalanishga asoslanmasligi, misralari turli miqdordagi bo'g'in va turoqlardan tarkib topishi bilan farq qiladi. Erkin she'rda qofiya muayyan o'rin tutadi. Oq she'rda misralar bo'g'ini miqdori bir xil bo'lishiga amal qilinadi. Sarbast she'rda esa qofiya, misralarda bo'g'inlar miqdori tengligi ham bo'lmaydi. Mana shu jihatiga ko'ra ham sarbast she'r erkin, oq she'rdan ko'ra ozodroq. Bu miqyosdagi ozodlik sarbast she'rda fikrni tabiiy, samimiy, zo'riqish, chiranishlarsiz ifoda qilish imkonini beradi. Sarbast she'r erkin va oq she'r singari o'zbek she'riyatida turk va rus she'riyati ta'sirida shakllangan.

O'zbek adabiyotshunosligida hali erkin, oq va sarbast she'rning o'ziga xos xususiyatlari, ular o'rtasidagi farq, tafovut ilmiy jihatdan atroflicha o'rganilmagan.



Biroq XIX–XX asr jahon adabiyotini erkin, oq, sərbast sheʼrlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Chunki bu davr sheʼriyatining eng eʼtiborli asarlari ayni shu sheʼr shakllarida yozilgandir. Sharl Bodler (1821–1867), Uolt Uitmen (1819–1892), Nozim Hikmat (1902–1963), Pab-lo Neruda (1904–1975), Garsia Lorca (1898–1936) kabi XIX–XX asr adabiyoti yirik namoyandalarning mashhur asarlari erkin, oq, sərbast (verlibr) sheʼr shaklida yozilgan.

Ijtimoiy taraqqiyot taʼsiri, tafakkur rivoji natijasida fikrni sərbast, erkin sheʼr shakllarida ifodalashga intilish kuchaymoqda. Hozirgi oʻzbek sheʼriyatida ham shunday jarayon kechmoqda. Bu sheʼr shakllari zamona kishilarining murakkab, ziddiyatlarga toʻla ruhiy kechin-malarini, davr shiddatini, turmushning dolzarb muammolarini tabiiy va taʼsirchan gavdalantirishning eng maʼqul yoʻli sifatida namoyon boʻlmoqda.

### **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar roʻyxati**

1. *Hans Bertens*. «Literary Theory. The basics». First published 2001, rreface, pages X, 14, 23, 24.
2. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. Epos. – T.: «Fan». 1991. 2-jild. Lirik. – T.: «Fan». 1992.
3. *Boboyev T.* Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: «Oʻzbekiston». 2000.
4. *Sulton I.* Adabiyot nazariyasi. – T.: «Oʻqituvchi». 2005.
5. *Hojiahmedov A.* Mumtoz badiiyat malohati. – T.: «Sharq». 1999.
6. *Qutbiddin A.* Sen va sen uchun. – T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1996.

### **Mavzuga doir mustaqil ish topshiriqlari**

1. Aruz vazni: turk aruzi rivojida Navoiy va Boburning oʻrni.
2. Aruz vazni bahrlari.
3. Barmoq vazni.
4. Erkin vazn haqida bahslar
5. Sheʼr tuzilishida vaznning ahamiyati.

## Mavzu yuzasidan savollar

1. Lirika va uning janrlarini aytib bering.
2. She'rdagi musiqiylik nima?
3. Qofiya va vazn haqida ma'lumot bering.
4. Aruz vazni va barmoq vazni nima?
5. She'riy san'atlar turlarini sanab o'ting.
6. Ma'naviy va lafziy san'atlar qaysilar?
7. Nasriy asarda ritm, saj haqida ma'lumot bering.
8. Badiiy tasvir vositalari: sodda va murakkab majozlar deb nimaga aytiladi?
9. She'riy asarda sujet qanday tasvirlanadi?

## Test savollari

1. G'azalning birinchi bayti – matlanning boshqa bir nomi qaysi qatorda berilgan?  
A. Qit'a;  
B. Sadr; C. Mabda';  
D. Muashshar.
2. Qit'ani boshqa she'riy shakllardan ajratib turadigan asosiy belgi nima?  
A. Ikki baytdan iboratligi;  
B. Barcha misralarning o'zaro qofiyalanishi;  
C. a-a, b-b tarzida qofiyalanishi;  
D. a-b-a-b tarzida qofiyalanishi.
3. Arabcha – «otning orqasiga mingashib, ergashib boruvchi» ma'nosini bildiruvchi she'riy unsur qanday nomlanadi?  
A. Qofiya;  
B. Radif;  
C. O'xshatish;  
D. Majoz.



4. Tajnisni qofiya qilib keltirish quyidagi janrlardan qaysi birida asosiy o‘rin tutadi?

- A. Tuyuqda;
- B. Qit‘ada;
- C. Fardda;
- D. Ruboiyda.

5. She‘rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni ta‘kidlash, o‘quvchi e‘tiborini asosiy g‘oyaga jalb etib, shoirning g‘oyaviy niyatini o‘quvchi qalbiga to‘laroq yetkazish maqsadiga xizmat qiladigan va aynan takrorlanadigan yoki so‘zlar birikmasi ...deyiladi.

- A. Radif;
- B. Takror;
- C. Qofiya;
- D. Tajnis.

6. Devon tuzish an‘anasiga binoan qaysi janr alifbo tartibida devonga birinchi kiritiladi.

- A. Ruboiy;
- B. G‘azal;
- C. Tuyuq;
- D. Muxammas.

7. O‘zbek mumtoz adabiyotida eng kichik janr atamasi qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- A. Bag‘ishlov;
- B. Tarkibband;
- C. To‘rtlik; D.
- Fard.

8. Ruboiy janri o‘zbek mumtoz adabiyotida quyidagi vaziyatlardan qaysi birida yozilgan?

- A. Ramali musammani maqsur;
- B. Hajaz bahrining axram va axrab shajarasida;

- C. Hajazi musaddasi mahzuf;
- D. Rajazi musammani solim.

9. O‘zbek mumtoz adabiyotida voqeaband she’riy asarlar bitiladigan janrni belgilang.

- A. Musaddas;
- B. Muvashshah;
- C. Masnaviy;
- D. G‘azal.

10. Tuyuq janri quyida ko‘rsatilgan aruz vaznlaridan qaysi birida yozilgan?

- A. Foilotun, foilotun, foilun;
- B. Mafoiylun, mafoiylun, foilun; C. Mustaf’ilun, mustaf’ilun, faulun; D. Faulun, faulun, faulun, faul.

11. Ruboyi xosa qanday qofiyalanadi?

- A. a-a-a-b;
- B. a-a-b-a;
- C. a-a+b-b;
- D. a-b-a-b.

12. Mumtoz she’riyatda she’riy asarning oxirgi bayti qanday nomlanadi?

- A. Qo‘fiya;
- B. Radif;
- C. Maqta’;
- D. Matla’.

13.«Dubaytiy» atamasi qaysi lirik janr atamasi bilan bir qatorda qo‘llanadi?

- A. «Ruboiy» atamasi bilan bir qatorda;
- B. «G‘azal» atamasi bilan bir qatorda;
- C. «Fard» atamasi bilan bir qatorda;



D. «Qit'a» atamasi bilan bir qatorda.

14. Arabcha «qism», «bo'lak», «parcha» ma'nolarini anglatadigan lirik janr qanday nomlanadi?

- A. Ruboiy;
- B. To'rtlik;
- C. Qit'a; D.
- G'azal.

15. Taronai ruboiyning qofiyalanish tartibi qanday?

- A. a-a-b-a;
- B. a-a-b-a;
- C. a-a-b-b;
- D. a-a-a-a.

16. Quyidagi javoblardan qaysi birida a-a, b-a, v-a tarzida qofiyalanuvchi janrlar to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ruboiy, tuyuq;
- B. Fard, qit'a;
- C. Masnaviy, murabba';
- D. G'azal, mustazod.

17. Mumtoz adabiyotimizda ichki qofiyalarga ham ega bo'lgan g'azal qanday nomlanadi?

- A. Tarji'band;
- B. Murabba';
- C. Musajja';
- D. Hajaz.

18. Mumtoz nazmdagi janrlardan qaysi biri bevosita turkiy adabiyotda vujudga kelgan?

- A. Qit'a;
- B. Tuyuq;
- C. Ruboiy;
- D. G'azal.





19. Mumtoz adabiyotimizga xos she'r tuzilish (band)ni bildirgan so'zni toping?

- A. Epigramma;
- B. Masnaviy;
- C. Oq she'r; D. Saj'.

20. Faqat mumtoz she'riyatda qo'llangan she'riy janrlarni ko'rsating?

- A. G'azal, ruboiy, tuyuq;
- B. Muxammas, tarji'band, sonet;
- C. Musaddas, ruboiy, ballada; D. Fard, qit'a, roman.

### TARQATMA MATERIALLAR





## ADABIY TUR VA JANRLAR

1. Epik turning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Epik tur janrlari.
3. Lirik turning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Lirik qahramon tushunchasi.
5. Dramatik turning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Dramatik janrlar haqida.

**Tayanch so'zlar:** *janr, epos, roman, qissa, ocherk, novella, pamphlet, felyeton, lirika, drama.*

*Shakl va tuzilmasiga ko'ra asarlar o'ziga xosdir. San'at uchun shakl muhim. Badiiy vositalar shaklning o'ziga xosligini namoyon qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.*

Epik, lirik va dramatik tur ham inson aql-tafakkurining o'ziga xos yaratuvchanlik mahsulidir. Ular inson dunyosini so'zda suratlantirish, namoyon etish borasida uzoq izlanishlar oqibatida erishilgan natijadir.

Inson tafakkurining bu kashfiyoti mustahkam zaminga asoslangani uchun ham Aristotel (mil.avv. 384–322 -yillar) «Poetika» asarida so'z san'ati asarlarini uch tur – **epos, lirika, dramaga** bo'lib sharhlaydi.

«**Janr**» fransuzcha «genre» so'zidan olingan bo'lib, «tur», «jins» degan ma'noni anglatadi. Bu termin dastlab san'at va adabiyot atamasi sifatida XVI asrda Fransiyada qo'llana boshlagan. Adabiy janr asarlarning kompozitsion qurilishi, tasvirlash yo'llari, vositalari, bayon usullari, hodisalarni qamrash ko'lamiga ko'ra ko'rinishidir. Janr o'zgaruvchan, boyib boradigan hodisadir. Ayni paytda, u ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy taraqqiyot jarayonida iste'moldan qolib ketishi mumkin bo'lgan o'ziga xoslikdir.

«**Epos**» deganda hozir nasriy asarlar tushuniladi. Roman, qissa, hikoya, masal, ertak kabi janrlar epik turga mansub asarlar deyiladi. **Epos** yunoncha «epos» so'zidan olingan bo'lib, «so'z», «nutq», «hikoya» degan ma'noni anglatadi. Bu atama keng va tor ma'noda qo'llanadi.

---

*Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 53.*

Epos keng ma'noda voqeaband asardir. Bundan ayonki, she'riy yo'lda yozilgan asar ham epos bo'lishi mumkin. Voqealarni hikoya qilish us-tuvor bo'lgan eposda hodisalarni bayon etish shakli va usullari davr o'tishi bilan o'zgarib, boyib borgan. Qadimgi epik asarlarda voqealar o'tgan zamon shaklida ifodalangan bo'lsa, hozirgi roman, qissa, hiko-yalarda hozirgi yoki o'tgan zamonda boshlanib, ayni paytda ham da-vom etayotganday yoki yana boshqacha tarzda naql qilinadi. Epik asar-lar voqealarni aks ettirish jihatidagina emas, balki inson ruhiy olamini chuqur tahlil qilishi bilan ham yangi imkoniyatlarni namoyon etmoqda.

**Roman** asli fransuzcha **roman** so'zidan olingan. Roman tillarida yozilgan asarlar shunday deb yuritilgan. Keyinchalik, ayni shu tillarda yaratilgan, yirik hajmli, katta sujetga asoslangan asarlar ham roman deb atala boshlagan. Masalan: Fon Eyshenbaxning «Tristan va Izol-da», Petronining «Satirikon» asarlari roman deyilgan. Chunki bu asar-larda ko'plab qahramonlarning hayoti, sarguzashtlari bayon etilgan. Bokkachchoning- «Dekameron» asarida o'nlab qahramonlarning kech-mish-kechirmishlari naql qilingan. Hikoyalardan tashkil topgan ushbu asar ko'p tarmoqli sujetdan iborat bo'lgani uchun «roman» deb yuri-tilgan. XII–XIII asrlarda fransuz, italyan, portugal – umuman, roman tillarida yozilgan kichik hajmli hikoyalar ham «roman» deb atalgan.

Romanlar mavzusi, qamrab olingan voqealar ko'lamiga ko'ra bir necha xillarga bo'linadi. Jumladan, **tarixiy roman, falsafiy roman, fantastik roman, sarguzasht roman, ijtimoiy-siyosiy roman, avto-biografik roman** kabilar. Biroq tarixiy romanda falsafiy mushohada-lar yoki avtobiografik romanda ijtimoiy-siyosiy voqealar tahliliga keng o'rin berilgan bo'lishi mumkin. Shu boisdan, romanlarni mavzusiga ko'ra guruhlarga ajratish nisbiy bo'ladi.

Romanlarning yana bir turi borki, ular **dilogiya, trilogiya, tetra-logiya, pentalogiya** deb yuritiladi. Qahramonlar hayoti ikki kitobda ko'rsatilgan asarlar **dilogiya**, uch kitobda ko'rsatilgan asarlar **trilogiya**, to'rt kitobdan iborat bo'lsa **tetralogiya**, besh kitobdan iborat bo'lsa **pentalogiya** deyiladi.

**Qissa** romanga nisbatan qamrov doirasi torroq asardir. Shuning uchun V. Belinskiy: «Povest ham romanning o'zginasidir, faqat kichik



hajmdadir, asarning hajmi esa mazmunning hajmi va mohiyatiga qarab belgilanadi», deydi (V. Belinskiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zdamnashr, 1985. – B. 179). Povest o‘zbek adabiyotshunosligida «qissa» deb yuritiladi. Qissada bir-ikki qahramon hayotidagi eng muhim voqealar ko‘rsatilgan, asosiy diqqat bosh qahramon xarakterini ochish- ga qaratilgan bo‘ladi. Qissa janri Sharq adabiyotida qadimdan mavjud bo‘lgan. Ularning aksariyati diniy mavzuga bag‘ishlangan. «Chor dar-vesh», «Ibrohim Adham» qissalari, ayniqsa, mashhur bo‘lgan. Nosi-riddin Rabg‘uziyning «Qissasul anbiyo» asari ham payg‘ambarlarning ilohiy kitoblarda zikr qilingan hayotiga asoslangan.

Roman janrining shakllanishiga asos bo‘lgan **hikoya** esa qissadagidan ko‘ra kichik bir voqeani ma‘lum qilishi, shu hodisa ichidagi bitta qahramonning dunyosini ko‘rsatishi bilan farq qiladi. Hikoya muayyan bir holat, hodisa orqali qahramonning ichki qiyofasini, fe‘l-atvorini akslantiradi. Hikoya «novella» deb ham yuritiladi. «**Novella**» italyan-cha so‘z bo‘lib, «yangilik» degan ma‘noni bildiradi.

**Ocherk** ham xuddi hikoya, qissa, roman singari epik turga mansub janr hisoblanadi. Ocherk ruscha «ocherkat» so‘zidan olingan bo‘lib, «tasvirlash» degan ma‘noni bildiradi. **Hikoyada badiiy to‘qima asosiy o‘rin tutsa, ocherk hujjatlilikka asoslanishi bilan undan farq qiladi.** Ocherkda muallif haqiqatan bo‘lib o‘tgan, o‘zi kuzatgan, bilgan, eshitgan, aniq asosli hodisalarni ma‘lum qiladi. Ocherk hikoya, qissa, romandan ko‘ra hayotning muayyan muammolarini aniq ko‘rsatib beradi. Barchaning e‘tiborini mavjud holatga jalb etadi.

**Pamflet** ham epik turga mansub janrlardan biri sanaladi. Pamflet inglizcha «pamphlet» so‘zidan olingan bo‘lib, «qo‘ldagi varaq» degan ma‘noni bildiradi. Bu janrdagi asarlar ko‘proq muayyan ijtimoiy hodisani fosh etish, tanqid qilishga asoslanadi. Sho‘ro hukmronligi davrida yozuvchilar xususiy mulkka asoslangan tuzum – kapitalizmni qoralab, pamfletlar- yozishgan. Bundan maqsad, kapitalistik davlatlar ijtimoiy tuzumini yomon ko‘rsatish bo‘lgan. Xususiy mulk hukmron mamlakatlarda kishilar- pul bandasiga aylanadi, odamgarchilik, mehr-shafqat barham topadi, pul-boylik hamma narsani hal qiluvchi kuch sanaladi – bu insoniyat uchun g‘oyat zararlidir degan g‘oyani kishilar ongiga

singdirishga harakat qilingan. M.Gorkiy «Sariq iblis shahri» pamfletida Amerika hayotidagi kamchilik, nuqsonlarni ko'rsatgan. U pul, boylik, oltinni «sariq iblis» deb atagan.

**Felyeton** ham xuddi pamflet singari ko'proq tanqid qilishga asoslangan epik turga mansub janr hisoblanadi. Felyeton fransuzcha «feuille-ton» so'zidan olingan bo'lib, «varaqa» demakdir. Bu so'z dastlab Fran-siyada 1800-yilda qo'llana boshlagan. O'shanda gazetalarning modalar,- teatr reklamalari, e'lonlar chop qilingan qo'shimcha alohida varaqalari «felyeton» deb yuritilgan. Keyinchalik, reklama va e'lonlar qo'shimcha alohida varaqada emas, gazetalar sahifalarining bir burchagida- beriladigan bo'lgan va gazetaning o'sha rukni «felyeton» deyilgan.

Felyeton pamfletdan aniq voqeaga bag'ishlangani, unda aniq kishilar faoliyati dalillar asosida yoritilishi bilan farq qiladi. Felyetonlar ijobiy mazmunda ham, salbiy-hajviy, tanqidiy yo'nalishda ham bo'lishi mumkin. Biroq, odatda, salbiy-hajviy, tanqidiy yo'nalishdagi felyetonlar ko'proq yoziladi. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad kabi adiblar dolzarb mavzularda qiziqarli felyetonlar yaratishgan.

Lirik turdagi asarlar ham xuddi nasriy va dramatik asarlar singari mavzu yo'nalishi, ifoda uslubiga ko'ra guruhlarga bo'linadi: intim lirika, publitsistik lirika, hajviy lirika.

*Ingliz -amerika an'analarida tarbiyalangan o'quvchilar, kitobxonlar shakl va tuzilmalarga ajratib o'qishda qiynaladi. O'quvchi she'rnini o'qiganda ta'sirlanishi muhim. Bu ma'noda, o'quvchi shaklni his qilmasligi kerak.*

Ularni sharhlashdan avval «lirika» termini xususida to'xtalish joiz. **Lirika** yunoncha «lyircos» so'zidan olingan bo'lib, «lira jo'rligida aytish» demakdir. Lira esa cholg'u asbobidir. Ma'lumki, she'riy asarlar o'qilganida, aytilganida musiqiy ohang anglashiladi. Bu misralarda so'zlarning qofiyadoshlik hosil qilishidan kelib chiqadi. Kishilar o'z his-tuyg'ulari, dard-hasratlarini ifoda etgan terma, qo'shiqlar ohangdorligini yanada kuchaytirish maqsadida musiqa asboblarini qo'llaganlar.

1 Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 53.



*Biz she'r yoki roman, yoki pyesani o'qiganimizda, qo'shimcha savollar tug'iladi. Bu nima va kim uchun? Bu nima degani? Nima uchun buning ma'nosi shunday va nima sabablarga ko'ra? Bunday savollar adabiyotning rivojlanishiga sabab bo'ladi.*

**Intim lirika** shaxsiy kechinmalar izhoridir. Inson kechinmalarining aksariyat qismini vafodor yor, do'st, hamdard izlash tashkil etadi. Har bir odam hamisha haqiqiy hamdardga ehtiyojmand bo'ladi. Intim lirika ana shu holatni ifoda etadi. Kishi turli kayfiyatga tushishi mumkin. Uning bu holatdagi dard, iztirobi, sevinch-shodligi kimnidir qo'msash, kimdandir ranjish bilan bog'lanadi. Alisher Navoiyning «Kecha kelgumdir debon...», Boburning «Charxning men ko'rmagan...», G'afur G'ulomning «Sog'inish», Abdulla Oripovning sevgi-muhabbat, ona haqidagi she'rlari intim lirika namunalaridir.

**Publitsistik lirika** hayotning ijtimoiy-siyosiy hodisalariga munosabat bildirish asosida maydonga keladi. Turmushning dolzarb muammolariga kishilar e'tiborini jalb etish publitsistik lirika mohiyatini tashkil etadi. G'afur G'ulomning «Sen yetim emassan», Hamid Olimjonning «Qo'lingga qurol ol», Zulfiyaning «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» she'rlari publitsistik she'r sanaladi. Bunday she'rlarda chaqiriq, da'vat ohanglari asosiy o'rin tutadi. Publitsistik she'rlarda muayyan ijtimoiy-siyosiy holat, muammo alohida ta'kidlanadi.

**Hajviy lirik asar** larda turmushdagi, kishilar fe'l-atvoridagi kamchilik, qusurlar ma'lum qilinadi. Ularda illatlardan xalos bo'lishga chaqirish asosiy maqsad bo'ladi. Odamlar fe'l-atvoridagi kamchiliklarni tanqid qilish qadimdan adabiyotning asosiy mavzularidan biri bo'lib keladi. Alisher Navoiy, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy kabi o'zbek shoirlari ijodida riyokorlik, tamagirlik kabi illatlarni keskin tanqid qiluvchi she'riy asarlar alohida o'rin tutadi. Alisher Navoiy dinni niqob qilib olgan xudbin, manfaatparast shayxlarni, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy tamagir, kishilarni xo'rlash, tahqirlashdan toymaydigan amaldorlarning chirkin kirdikorlarini masxaralaydi.

---

1 Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page X.

*Ba'zi she'rlarni o'qib, uning muallifi kim ekanligini bila olmaymi: Chunki she'rda mualliflik pozitsiyasi yaqqol emas. Yaxshi she'riyat vaqt va makon bilan bog'liq bo'lmaydi. She'r bunday chegaralardan tashqarida. She'r insonning o'zgarmas, muqim holatini aks ettiradi.*

Yevropa adabiyotida keng tarqalgan sonet janri dastlab XIII asr-da Italiyada shakllangan. **Sonet** italyancha «sonare» so'zidan olingan bo'lib, «jaranglamoq» degan ma'noni bildiradi. Sonet **o'n to'rt misradan** tarkib topgan. Sonetlar asosan a-b-b-a – a-b-b-a – v-v-g – d-g-d tarzida qofiyalanadi. Boshqa ko'rinishda qofiyalangan sonetlar ham uchraydi. Sonetning **birinchi qismi ikki to'rtlik** (ya'ni sakkiz misra), **ikkinchi qismi ikki uchlik** (ya'ni olti misra) bo'lishi lozim. Birinchi qism katren, ikkinchi qism terset deb ataladi.

Sonetning dastlabki bandida fikr rivojlanib borishi, ikkinchi bandda esa bu fikr muayyan xulosa bilan yakunlanishi kerak.

O'n beshta sonetdan tarkib topgan she'riy majmua «**sonetlar gulchambari**» deb yuritiladi. Bunda birinchi sonet oxirgi misrasidan ikkinchi, ikkinchi sonet so'nggi misrasidan uchinchi sonet boshlanadi va hokazo tarzda davom etadi. Sonetlar guldastasining oxirgi – o'n beshinchi soneti **magistral** deb nomlanadi. U o'n to'rt sonetning birinchi misralaridan tashkil topgan bo'ladi.

**Qo'shiq** lirik turning eng qadimgi janrlaridan biridir. Ehtimol, xalq badiiy ijodi aynan qo'shiqdan boshlangandir. Chunki qo'shiqda so'z ham, musiqa ham, raqs harakatlari ham mavjud. Qo'shiq azaldan kishilarning hamrohi bo'lib kelgan. Chunki u to'y, aza, bayramlarda ham, biror bir ish bilan shug'ullanayotgan kezlarda ham ijro etilgan. Qo'shiqlarda kishilarning quvonch-shodliklari, dard-hasratlari o'z ifodasini topgan. Adabiyot folklordan boshlangan bo'lsa, folklor aynan qo'shiqdan paydo bo'lgan. Qo'shiqlar katta hajmli, voqeaband dostonlarning maydonga kelishiga ham zamin yaratgan.

Adabiyotning asosi bo'lgan qo'shiqlar mavzulariga ko'ra, **mehnat qo'shiqlari, mavsum qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, alla, sevgi-muhabbat qo'shiqlari, qahramonlik-vatanparvarlik qo'shiqlari** kabi turlarga bo'linadi.

---

1 Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 24.



**Termalar** o‘zbek xalq qo‘shiqlarining keng tarqalgan turlaridan biri sanaladi. Lirik kayfiyat ustuvor bo‘lgan termalar ko‘proq to‘y marosimlarida ijro etiladi.

**Rus chastushkalari** ham xalq qo‘shiqlarining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Ularda hajviy ohang kuchli bo‘ladi.

**Marsiya** – biror kishining vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirib yoziladigan she‘riy janr. Alisher Navoiy ham ustoz Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan o‘z qayg‘usini izhor qilib, marsiya bitgan. Alisher Navoiy vafot etganida esa tarixchi Xondamir va mavlono Sohib Dorolar marsiyalar yozishgan. Abdulla Oripovning G‘afur G‘ulom xotirasiga bag‘ishlangan «Alvido, ustoz» she‘ri ham marsiyadir.

To‘y marosimlarida ijro etiladigan yor-yor, lapar ham qo‘shiq turlaridan biridir. **Yor-yor** qo‘shiqlari nikoh to‘ylarida, qizlarni kuyov xonadoniga kuzatish oqshomlarida ijro etiladigan qadimiy qo‘shiqdir. Bu qo‘shiq xalqning milliy an‘ana, urf-udumlarini o‘ziga xos tarzda akslantiradi.

**Laparlar**, asosan, qiz va yigitning bir-biriga dil izhori tarzida aytadigan qo‘shiqlaridir. Uning raqs harakatlari uyg‘unligida ijro etiladigan ko‘rinishi ham mavjud. Bu qo‘shiq turi ohangdorligi va quvnoqligi bilan e‘tiborni tortadi.

**Alla** onaning farzandiga tilaklari, pand-nasihatlari, orzu-umidlarning izhoridir. Allalar dardli, hazin ohanglarga yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Allada ijro etuvchining ichki dunyosi, iztirob-armonlari akslanib turadi. Alla tinglagan, alla aytgan kishilarning ko‘ngli muloyim, odamlarga mehribon bo‘lishadi. Alla farzandlar qalbida mehr urug‘ini ulg‘aytiradi.

Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalib kelgan **qasida** ham lirik turga mansub janr sanaladi. Bu she‘riy janrga mansub asarlar, ko‘pincha, mashhur shaxslarga atab yoziladi. Ularning fazilatlari madh etiladi. O‘zbek shoiri Sakkokiy Mirzo Ulug‘bekni sharaflab, to‘rtta qasida bitgan. U Arslon Xo‘ja Tarxonga atab ham to‘rtta qasida yozgan. Sakkokiy, shuningdek, temuriyzoda Xalil Sultonga va Xoja Muhammad Porsoga ham bittadan qasida bag‘ishlagan. Alisher Navoiyning «Hiloliya» asari uning Husayn Boyqaroga bag‘ishlagan qasidasidir.

Yevropa adabiyotida keng tarqalgan oda ham qasidaga o'xshaydi. Oda yunoncha «oda» so'zidan olingan bo'lib, «qo'shiq» degan ma'noni bildiradi. Oda ham xuddi qasida singari biror kishini sharaflashga yoki biror-bir voqeani ulug'lashga bag'ishlanadi. Ularda ham vatanparvarlik, qahramonlik, saxovatpeshalik madh etiladi. Biroq, maqtovruhidagi odalar bilan bir qatorda yig'i va o'yin odalari ham bo'ladi.

**Tarje'band** Sharq she'riyatidagi yirik she'riy janrlar sirasiga kiradi. Tarji'band har bandi o'n to'rt-o'n olti misradan iborat, har biri nisbiy mustaqillikka ega o'n-o'n bir banddan tashkil topgan bo'ladi. Tarji'band bandlari g'azal tarzida (a- a, b-a, v-a, g-a...) qofiyalanadi. Har bir bandning so'nggi ikki misrasi o'zaro qofiyalanib, ana shu bayt barcha bandlar oxirida aynan bir xilda naqarot bo'lib takrorlanadi. Alisher Navoiy, Nodira kabi ijodkorlar devonida tarji'bandning go'zal namunalari mavjud.

**Tarkibband** ham yirik hajmli bo'lishi, qofiyalanish tarzining g'azalga o'xshashligi bilan tarji'bandga o'xshaydi. Biroq, u tarji'banddan birinchi band so'nggi baytning har bir band oxirida takrorlanmasligi bilan farq qiladi. Xuddi tarji'band singari mustaqil bandlardan tarkib topadigan tarkibbandning har bir bandning so'nggi bayti o'zaro qofiyadosh bo'ladi.

Tadqiqotlarda «liro-epik» termini qo'llaniladi. Doston, poema, ballada liro-epik turga mansub janrlar deyiladi. Chunki bu janrlardagi asarlarda hayot hodisalari g'azal, tuyuq, ruboiy kabilardan keng ko'rsatilgan, ularda ma'lum bir voqea bayon etilgan bo'ladi. Doston, poema, ballada ma'lum voqelikni xuddi roman, qissa, hikoyaga xos bayon qilish tarzi bilan epik asarga o'xshasa, muallif kechinma, his-tuyg'ulari izhorining keng o'rin egallashi bilan xuddi lirik asarday taassurot qoldiradi. Doston, poema, balladaning bu xususiyati ham adabiy turlar yaxlit bir hodisa ekanligi, ular o'rtasiga Xitoy devori tiklab qarash nojoiz ekanligidan dalolat beradi.

«Doston» va «poema» terminlari o'zbek adabiyotshunosligida, ko'pincha, bir-birining muqobili sifatida qo'llanadi. Bu unchalik to'g'ri emas. Chunki dostonlar masnaviyda yozilgan, ularda nasriy parchalar ham mavjud bo'ladi. **Poema** yunoncha «poiemi», «poiema» so'zidan



olingan bo‘lib, «ijod qilmoq, ijod» degan ma‘noni bildiradi (o‘zga til-lardan kirib kelgan so‘zlarning o‘zbekchada qanday ma‘no anglatishini darrov bilging keladi. Lekin doimo ishlatib keladigan o‘z tilingga oid «doston» singari so‘zlarning qanday paydo bo‘lgani, etimologiyasi, alohida so‘z sifatida qanday ma‘no anglatishi haqida ko‘p ham o‘ylab ko‘rmaysan kishi. Bu ham so‘zning sir-sinoatlaridan biri bo‘lsa ke-rak...).

Ilk dostonlarda afsonaviy qahramonlarning jasorati hikoya qilingan. Yozma adabiyotdagi poemalarda ham ma‘lum hodisalarni bayon etish asosiy o‘rin egallagan. «Xamsa» dostonlarida ham, Hamid Olimjon-ning «Zaynab va Omon» asarida ham muayyan qahramonlarning sar-guzasht, kechinmalari haqida so‘z yuritilgan.

She‘rda, yoki umuman badiiy asarda detallar bo‘ladi, biroq ular ik-kilamchi ahamiyatga ega.

**Ballada** italyanча so‘z bo‘lib, «raqsga tushish» degan ma‘noni bil-diradi. Raqsga tushishi chog‘ida aytilgan o‘zbekcha yallaga o‘xshagan qo‘shiq-lar ballada deb atalgan. O‘rta asrlarda jamoa bo‘lib aytilgan la-parlar ham fransuz, ispan, italyan adabiyotida «ballada» deb yuritilgan. Bu ballada janrining dastlab xalq og‘zaki ijodida paydo bo‘lganidan dalolat beradi. Balladaning doston, poemadan farqli jihati, unda biror bir voqea boshidan oxirigacha batafsil ma‘lum etilmasdan, qahramon hayotidagi eng dramatik holatning jo‘shqin lirik kechinmalar uyg‘un-ligida bayon qilinishidadir. Hamid Olimjon «Roksananing ko‘z yosh-lari» balladasida qahramonining boshiga tushgan fojeali voqeani izchil tasvirlab bermaydi. Soirning «Jangchi Tursun» balladasida ham uning jang maydonida qattiq qo‘rquv ichida turgan holati bayon qilinadi. Shoir har ikki balladasida qahramonlarining bir ruhiy holatdan ikkinchi ruhiy holatga o‘tishi, ularning harakat, faoliyatida keskin o‘zgarishlar ro‘y berganini gavalantiradi.

**Drama** turiga mansub barcha asarlar ham qahramonlar harakati va ruhiy holatini ko‘rsatishga asoslangan bo‘ladi. Drama so‘zi yunoncha «drama» so‘zidan olingan bo‘lib, u «harakat» degan ma‘noni bildiradi. Drama turiga mansub asarlarda qahramonlar kayfiyati, qarashlaridagi

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 24.

o'zgarishlar ularning dialog, monologida aks etadi. Bu dialog va monologlar muayyan hodisani keng gavyalantirishi bilan epik turga mansub asarlarga, voqealarni faqat qahramonlar nutqi orqali ma'lum qilish bilan esa lirik asarlarga o'xshaydi. Hayotni badiiy aks ettirishning ikki turiga xos sifatlarni o'zida mujassamlashtirgani bois drama turiga mansub asarlar so'z san'atining yuksak cho'qqisi deb ta'riflanadi.

Drama asarlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ularning sahnada ijro etilishidir. Bu turdagi asarlar sahnada ijro etilgandagina to'laqonli ta'sirchanlik kasb etadi.

Dramaning sahna san'ati sifatida dastlab qaysi xalq madaniyatida paydo bo'lgani aniq ma'lum emas. Chunki drama san'atning yuksak namunasi, eng ommabop tomosha turi sifatida barcha xalqlar madaniyatida azaldan mavjud bo'lgan. Biroq u har xil shakl, ko'rinishda bo'lgan. Sharqdagi qiziqchilar, masxarabozlar tomoshalari ham aslida o'ziga xos drama asari sanaladi. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidagi «Qiziqqlar» bobida muqallid, ya'ni taqlid qiluvchilarning keng maydon, bozor joylarda qiziqchilik qilib, tomosha ko'rsatgani ma'lum qilinadi. Qiziqchilarning bu ko'rsatgan tomoshalari ham dramaning o'ziga xos ko'rinishidir.

Drama turiga mansub asarlar ham tanlangan mavzusi va uni yori-tishiga qarab janrlarga bo'linadi. Bular: **drama, komediya, tragediya** janrlaridir. Ular muayyan umumiyliklarga va ma'lum bir o'ziga xoslik-larga ega. Masalan, fojeliqni ko'rsatish asosiy o'rin tutgan tragediyada komediyaga xos kulgili holatlar bo'lishi yoki drama janridagi asarlarda ham qahramonlar o'lishi, olishuvlar, qotilliklar namoyon qilinishi mumkin.

Drama turiga mansub janrlar pyesa deb ham yuritiladi. **Pyesa** fransuzcha «piese» so'zidan olingan bo'lib, «butun», «ulush» degan ma'noni bildiradi. Pyesa drama, komediya, tragediyaning umumiy atamasidir.

**Drama** yunoncha «drama» so'zidan olingan bo'lib, «harakat» demakdir. Bu janrga mansub ilk asarlar dastlab turli xalq marosimlarida ijro qilingan. Xalq marosimlari drama janri vujudga kelishiga poydevor bo'lgan. Hindiston, Xitoy, Yunonistonda qadim-qadimdan marosimlarda sahna tomoshalari ko'rsatilgan. Hozirgi tasavvurdagi drama asarlarining



ilk ko‘rinishlari esa, Yevropada shakllangan. Bu mamlakatlarda sahna san‘ati, ayniqsa, Uyg‘onish davrida rivoj topgan. V. Shekspir (1564–1616), Lope de Vega (1562–1635) kabi adiblarning dramalari keng shuhrat qozongan.

Drama janridagi asarlarda komediya va tragediya xususiyatlari o‘ziga xos tarzda umumlashadi. Chunki unda jiddiy konfliktga asoslangan voqealar qahramonlarning ham kulgili, ham fojeali holatlarini gavdalantirish orqali ko‘rsatiladi. Umuman, drama asarlari ijobiy va salbiy kuchlar orasidagi kurashni namoyon etishga asoslanadi. Hamzaning «Paranji sirlari», Uyg‘un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» dramasida ham qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyat mavjud hayot haqiqatiga mos gavdalantiriladi.

**Komediya** yunoncha «comos» – «quvnoq kishilar (olomon)» va «oide» – «qo‘shiq» so‘zlari birikuvidan yasalgan so‘zdir. Bu janrga mansub asarlarda voqealar qahramonlarning kulgili fe‘l-atvorlari, xatti-harakatlarida ko‘rsatiladi. Hayotning muayyan hodisalarini kulgili tarzda namoyon etish komediyaning asosiy xususiyati sanaladi. Xalq tomoshalari komediyaning paydo bo‘lishi uchun ham ilk asos hisoblanadi. Sharq xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi marosimlarida qiziqchilar, muqallidlar turli kulgili tomoshalar namoyish etishgan. O‘sha kulgili tomoshalar komediyaning o‘ziga xos bir ko‘rinishidir. Qadimgi yunonlar ham o‘z marosimlarida turli kulgili tomoshalar ko‘rsatishgan.

**Tragediya** «tragos» – «echki» va «ode» – «qo‘shiq» so‘zlaridan olingan.

Tragediyada keskin, murossasiz ziddiyatlarni ko‘rsatish, qahramonlar taqdiridagi fojealarni akslantirish, hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy muammolarini falsafiy tahlil qilish asosiy o‘rin tutadi. Ushbu janrning xuddi quvnoq tomoshaday «tragediya – echki qo‘shig‘i» deb nomlanishiga sabab esa bu xil asarlarning dastlab qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. O‘tmishda bu mamlakatda dala, bog‘dorchilik va may xudosi Dionis sharafiga echki qurbonlik qilinib, bayramlar o‘tkazilgan. Bu bayramlarda ko‘rsatilgan xalq tomoshasi «tragediya – echki qo‘shig‘i» deyilgan. Keyinchalik, boshqa sayil, bayramlarda namoyish qilingan tomoshalarning birinchi

ko'rinishida ham Dionis sharafiga echki qurbonlik qilish sahnasi o'ynalgan. Shu tarzda hayotdagi fojealarni gavdalantirish asosiy o'rin tutgan sahna asari «tragediya» deb nomlangan.

Tragediyada fojealarni ko'rsatish asosiy o'rin tutsada, unda komediya xos kulgili sahnalar ham bo'lishi mumkin. Sharof Boshbekovning «Temir xotin» asarida qishloq ayolining uqubatli hayoti kulgili voqealar orqali gavdalantiriladi. Butun turish-turmushi dala mehnati bilan bog'liq xotin-qizlarning zahmat-mashaqqatiga temir robot ham bardosh berolmasligi qiziqarli vaziyatlarda namoyon etiladi. Shu boisdan «Temir xotin» tragikomediya deyiladi. Fojelikni kulgili, qiziqarli akslantirish ustuvorligi nazarda tutilsa, uni shunday deyish mumkin bo'ladi.

Tragikomediya mustaqil adabiy janr emas. U tragediyaning o'ziga xos ko'rinishi, xolos. Tragikomediya ijtimoiy hayotning juda jiddiy ma'naviy-axloqiy, siyosiy muammolari kulgili voqealar orqali ko'rsatiladi.

Dramada tragediyaga xos fojelikning bo'lishi, tragediyada komediya yadagiday kulgili voqealarning mavjudligi barcha adabiy janrlar musharak hodisa ekanidan dalolat beradi.

### **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Hans Bertens*. Literary Theory. The basics, 2001, – pages X, 24, 53.
2. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. Epos. – T.: «Fan». 1991. 2-jild. Lirika. – T.: «Fan». 1992.
3. *Sulton I*. Adabiyot nazariyasi. – T.: «O'qituvchi». 2005.
4. *Arastu*. Poetika. Axloqi kabir. – T.: «Yangi asr avlodi». 2004.
5. *Karimov B*. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – T.: «Fan». 2006.
6. *Normatov U*. Ustoz ibratlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
7. *Rasulov A*. Tanqid, talqin, baholash. – T.: «Fan». 2006.



## **Mavzuga doir mustaqil ish topshiriqlari**

1. Epik turning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
2. Epik tur janrlarini tushuntiring.
3. Lirik turning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganing
4. Lirik qahramon tushunchasiga ta'rif bering.
5. Dramatik turning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar bering.

## **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Epik turning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
2. Epik tur janrlarini aytib bering.
3. Lirik turning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
4. Lirik qahramon tushunchasini aytib bering.
5. Dramatik turning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
6. Dramatik janrlarni aytib bering.

## **Test savollari**

1. El qochsa birovdin el yamoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni;  
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni;  
Olam elining yamon-yamoni bil oni.  
Ushbu she'r janri qaysi javobda to'g'ri berilgan?  
A. Qit'a;  
B. Ruboiy;  
C. Murabba;  
D. G'azal.
2. Afsona va rivoyatlardan qaysi janrdagi asarlarda foydalanib bo'lmaydi?  
A. Doston, qissa;  
B. Roman, masnaviy;

- C. Fard, chiston;
- D. She'riy roman, ertak.

3. O'zbek mumtoz adabiyotida eng kichik janr atamasi qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A. Bag'ishlov;
- B. Tarkibband;
- C. To'rtlik; D.
- Fard.

4. Ruboiy janri o'zbek mumtoz adabiyotida quyidagi vaziyatlardan qaysi birida yozilgan?

- A. Ramali musammai maqsur;
- B. Hajaz bahrining axram va axrab shajarasida;
- C. Hajazi musaddasi mahzuf;
- D. Rajazi musammani solim.

5. O'zbek mumtoz adabiyotida voqeaband she'riy asarlar bitiladigan janrni belgilang.

- A. Musaddas;
- B. Muvashshah;
- C. Masnaviy;
- D. G'azal.

6. Tuyuq janri quyida ko'rsatilgan aruz vaznlaridan qaysi birida yozilgan?

- A. Foilotun, foilotun, foilun;
- B. Mafoiylun, mafoiylun, foilun; C.
- Mustaf'ilun, mustaf'ilun, faulun; D.
- Faulun, faulun, faulun, faul.

7. Ruboyi xosa qanday qofiyalanadi?

- A. a-a-a-b;
- B. a-a-b-a;



- C. a-a-b-b;
- D. a-b-a-b.

8. «Dubaytiy» atamasi qaysi lirik janr atamasi bilan bir qatorda qoʻllanadi?

- A. «Ruboiy» atamasi bilan bir qatorda;
- B. «Gʻazal» atamasi bilan bir qatorda;
- C. «Fard» atamasi bilan bir qatorda; D.
- «Qitʻa» atamasi bilan bir qatorda.

9. Mumtoz adabiyot janrlari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A. Libretto, gʻazal, sonet;
- B. Ruboiy, sonet, muxammas;
- C. Tuyuq, gʻazal, ruboiy;
- D. Tatabbuʻ, drama, muammo.

10. Ruboiy janri aruzning quyidagi bahrlaridan qaysi birida yozilgan?

- A. Ramal bahrida;
- B. Rajaz bahrida;
- C. Mutaqorib bahrida;
- D. Mutadorik bahrida.

11. Dialog va monologlar qaysi janrdagi asarlarda uchramaydi?

- A. Roman;
- B. Qissa;
- C. Tuyuq;
- D. Masnaviy.

12. Quyidagi sheʼr janrini belgilang.

Bu gulshan ichraki yoʻqtur baqo guliga abot,  
Ajab saodat erur, yaxshilik bila chiqsa ot.

- A. Masnaviy;
- B. Fard;

- C. To'rtlik;
- D. Murabba'.

13. Quyidagi javoblardan boshqotirma janrini belgilang.

- A. Chiston;
- B. Nazira; C.
- Aytishuv; D.
- Hasbi hol.

14. Quyidagi janrlardan qaysi birlari misralar miqdori va qofiyalanish tartibi jihatidan bir xildir?

- A. G'azal, qit'a;
- B. Qit'a, chiston;
- C. Tuyuq, ruboiy;
- D. Muxammas, musaddas.

## TARQATMA MATERIALLAR

Romanlar mavzusi, qamrab olingan voqealar ko'lamiga ko'ra bir necha xillarga bo'linadi. Jumladan, tarixiy roman, falsafiy roman, fantastik roman, sarguzasht roman, ijtimoiy-siyosiy roman, avtobiografik romanlarga misollar keltiring.

Hikoyada badiiy to'qima asosiy o'rin tutsa, ocherk hujjatlilikka asoslanishi bilan undan farq qiladi. Tanlangan hikoya misolida tahlil qiling.



## IJODIY USLUBLAR

1. Ijodiy uslub.
2. Klassitsizm yoʻnalishi.
3. Romantizm va realizm.
4. Sentimentalizm, syurrealizm, naturalizm va modernizm.
5. Adabiy yoʻnalish va oqim tushunchasi.

**Tayanch soʻzlar:** *ijodiy uslub, romantizm uslubi, realizm, klassitsizm, sentimentalizm, naturalizm, modernizm, syurrealizm, abstraktsionizm, futurizm.*

Sanʼat va adabiyotda hayot hodisalarini gavdalantirishning umumiy yoʻllari **ijodiy uslub** deb yuritiladi. Ijodiy uslubga tadqiqotlarda «yozuvchining hayotiy faktlarni tanlash, umumlashtirish, baholash va badiiy obrazlarda aks ettirishda qoʻllagan asosiy prinsiplari» (Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati. – Toshkent: «Oʻqituvchi», 1983. – B.321); «Sanʼatkorning anglanayotgan voqelikka ijodiy munosabatlarining umumiy ijodiy prinsipi, yaʼni badiiy asarda voqelikni qayta tiklash prinsipi» (Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: «Oʻqituvchi», 1980. – B.356); «Turmush hodisalarini tanlash, oʻrganish, idrok etish va tasvirlashning asosiy vositasi» (Shukurov N., Hotamov N., Xolmatov Sh., Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: «Oʻqituvchi», 1979. – B. 208), deb taʼrif beriladi.

Sanʼat va adabiyotdagi ijodiy uslublar aslida inson dunyosini, uning ilgari anglanmagan jihatlarini koʻrsatish borasidagi izlanish yoʻllaridir. Tadqiqotlarda soʻz sanʼatida inson dunyosini badiiy gavdalantirishning ikki yoʻli: romantizm va realizm yoʻli bor, deyiladi. Bu ham aslida inson tabiati bilan bogʻliq hodisa sanaladi. Chunki odam ham real hayot qoʻynida, ham orzu-havaslar dunyosida yashaydi. Inson tabiatida mavjud hayot tarziga qanoat qilishdan koʻra, turmushni oʻzgartirish istagi uni yanada yaxshilash havasi baland turadi. Bu havas, ayniqsa, kishining bolalik, yoshlik kezlarda kuchli boʻladi.

Dunyo adabiyotida qadimdan haqiqiy inson qanday bo'lishi kerakligi muammosi bosh masala sanalgan. Shuning uchun kishilarning haqiqiy inson haqidagi orzu-havaslarini akslantiruvchi asarlar yaratilgan. Gomerning «Iliada» va «Odisseyasi» ham, «Kalila va Dimna» ham, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun»lar ham haqiqiy inson haqidagi orzular aksidir. Asl inson haqidagi orzular aksi bo'lgan bu asarlar kishilarni ma'nan ulg'aytirgan, ularni yovuzlik, shafqatsizlik, johillik olamidan uzoqlashishga da'vat qilgan.

**Romantizm uslubi** – hayot haqidagi, inson to'g'risidagi orzular ifodasi. Bu uslubda yaratilgan asarlarda xayoliy voqealar, orzulardagi obrazlar asosiy o'rin tutadi. Shoir, yozuvchi o'z a'moli (ideali)dagi insonni ko'rsatish uchun qahramonlarini real hayotdagidan ko'ra kuchliroq, fidoyiroq, jasurroq qilib gavdalantiradi.

**Realizm** lotincha «realis» so'zidan olingan bo'lib, «bor, mavjud narsa, haqiqiy» degan ma'noni bildiradi. Bundan anglashiladiki, realizm dunyoning moddiy jihatlarini qamrab oladigan umumiy tushuncha sanaladi.

Biroq, realizm ijodiy uslubini ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan tutsa bo'ladigan hodisalarning ko'rsatilishidan iborat deb talqin etmaslik kerak. Albatta, insonning orzu-havaslari, xayol, o'y-kechinmalari tosh yoki gul kabi ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan tutsa bo'ladigan moddiy hodisa emas. Ammo ular bor, mavjud hodisalar. Ularsiz insoniyat hayotini tasavvur etib bo'lmaydi. Roman, qissa, hikoya, she'riy asarlarda inson hayotining ko'zga ko'rinmas ana shu jihatlari ham ko'rsatilgan bo'ladi. Ya'ni, hayotning real hodisalari, kishilararo mavjud munosabatlar gavdalantirilib, qahramonlar orzu-havaslari, xayollari manzarlantirilgan o'rinlarda realizm ijodiy uslubi romantizm ijodiy uslubiga xos sifatlar bilan uzviy bog'lanib ketgan bo'ladi. Bu esa ikki uslubning mushtarakligidan dalolat beradi.

San'at va adabiyotning asl namunalarini buyurtma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, maxsus qonun-qoidalar ishlab chiqish bilan yaratib bo'lmaydi. Chunki ijod, jumladan adabiyot namunalarini yaratish g'ayritabiiy, ilohiy hodisa. Bu hodisani boshqarishga urinish hech qachon ijobiy samara keltirmaydi. Sho'ro siyosatdonlari esa shoir, yozuvchilar



hodini o'z g'oyalari manfaati uchun xizmat qildirishga urindilar. Duning oqibatida bir xil qolipdagi, bir-biriga o'xshash she'r, roman, qissa, hikoyalar maydonga keldi. Ana shu o'ziga xos takror tufayli shu davrida adabiyot rangsizlashdi.

Adabiyot va san'atdagi asosiy ijodiy metodlardan biri realizmdir. Tadqiq qilish – hayotni estetik o'zlashtirish, badiiy ifodalash va baholash usulining bir-birini to'ldiruvchi belgilari: voqelikni aks ettirish, hayotni tipiklashtirish, asar g'oyasini tashuvchi obrazlarni qiyoslab, rivojini ko'rsatish, hayot hodisalarini tanlash va baholash, voqelikni qayta yaratish muhim estetik tamoyillardir. Badiiy metod tarixiy-estetik kategoriyadir. Badiiy haqiqatning o'zaro bog'liq bo'lgan hayotni obyektiv ifodalash va estetik bahoning xolisligi qirralari uzviy tutashapina realistlik san'atda kutilgan natijalarga erishish mumkinligi tadqiqotlarda bot-bot ta'kidlanadi.

Realizm va romantizm metodlari o'zaro aloqadorlikda taraqqiy etgan. Mumtoz adabiyotda romantik va realistlik uslub uyg'unligi ta'min-langanligi, ijodkor shoirlarimiz, xususan, Alisher Navoiy ham dostonlarida ijtimoiy voqelikka o'z munosabatini ifodalaganligini nazardan qochirmaslik zarur. Biroq, uning adabiy oqim sifatida adabiyot va san'atda tarixiy aniq atama shaklida paydo bo'lishi g'arbdagi Uyg'onish davri ijodkorlari M.Servantes, U. Shekspir asarlaridagi xarakterlar tas-viri bilan bog'liq. XVIII asrga kelib esa badiiy nasrda oddiy inson ha-yoti va taqdirini ifodalovchi ingliz-u fransuz roman va dramalari yaratildi. D.Defo, S.Richardson, G. Filding, D. Didro, J.J. Russo, I.V. Gyote, G.E. Lessing, F. Shiller asarlarida jamiyatning ijtimoiy-ma'rifiy ziddiyatlari o'z ifodasini topdi.

XIX asrga kelib, Fransiyada Stendal va Balzak, Rossiyada Gogol asarlarida jamiyat hayoti keng ko'lamda, teran ifodalandi. Tanqidiy ruh ustuvorligi, gumanizm chuqurligi, insoniyatning ma'rifiy-axloqiy taraqqiyotiga ishonch aks etishi bilan o'ziga xoslik kasb etdi. Turgenev, L.Tolstoy, Dostoyevskiy singari qalam ahli ijodi falsafiy muammolar ifodasidagi teranlik, psixologik tahlildagi aniqlik, ijtimoiy hayot hodisalari tasviridagi o'ziga xoslik bilan XIX–XX asr rus adabiyotini yuksak bosqichga ko'tardi.

---

1 Большая Российская энциклопедия. 2001.

Badiiy adabiyot tarixini kuzatar ekanmiz, romantizm va realizm metodlari keng tarqalganligini ko'ramiz. Shubhasiz, o'zbek mumtoz adabiyotining asosiy ijodiy metodi romantizmdir. Uning bag'rida realistik unsurlar bisyorligi tayin. Hayotni tasvirlashning romantik va realistik usullari Aristotelga, demakki, «Poetika»ga sharhlar yozgan Abu Nasr Forobiyga ham ma'lum edi. Hayot haqidagi konsepsiyalarga tayanish; inson ruhining jo'shqinligi va shiddatini tasvirlash; voqea-hodisalarni o'zga tarixiy davr yoxud afsonaviy-mifologik makonga ko'chi-rish; tasvirda hissiy -emotsional bo'yoqlarni quyushtirish, subyektiv faktorlarga alohida e'tibor qaratish singari ko'plab romantizmga xos tamoyillar o'tmish ijodkorlarimiz diqqat markazida bo'lgan. Shunga qaramasdan, chinakam iste'dodlar ijodida har ikkala metod hamisha bir-birini to'ldirib keladi. Ijodning sinkretik xarakteri, ko'pincha, realistik va romantik motivlarning birikib ketishini taqozo etadi.

Adabiyotshunos olim A.H. Hayitmetovning Alisher Navoiy asosiy ijodiy metodi romantizm ekanligiga qaramasdan, she'riy maktub, qit'a va satirik g'azallar, hikoyalar-u «Mahbubul-qulub» singari asarlarda realistik xarakterdagi metoddan samarali foydalanganligi haqidagi xulosalari o'zbek adabiyoti tarixini metodlar bilan bog'lab o'rganishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Romantizm metodining hayotiyliigi, badiiy tafakkur tarixida muhim rol o'ynagani, estetik ideal ifodasi va muhitdan norozilik kayfiyatlarini ifodalashi, bo'yoqlarda serjilolikni ta'minlashi kabi ko'plab xususiyatlarini inkor etmagan holda, unda yuksak ideallar bilan obyektiv haqiqat o'rtasida muayyan darajada uzilish yuz berishini ham ta'kidlash o'rinlidir. Bu hol realizm bag'ridagi romantik bo'yoqdorlik tamoyilidan foydalanish imkoniyati kengligi, kitobxonga zavq-shavq bag'ishlash, qalam ahliga ijodiy ilhom baxsh etishdagi uning ahamiyatiga soya sol-maydi.

Nihoyat, XIX asrning ikkinchi yarmi, yangi o'zbek hajvchiligining maydonga kelishi, janrlar taraqqiyotidagi siljish (she'riy hikoya, sayohatnoma, maktubot janrlarining inkishof etilishi) va rivojlanishi,

---

1 Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi. –T: –B. 118–124.



tarjimachilik va uning o'zbek nasri taraqqiyotiga sezilarli ta'sir etishi, ijtimoiy-estetik pozitsiyaning aniqligi nafaqat shaxsiy va ijtimoiy holatlarni teran ochish, balki davr hayotini haqqoniy aks ettirish imkonini ham bergan. XIX asrning oxirida shakllanib, XX asrning boshlarida o'zining ilk mevalarini bergan, 20-yillarda esa davrning shiddatli tazyiqiga qaramasdan to'laqonli adabiyotga aylangan o'zbek jadid adabiyoti esa, ko'p asrlik adabiyotimizning qonuniy merosxo'ri o'laroq mustamlakachilikning millat va vatan uchun halokatli oqibatlarini teran anglab yetdi.

Shu bois ham mohiyat e'tibori bilan yangi bo'lgan bu adabiyotning butun ruhi va mazmunini ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalar tashkil qildi. Hozirgi o'zbek adabiyotining sarchashmalarini milliy zamindan izlash va bu «tarix»ga murojaat qilishdan muddao shuki, o'zbek adabiyotida realizm shakllanishi va taraqqiyoti izchil mantiqiy rivojlanish, milliy adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotining hosilasi ekanligini ta'kidlashdir.

XIX asr realizmini «ma'rifatparvarlik realizmi», «tanqidiy realizm», «tanqidiy realizm metodi to'la shakllanishga ulgurmagan» edi qabilidagi baholashlarning o'ziyoq, qanchalik cheklangan bo'lmasin, o'zbek adabiyotida bu metodning ancha chuqurlashganligini, shuningdek, XX asrga kelib, yangicha ko'rinishda qaror topganligini inkor etmaydi. Realizm metodining badiiy tafakkur tarixida birdaniga va osonlikcha qaror topmaganligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, jahon adabiyotining uzoq asrlik izlanishlari natijasidagina realistik tamoyillar rivojlangan.

XX asr adabiyotshunosligida realizmning xronologik chegarasi, tushunchaning mazmun mohiyati masalalariga bo'lgan munosabatda turli xil nuqtayi nazarlar mavjud bo'lib, ikkita asosiy konsepsiyani qayd etish maqsadga muvofiqdir:

1. Insoniyat badiiy tafakkuri rivojida borliqni ruhiy-amaliy o'zlashtirishning teran mohiyati realizm tamoyillarida ifodalanadi. Ijtimoiy hayot hodisalarini samimiy ifodalash, borliqning muhim jihatlari-yu o'ziga xosligini anglab yetish, u yoxud bu adabiy hodisani xolis baholashga intiladi. Har bir yangi tarixiy bosqichda realizm o'ziga xos ko'rinish kasb etadi. Natijada, uning ilgari yetarlicha payqalmagan

yangi qirralari, ifoda imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Realizm olgan o'sha shakl bilan aynan u paydo bo'lgan adabiy davr hodisalarini izohlash oson kechadi.

2. Realizm badiiy tafakkurning tarixiy-tipologik aniq shaklidir. Bino-barin, uning tarixi ham aniq xronologik chegaralarga egadir. Shunday ekan, realizmning boshlanishi yo Uyg'onish davri, yo XVIII asrga borib taqaladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari tanqidiy ko'rinishdagi holatida ko'proq namoyon bo'ladi.

Nuqtayi nazarlar turfa xilligiga qaramasdan, shuni ta'kidlash mumkin, favqulodda o'ziga xos qamrash, borliqqa yondashish usullaridan, uslubiy shakl va uslublaridan keng tarzda istifoda etadi.

Adabiy-badiiy vositalar orqali tarixan o'zgaruvchan olamni yoritish, keng va teran xolislikda aks ettirishiga qarab har bir ijodkor realizmi bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Zero, realizm obyektiv real olamning anglash mumkin bo'lgan mohiyatini o'ziga xos qat'iy ishonch bilan san'at vositasida ifodalashdir. O. Sharafiddinov ta'bir bilan aytganda: «Badiiy adabiyot dunyoni badiiy o'zlashtirishdan iboratdir»<sup>1</sup>. Cho'lpon esa adabiyotdan «ruh, his, tuyg'u, fikr, ong va o'y» olish lozimligini ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

Adabiyotshunoslikda yetarlicha bahs etilgan Abdulla Qodiriy va Sotti Husaynning «O'tkan kunlar» romani yuzasidan olib borgan bahslarida adib tomonidan bildirilgan izohlar ham uning realizm haqidagi fikrlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur bahs xarakterini belgilashda adabiyotshunoslikda va, xususan, qodiriyshunoslikda olimlar tomonidan ilgari surilgan fikr-mulohazalarning muhim o'rin tutishini e'tirof etgan holda, ularda muayyan darajada g'oyaviy-tematik tahlil ustuvorligini ham qayd etish o'rinlidir.

Bahs jarayonida bir qator nazariy masalalar kun tartibiga qo'yiladi. Hayot haqiqati va badiiy to'qima, tipik obraz, shakl va uslub, kompozitsiya, til, adabiy ta'sir, ijod jarayonining tabiati, dunyoqarash va boshqalar shular jumlasidandir.

<sup>1</sup> Sharafiddinov O. Adabiyot – hayot darsligi. –T., 1981. – B. 7.

<sup>2</sup> Cho'lpon. Adabiyot nadir? –T.: «Cho'lpon». 1994. – B. 36–37.



Abdulla Qodiriy S. Husaynning tanqidiy fikrlariga mufassal javob berishni o'z zimmasiga olmaydi. Adib ba'zi izohlar berish, o'ziga g'aribroq tuyulgan nuqtalarga munosabat bildirish bilangina cheklanadi. Abdulla Qodiriy S. Husaynni qanday tushunganiga e'tibor qaratish lozim: Abdulla Qodiriy S. Husaynning o'zbek yosh yozuvchilariga adabiyot bobida bir qadar dars berish, ularga rahbarlik qilish maqsadi bor deb biladi. Chunki S. Husayn «Yoshlar» gazetasi qoshidagi adabiy to'garakning rahbari edi. Abdulla Qodiriy S. Husaynning yozuvchi va munaqqidlar xalq orasiga kirib, uning urf-odatlarini teran o'rganishlari lozim degan fikrini e'tirof etadi. Bu borada ikkala bahs ishtirokchisi ham yozuvchining real hayot qozonida qaynashi asarning hayotiy va ishonchli chiqishini ta'minlabgina qolmay, mahoratning oshishiga olib kelishi aniqligi haqidagi fikrda yakdil ekanliklari oydinlashadi. Qolgan barcha o'rinlarda Abdulla Qodiriy S. Husayn e'tirozlarini asosli tarzda inkor etadi.

S. Husayn «**oddiy realizm**» degan istilohni qo'llaydi. Bunda u soddalikni, tushunish oson bo'lishini va davr kitobxonini nazarda tutadi. Abdulla Qodiriy S. Husaynni «shahar mayda **burjuaziyasining romantizmi**» usul va priyomlarini to'g'ridan to'g'ri o'z romanlarida qo'llagan deb biladi. Bir qarashda sof moddiyunchi bo'lib ko'rinishga uringan munaqqid masalaga sinfiy kurash nuqtayi nazaridangina yondoshadi. Vaholanki, moddiyunchilikning o'zi ham faqat sinfiy kurashdangina iborat emas.

S. Husayn tamomila yangi proletar adabiyoti yaratish tarafdori sifatida maydonga chiqar ekan, romantik usul va priyomlarni burjua yozuvchilari ishlatib kelgani uchun, xalq adabiyotining «Rustami doston» tipidagi asarlari proletar adabiyotiga zamin bo'la olmasligi bahonasida ko'r-ko'rona inkor qilish yo'lidan boradi.

S. Husaynning fikrlash mantig'icha Jorj Zaydon usul va priyomlarini xalqqa yangilik sifatida taqdim etish rus realizmi va Tolstoy muvaffaqiyatlarinigina emas, proletar adabiyoti tajribalarini ham mensimaslik bo'lib tuyuladi. Yangi adabiyot muayyan tabaqaga moslashib borayotganligini S. Husayn ham e'tirof etadi. Bu ommabop adabiyotning vakillari ifoda va tilni ishchi-dehqon o'quvchilariga muvofiqlashtirib borishlari uchun nuqul go'zal tafsillar-u iste'moldan uzoq yot so'zlarni

qo'llashdan tiyilishlari lozim deb biladi. Uning nazarida proletar adabiyoti ham ommaning zavqi va shavqi bilan uyg'unlashmaganining boisi metodda emas, balki til va ifodadadir. Agar til, mahorat masalalari oshsa, yozuvchilar real turmushga yaqinroq borsa, oddiy tilda yozsa, «proletariat realizmi» usul va priyomlaridan foydalansa, ijodiy ishlar ancha rivoj topadi deb biladi.

Anglashiladiki, S. Husayn milliy adabiyotni teran bilib, undan iftixor tuymaganidek, rus va proletar adabiyotidan nusxa ko'chirishga intilar ekan, jahon adabiyoti tajribalariga ham nopisandlik bilan qaraydi.

1930-yilga kelib Qodiriy ijodida muayyan darajada o'zgarish yuz bergan. U endilikda «Yoshlar» gazetasi qoshidagi adabiy to'garak bilan tajribalari to'g'risida o'rtoqlashib turishga, demakki, S. Husaynga bir oz yon bosishga ham majbur bo'ladi. O'z izlanishlari yo'nalishini esa, ilgorigidek turk va arab adabiyotidan emas, balki Tolstoy, Chexovdan o'rganishga qaratadi. Shu tariqa adabiy-badiiy tafakkur taraqqiyoti uchun g'oyatda murakkab davrda realizmni yanada kengroq tarzda barqaror etishga intiladi.

Nazarimizda, 1935- yilga kelib Abdulla Qodiriy estetik qarashlarida yana o'z iziga tushish, ikkilanish va chekinishlardan qutulib, ijoddagi bosh tamoyillarga qaytish jarayoni boshlangan. Buning sabablari bizningcha quyidagi uchta holat bilan izohlanadi:

1. Amaliyotda ziddiyatlarni bartaraf etishga urinish. Bu boradagi «Obid ketmon» tajribasidan kelib chiquvchi shaxsiy xulosalari.
2. O'z ijodining hamma tomonlarini tahlil etib, turmush saboqlaridan tegishli ibrat olish.
3. Tolstoy, Chexov kabi ulug' yozuvchilarning tasvirlash san'ati, shakl va uslubi bilan yaqindan tanishish.

Fikrimiz tasdig'ini «Yozuvchi o'z ishi to'g'risida» (1935) va «O'qish-o'rganish» (1936) maqolalari misolida kuzatishimiz mumkin.

Qodiriy ijodi, asos e'tibori bilan olib qaralganida, bir umr o'zining bosh estetik tamoyillariga sadoqati bilan qimmatlidir. Shu ma'noda Abdulla Qodiriy fikr-mulohazalari realizm estetikasining mo'tabar namu-nasidir.

Bu fikrlarning maxsus nazariy tadqiqotlar bilan shug'ullanmagan, adabiyotshunoslikka, nazariyotchi olimlikka davo ham qilmagan



Abdulla Qodiriyga, uning realizm estetikasiga nechog'lik daxldorligi bor? Qodiriy estetikasini sinchkovlik bilan kuzatgan professor U.Normatov to'g'ri ta'kidlaganidek: «Adibning adabiy-tanqidiy qarashlaridagi bosh gap realizm masalasi»<sup>1</sup>dir.

Darhaqiqat, Qodiriy o'zi yashagan va ijod qilgan ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog'liq tarzda, adabiy-badiiy tafakkur rivoji uchun ham g'oyatda murakkab bo'lgan davrda *realizmni kengroq tarzda barqaror etishga* astoydil harakat qildi. Uning adabiy-tanqidiy, estetik bisoti quyidagi to'rtta yo'nalishdagi ishlarida o'z ifodasini topgan:

1. Matbuot, «Mushtum» jurnali va hajviyotga oid maqolalari.
2. Romanlariga yozgan «So'zboshi»lari.
3. Sharh-izohlari (o'z asarlari tevaragida borgan bahs-munozaralaridagi fikrlariga bildirilgan munosabatlar).
4. Alohida yozuvchilar ijodi, san'at va adabiyot asarlariga bag'ishlangan ishlari.

Qodiriy fikr-mulohazalarini realizm estetikasining mo'tabar namunasi aylantirgan ijodiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Hayot haqiqatiga sadoqat: hayotiylik, haqqoniylik, milliylik.
2. Tasvirda xolis (obyektiv)lik, ya'ni qahramonlarni real muhit va sharoit darajasida ko'rsatish.
3. Tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish (san'atkorona qalb bilan ko'rish va ko'rsatish).
4. Shakliy-uslubiy izlanishlarga xayrixohlik (ekspressiv holatlarining ilk zuhurotlari va futurizmga munosabat).
5. Ijodkor ma'naviy-ruhiy darajasi va kitobxon saviyasi mutanosibligi.
6. Badiiy mahorat va qalam ahliga ehtirom.

Badiiy tafakkur taraqqiyotini ijtimoiy turmushdagi tarixiy vaziyatdan ajratib talqin qilish qiyin. Illo, adabiyot ijtimoiy jarayonning badiiy ifodasidir. Davr adabiyotining poetik pafosi realizm metodi-ning u yoki bu ko'rinishda tazohir topishiga olib kelgan. Har qanday davrda ham realizm insonparvarlik, inson omilining iqtisodiy-siyosiy,

---

<sup>1</sup> Normatov U. Qodiriy bog'i. –T.: «Yozuvchi». 1995. – B. 59.

axloqiy-ma'rifiy ehtiyojlarini ko'zlashga intilgan, go'zallik va nafosatni ulug'lashga uringan. Shu asosda o'zining estetik tamoyillari va an'analarini shakllantirgan. Jumladan, hayotni haqqoniy tasvirlash realizmning- bosh tasvir usulidir. Realizm metodida insonning nafaqat ma'naviy va ideali, balki konkret jihatlari ham tasvir obyektiga aylanadi. Analitik badiiy tahlil voqelik mohiyatini chuqur ochishga, kitobxon-tafakkurining uyg'onishiga turtki beradigina emas, istiqbolning yorqin kurtaklarini ko'rsatishga ham urinadi. Ijtimoiy-psixologik jarayonning uzviy birikuvi adabiyotda hayotiylik va haqqoniylikni ta'minlaydi. Ichki olam manzaralarining marg'ub va nomarg'ub jihatlari ko'rsatishda qulaylik tug'diradi, ijtimoiy illatlarning mohiyatini ochadi.

**Klassitsizm** lotincha «classicus» so'zidan olingan bo'lib, «namuna», «ibrat» degan ma'noni anglatadi. Bu uslub vakillari o'tmish adabiyoti namoyandalari asarlarini o'zlari uchun mezon, ibrat namunasi deb qaraganlar.

Klassitsizm nazariyotchilaridan biri fransuz adibi va adabiyotshunosi N.Bualo (1636—1711): «Adabiyot saroy va shahar uchun yaratilishi kerak» deydi. Klassitsistlarning ta'biricha, adabiyotda hamma narsa aniq va qat'iy qoida asosida ko'rsatilishi lozim. Klassitsizm estetikasining talablaridan yana biri «uch birlik»dir. Ya'ni, dramada gavdalantirilayotgan hodisa bitta yaxlit sujet tarzida gavdalantirilishi («harakat birligi» talabi), voqea bir joyda bo'lib o'tishi zarur («joy birligi» talabi), voqea yigirma to'rt soat ichida yuz berishi («vaqt birligi» talabi) lozim.

Klassitsistlar asarlarida hayot hodisalari va inson dunyosining bir qirradi yoritilgan. Realistik roman, qissa, hikoyalarda esa turmush voqeligi va kishilar fe'l-atvori har tomonlama gavdalantirilgan. Bu ham klassitsizm va realizmning yaxlitligini bildiradi.

«Klassitsizm XVII asrda Fransiya adabiyotida shakllanib, XIX asr boshlarigacha Yevropa mamlakatlari adabiyotida tarqalgan va hukmron bo'lib qolgan ijodiy uslubdir» degan qarash ham nisbiydir. Chunki ayni shu davr asarlariga xos xususiyatlar avvalgi zamonlarda yaratilgan asarlarda ham u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan. Qolaversa, klassitsizm realizm uslubining o'ziga xos bir ko'rinishi sanaladi. Klassitsizm



namoyandalari asarlarida ham real turmush voqeligi gavdalantirilgan bo‘ladi.

«Sentimentalizm oqimi», «naturalizm oqimi», «modernizm yo‘nalishi» atamaları ham keng qo‘llanadi. «Modernizm yo‘nalishi ekzistensializm, abstraksionizm, simvolizm, syurrealizm, futurizm kabi oqimlarga bo‘linadi» deyiladi. Sho‘ro siyosati hukm surgan davrda bitilgan aksariyat tadqiqotlarda modernizm yo‘nalishi qoralanadi. Ekzistensiyachilik ta‘limoti yirik namoyandalaridan biri fransuz adibi, Nobel mukofoti sovrindori (u bu mukofotni olishdan o‘z ixtiyori bilan voz kechgan) Jan Pol Sartr (1905–1980) bu xususda shunday deydi: «Ekzistensiyachilikni umidsizlikka chaqiradi, deb ayblaydilar; insonning qabihligi, johilligi va shilqimligini ko‘rsatib, tubanligini ta‘kidlayverishda, ko‘pgina yoqimli, go‘zal jihatlariga e‘tibor bermaslikda, inson tabiatining yorug‘ tomonidan yuz o‘girishda ayblaydilar; ular odamlarning hamjihatligini esdan chiqarib yuborishgan, insonga yakka-lab tashlangan mavjudotga qaraganday munosabatda bo‘ladilar; inson hayotining yomon tomoniga alohida e‘tibor bilan qaraydilar, deydilar... Inson – bu xavotir... Garchand xavotirni yashirsalar-da, u mavjuddir... Ekzistensiyachi ehtirosning qudratliligiga ishonmaydi. U hech qachon ezgu ehtiros – insonni beshafqatlarcha muayyan qilmishlarga undaydigan, hammayoqni alg‘ov - dalg‘ov qiladigan oqim va shuning uchun uzr o‘rniga o‘tishi mumkin, deb da‘vo qilmaydi. U inson o‘z ehtiroslari uchun javobgar deb biladi... Inson o‘zini qay darajada ko‘rsata ols, shu darajadagina mavjud bo‘ladi... Prustning dahosi, bu – Prustning asarlari. Rasinning dahosi, bu – uning bir qator fojealari. Ulardan boshqa hech narsa yo‘q. Agar Rasin yana bir fojea yozmagan bo‘lsa, Rasin yana bir fojea yozishi mumkin edi, deyishning nima keragi bor? Inson o‘z hayoti bilan yashaydi, u o‘z qiyofasini yaratadi, u qiyofadan tashqarida esa hech narsa yo‘q... Biz faqat inson o‘zining qator qilmishlaridan boshqa hech narsa emas, u mana shu qilmishlaridan tashkil topadigan munosabatlar majmuidan iborat, demoqchimiz, xolos... Ekzistensiyachi qo‘rqoqni tasvirlar ekan, uni o‘z qo‘rqoqligi uchun javobgar deb hisoblaydi. U yuragi, o‘pkasi yoki miyasining qo‘rqoq bo‘lgani uchun shunaqa emas, balki o‘z qilmishlari bilan o‘zini qo‘rqoq qilgan. Mijoz-

ning qo'rqog'i bo'lishi mumkin emas. Mijoz asabiy, zaif, chala yoxud to'laqonli bo'lishi mumkin, lekin zaif odam degani – albatta qo'rqoq degani emas, chunki qo'rqoqlik bosh tortish yoki yon bosish oqibati-da yuzaga keladi. Mijoz bu – hali harakat emas. Qo'rqoq o'z qilmishi orqali aniqlanadi... Ekzistensiyachi qo'rqoqni qo'rqoq qiladigan – o'zi, qahramonni qahramon qiladigan ham – o'zi, deydi... Ekzistensiyachi insonning tushkun tasvirini bermaydi, uni qilgan ishiga qarab baholaydi. U insonga bor umid faqat uning harakatida ekani va faqat yagona harakatgina insonning yashashi uchun imkon berishini aytadi... Biz o'zgaga ro'baro' turib, o'zimizni anglaymiz va ayni paytda, o'zga ham biz uchun xuddi o'zimizday ishonchli bo'ladi... O'zim haqimdagi biror bir haqiqatni bilish uchun men o'zga orqali o'tishim kerak. O'zga kishi, deylik, o'z-o'zimni anglashimda qanchalik zarur bo'lsa, mening mavjud bo'lishim uchun ham shunchalik zarur... Biz har bir alohida hodisada erkinlik erkinlik uchun bo'lishini istaymiz. Biroq erkinlikka intilar ekanmiz, u to'laligicha boshqa odamlar erkiga va boshqalarning erki bizning erkimizga bog'liq ekanini ko'ramiz... Ekzistensiyachilik, bu – hayotbaxshlik, harakat haqidagi ta'limotdir» («Jahon adabiyoti» jurnali, 1999-yil, 5-son. – B.181–195).

**Surrealizm** fransuzcha «surrealisme» so'zidan olingan bo'lib, «yuksak realizm», «realizmdan ham yuksak» degan ma'noni anglatadi. Bu oqim XX asrning 10–20-yillarida dastlab Fransiyada shakllangan. Ayni shu davrda ijod qilgan ayrim shoirlar, yozuvchilar, rassomlar, hay-kaltaroshlar, dramaturglar, rejissyorlar asarlarida hayot va inson dunyo-si mavjud an'analardan boshqacharoq talqin qilingan. Ular voqea-hodisalarning tashqi ko'rinishini tasvirlash bilan cheklanmasdan, ularning mohiyatidagi ma'nolarni, hodisalar ichki olamini kutilmagan obrazlarda, murakkab ramz va shakllarda ko'rsatishga intilishgan. Pol Verlen (1844–1896), Pol Elyuar (1895–1952), Emil Verxarn (1855–1916), Oskar Uayld (1854–1900), O. Mandelshtam (1891–1938), A.Axmatova (1889–1966), M.Svetayeva (1892–1941), A.Blok (1880–1924), V. Bryusov (1873–1924), A.Beliy (1880–1934) kabi shoir, yozuvchilarning asarlari ayni shu jihatlari bilan avvalgi davr adabiyoti namunalaridan ajralib turadi.



**Abstraksionizm** lotincha «abstrastio» soʻzidan olingan boʻlib, «uzoqlashish», «mavhumlik» degan maʼnoni anglatadi. Abstraksionistlar yaratgan asarlar koʻnikib kelingan asarlardan tamomila farq qiladi.

Abstraksionizm nazariyasiga koʻra, sanʼat borliqni aks ettirmaydi, balki ijodkorning his-tuygʻularini ifodalaydi. Bu oqim namoyandalarning fikricha, har qanday shakl muayyan mazmunga ega boʻladi. Abstraksionizm - vakillarining bu qarashlarini ham inkor etib boʻlmaydi. Chunki har qanday sanʼat asarida ijodkorning his-tuygʻulari oʻz ifodasini topadi, har qanday shakl oʻziga xos mazmuni ifoda qiladi. Shaklni mazmundan ajratib boʻlmaydi. Mazmunsiz shakl yoʻq.

Abstraksionizm rassomlik, haykaltaroshlik, teatr, kino, arxitektura-da, ayniqsa, keng tarqalgan. Pikasso, Renatto Guttuzo, Salvador Dali kabi musavvirlarning asarlarida borliq hodisalari turli shakl, chizmalar vositasida ramziy ifoda qilingan.

**Futurizm** lotincha «futurum» soʻzidan olingan boʻlib, «kelajak» demakdir. Bu yoʻnalish nazariyasiga koʻra, badiiy ijod borliqni akslantirish vositasi emas, balki uning bevosita davomi boʻlishi lozim. U shunda inson erkinligi ijodkorligiga tayanib, yangi dunyoni yaratadi. Futurizm namoyandalari adabiy-badiiy asarlari ifoda uslubining gʻalatiligi, murakkab kompozitsion qurilishi, jumllarining odatdagidan tamomila boshqachaligi, fojia va kulgili holatlarni yonma-yon gavdalantirishi kabi xususiyatlari bilan oʻziga xoslik kasb etadi. V. Xlebnikov (1885–1922), B. Paster-nak (1890–1960), N. Aseyev (1889–1963), V. Mayakovskiy (1893–1930) kabi ijodkorlarning asarlarida futurizm kuzatiladi.

Emil Zolya (1840–1902), Flober (1821–1880), Mopassan (1850–1893) kabi adiblar **naturalizm** oqimi namoyandalari deyiladi. Ularning asarlarida qahramonlar hayot tarzi barcha tafsilotlari bilan bayon etiladi. Naturalizm oqimi vakillari asarlari davr kishilari hayoti haqida aniq maʼlumotnoma boʻla oladi. Mazkur yoʻnalish nazariyasiga koʻra, badiiy asar inson haqida maʼlumot beruvchi hujjat singari aniq tafsi-lotli boʻlishi lozim. Naturalizm asli lotincha «natura» soʻzidan olingan boʻlib, «tabiat» degan maʼnoni bildiradi.

Shunday asarlar borki, ularning qahramoni qismati kishini achin-tirib yuboradi. Xoʻrlangan, haqoratlangan kishilarning achinarli ahvolini

gavdalantirilgan bu asarlarni o'qigan o'quvchi o'z-o'zidan mahzun-bo'lib qoladi. Uning qalbini bechora qahramonga achinish his-tuyg'ulari qamrab oladi. Inson qismati fojeli klari gavdalantirilgan bu xil asarlar **sentimental** asarlar deyiladi. F. Dostoyevskiy (1821–1881) ning «Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar», A. Chexov (1860–1904)ning «Kashtanka», «Uyqu istagi», I. Karamzin (1766–1826)ning «Bechora Liza» asarlari qahramonlari qismati o'quvchi hissiyotlariga qattiq ta'sir qilib, kuchli achinish, iztirob uyg'otadi. **Sentimentalizm** fransuzcha «sentiment» so'zidan olingan bo'lib, «his, his qilish» degan ma'noni bildiradi.

Insonga achinish, uni ardoqlash, e'zozlash, qadrlash, sevishga olib keladi. Qahramonlar qismati, fojeasiga achinish uyg'otadigan asarlar kishilar qalbida insonparvarlik, insonga muhabbat tuyg'ularini ulg'aytiradi. Ular mana shu xususiyati bilan adabiyotning insonparvarlik mohiyatini yorqin namoyon etadi.

Umuman, ijodiy uslub, ijodiy yo'nalish, ijodiy oqim tushunchalari o'rtasida qarama-qarshilik, jiddiy tafovut yo'q. Ijodiy uslub o'rnida «badiiy uslub» iborasi ham qo'llanilishi mumkin.

*Ruslar shakliy uslub deb nomlangan uslubni alohida ajratib ko'rsatishgan. Rus tilshunosi Roman Yakobson (1896–1982)ning badiiy san'atga munosabati o'zgacha bo'lgan. Ushbu uslubni fransuzlar rivojlantirgan va uni strukturalizm deb nomlashgan<sup>1</sup>.*

*«Shakliy uslub»ning xususiyati shundaki, adabiyotning shakliga ko'proq e'tibor beriladi. Chunki she'riyatda badiiy ta'sir vositalari yor-damida yaratiladigan shakl she'riyatda ta'sirchan bo'ladi<sup>2</sup>.*

Ijodiy uslublar bir-biridan o'z xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Biroq ular bir-biriga tamoman teskari hodisa hisoblanmaydi. Barcha-uslub, yo'nalish, oqimlar yagona bir maqsad – hayot hodisalari va inson dunyosini ko'rsatishga xizmat qiladi. *Sifatli she'riyatda, umuman sifatli adabiyotdagidek, muvofiqlik tamoyili matndagi paradokslarni va tahlil qilishda ehtimoliy qarama-qarshiliklarni uchratamiz<sup>3</sup>.*

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 32.

<sup>2</sup> O'sha asar. – page 32.

<sup>3</sup> O'sha asar. – page 24.



## **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Hans Bertens*. Literary Theory. The basics, 2001, – pages 24, 32.
2. *Boboev T.* Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: «O'zbekiston». 2000.
3. *Boltaboev H.* Nasr va uslub. – T.: «Fan». 1992.
4. *Sultonov I.* Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: «O'qituvchi». 2005.
5. *Ulug'ov A.* Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: «Universitet». 2000.

## **Mavzuga doir mustaqil ish topshiriqlari**

1. Adabiyotda an'ana va novatorlik.
2. Ijodiy metod va adabiy oqim tushunchalari o'rtasidagi mushtaraklik.
3. Realizmning turli xalqlar adabiyotlaridagi talqinlari.
4. Struktural poetika.

## **Mavzu yuzasidan savollar**

1. Ijodiy uslub nima?
2. Klassitsizm yo'nalishini izohlang.
3. Romantizm va realizmning o'xshash va farqli jihatlarini tushuntiring.
4. Sentimentalizm, syurrealizm, naturalizm va modernizm haqida ma'lumot bering.
5. Adabiy yo'nalish va oqim tushunchasini sharhlang.

## **Test savollari**

1. «Modern» so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?  
A. «Yangi, zamonaviy»;  
B. «Esdaliklar»;  
C. «Yalinish»;  
D. «Hikoya».
2. Bir adabiy turga mansub bo'lgan asarlarni toping.

- A. O.Yoqubov «Koʻhna dunyo», Said Ahmad «Kelinlar qoʻzgʻoloni»; B. Asqad Muxtor «Chinor», E.Vohidov «Oʻzbekim»; C. U.Nazarov «Chayon yili», T.Malik «Alvido, bolalik»; D. A.Oripov «Oʻzbekiston», Said Ahmad «Ufq».

3. Badiiy ijodda ruhiy tahlilning ong oqimi deb atalgan turi adabiy oqimning qaysi turida paydo boʻldi?

- A. Sentimentalizmda;  
B. Realizmda;  
C. Modernizmda;  
D. Romantizmda.

4. Yangi oʻzbek adabiyotida birinchilardan boʻlib qaysi adib oʻz asarida mistik sujet (mistifikatsiya) yoʻnalishining namunasini yaratdi?

- A. Sh.Xolmirzayev «Olaboʻji»;  
B. O.Yoqubov «Koʻhna dunyo»;  
C. R.Parfi «Adashgan ruh»;  
D. O.Muxtor «Ming bir qiyofa».

5. Badiiy asarda aks ettirilgan hodisa, tuygʻu, personajlarining xarakteri, ruhiyati, xatti-harakati va taqdiridan kelib chiqadigan fikr ...

- A. Badiiy konflikt;  
B. Sujet;  
C. Badiiy gʻoya;  
D. Kompozitsiya.

6. Badiiy asarda insonning kimligi, asl mohiyati nimalar vositasida ochib beriladi?

- A. Ruhiy tahlilda;  
B. Badiiy sanʼatlarda;  
C. Dialoglarda;  
D. Peyzajda.

7. Birinchi oʻzbek realistik romani qaysi?

- A. «Chinor»;  
B. «Kecha va kunduz»;  
C. «Oʻtkan kunlar»;



D. «Sarob».

8. Ijodiy uslublarni belgilang.

A. lirik, epik, dramatik;

B. Epos, ballada, romans;

C. Modernizm, realizm, romantizm;

D. Realizm, romantizm, pafos.

9. Futurizm atamasining ma'nosini belgilang.

A. Borliq;

B. Jamiyat;

C. Kelajak;

D. Inson.

10. Naturalizm uslubining namoyondalarini belgilang.

A. Emil Zolya, Balzak, Dyuma;

B. Xeminguey, Teodor Drayzer, Kamyu;

C. Emil Zolya, Flober, Mopassan;

D. Dyuma, Xeminguey, Teodor Drayzer, Kamyu.

11. Syurrealizm fransuzcha surrealisme so'zidan olingan bo'lib, tarjimasini toping.

A. «Uzoqlashish», «mavhumlik» degan ma'noni anglatadi;

B. «Kelajak» degan ma'noni anglatadi;

C. «Yuksak realizm», «realizmdan ham yuksak» degan ma'noni anglatadi;

D. «Uzoqlashish», «kelajak» degan ma'noni anglatadi.

## TARQATMA MATERIALLAR

Afzal- ligi		Kamchi- ligi		Afzal- ligi		Kamchi- ligi	
Xulosa:							

## IJODKOR USLUBINING O'ZIGA XOSLIGI

1. An'ana va yangilanish.
2. Sharq adabiyotida an'anaviylikning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Zamonaviy adabiyotda ijodkor uslubidagi o'ziga xosliklar.

**Tayanch so'zlar:** *ijodkor uslubi, ijodkor didi, bayon tarzi, fikrni ifoda etish mahorati, qahramonlar ruhiyati, kechinmalari.*

Borliqda bir-biriga aynan o'xshash biron bir hodisa mavjud emas. Jumladan, odamlar ham qiyofa-ko'rinishi, fe'l-atvori, qiziqishlari, xatti-harakatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Chunki betakrorlik borliqning bosh xususiyati sanaladi. Kishilarning harakat, faoliyati ham ana shu haqiqatni tasdiqlaydi. Odamlar bo'y-basti, ovozi, qobiliyati, irodasi kabi jihatlariga ko'ra bir-biridan aniq ajralib turadi. Hatto bir otanonaning farzandlari bo'lgan egizaklar ham bir-biriga aynan o'xshamaydi. Yozuvi aynan bir xil kishilarni topishga urinish ham befoyda. Chunki, har bir odamning o'ziga xos «xat»i bo'ladi. Ijodkor uslubini ham ma'lum ma'noda ana shunday «xat» deyish mumkin. Yozuvchi, shoirning «xat»i uning asarlari tilida, qahramonlarining so'zlash tarzida, voqealarning tanlab olinishi va bayon etilishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham F.Dostoyevskiy romanlari bilan L.Tolstoy yoki A.Chexov asarlari bir-biridan farq qiladi. «Qutlug' qon» Oybekning, «O'g'ri» va «Bemor» Abdulla Qahhorning qalamiga mansubligi aniq bilinadi. She'riyatdan xabardor o'quvchilar Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi she'rlarini bimalol «tanishadi».

Ijodkorlar asarlarining bunday o'ziga xos bo'lishi, avvalo, borliqning betakror yaratilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, shoir, yozuvchi, dramaturglarning hayotiy tajribasi, turmushni kuzatishi, bilim darajasi, didi, saviyasi, dunyoqarashiga asoslanadi. Uchinchidan, bu «xat»da shoir, yozuvchining qiziqishi, fe'l-atvori, ichki dunyosi akslanadi. Har bir odam o'ziga xos olam bo'lgani singari ijodkorlar ham betakror dunyodir. Ana shu betakror dunyo mavzu tanlashda, hodisalar-ga yondashishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun «uslub – odamdir» deyiladi.



Ijodiy uslub deganda asarning tilinigina nazarda tutmaslik kerak. Til, avvalo, soʻz sanʼatining asosiy quroli, yagona tasvir vositasi sanaladi. Ana shu vosita, ayni shu chogʻda, ijodkor «xat»ini namoyon etadigan muhim unsurlardan biri ham hisoblanadi.

Ijodiy uslubni «bayon tarzi», «fikrni ifoda etish mahorati» deb qarash ham uni tor tushunish boʻladi. Chunki, uslub juda keng tushuncha. U muayyan bir yozuvchi ijodida ham turli koʻrinishda namoyon boʻlishi mumkin. Har bir asar maʼlum bir uslubni oʻzida ifoda qiladi. Masalan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni «xat»i uning gʻazallari «xat»idan farq qiladi. Turkiy «Xamsa» muallifi gʻazallaridan Bobur bitgan gʻazallar ham uslub turlichaligi bilan ajralib turadi.

Ijodkor uslubi shakllanishiga tashqi omillar ham taʼsir koʻrsatadi. Masalan, har bir yozuvchi, shoir boshqa ijodkorlarning asarlaridan nimalarnidir oʻqib oʻrganadi, ularni ijodiy oʻzlashtiradi. Bu oʻrganish uning hayot hodisalarini akslantirishi, inson obrazini gavdalantirishiga oʻz taʼsirini koʻrsatadi.

**Uslub** – ijodkor xayolotining namoyon boʻlish tarzi ham sanaladi. Yozuvchi, shoir voqealarni, qahramonlarni, ular yashaydigan manzil manzaralarini qanday tasavvur qilsa, shunday ifodalaydi. Oybek qahramonlari harakatlanadigan joylarni jamiki koʻrinishlari bilan keng bayon etadi. Personajlar qiyofa, holatini batafsil suratlantiradi. Abdulla Qahhor esa qahramonlari turgan joyni ham, ularning holati, ahvolini ham ixcham, loʻnda, eng muhim jihatlari eʼtiborni qaratgan holda tasvirlaydi.

«Sanʼatkor voqelikdan tanlab olgan unsurlarni badiiy til yordamida xayoloti bilan uygʻunlashtiruvchi va u yaratgan badiiy dunyoning tugal boʻlishini taʼminlovchi vosita – **uslub** deb ataladi» deydi Nobel mukofoti sovrindori, fransuz adibi Alber Kamyu («Jahon adabiyoti» jurnali. 1997-yil, 1-son. – B.192.).

XX asr boshlarida aynan ijodkor uslubi, uning oʻziga xos jihatlari haqida bir qator bahs-munozaralar yuzaga kelgan. Masalan, Abdulla Qodiriy va Sotti Husaynning «Oʻtkan kunlar» romani yuzasidan olib borilgan bahslarida tipik shakl va uslub, kompozitsiya, til, adabiy taʼsir, ijod jarayonining tabiati, dunyoqarash kabi nazariy masalalar tahlil etilgan.

S. Husaynning nazarida «Mehrobdan chayon» romani ancha muvaffaqiyatsiz chiqqan asar. Chunki, unda Abdulla Qodiriy uslubi haddan tashqari murakkablashadi. Munaqqid o‘zi anglab yetmagan holda Abdulla Qodiriy ijodiy tadrijida o‘ziga xos bir bosqichga ko‘tarilganligini ham e’tirof etayotganday tuyuladi. «Mehrobdan chayon» romanining umumiy konsepsiyasini tahlil etgan adabiyotshunos olim A.Rasulov shunday deb yozadi: «... mening nazarimda, «Mehrobdan chayon» romanining matnida serma’nilik, ramz, ishora nihoyatda kuchliday tuyuladi»(1,86). Darhaqiqat, bunday murakkab uslubni S. Husayn va siyosiy dasturlar bilan adabiy-estetik hodisaga yondashgan tanqidchilik tushunishi mumkin emas edi.

S. Husayn Kumushbibi obrazining yaratilishida Abdulla Qodiriy «mantiqsizlik»da ayblaydi. Uning nazarida eski turmushning shariat talablariga tayanishi to‘g‘ri. Biroq real hayotda shu shariat qonunlari to‘kis-tugal harakat qilmaydi. Undan amalda manfaat yuzasidan foydalaniladi. Ko‘rinadiki, S. Husayn qarashlarida ziddiyat mavjud. U bir jihatdan shariat qonunlariga asosan Abdulla Qodiriy mantig‘i asosli ekanligini e’tirof etadi. Ikkinchi tomondan o‘tmishda, hatto oilaviy hayot muammolari masalasida ham sinfiy kurash aks etmaganligini ko‘rganida astoydil darg‘azab bo‘lib ketadi.

S. Husayn shu mavqedan turib qarar ekan, Xushro‘ybibining insoniy tabiiy mayllariga asoslanuvchi shaddodligini asossiz deb biladi. Uning nazarida bu xarakter shakllanishida eskicha fikrdagi makkora xotin-qizlarning noto‘g‘ri tarbiyasi sabab qilib ko‘rsatilishi kerak ekan. S. Husayn Xushro‘ybibi obrazining romanga kirib kelishini asar xotimasi ta’sirchanligini oshirish maqsadida ataylab qilingan ish deb biladi: «Umuman romanda tip yo‘q, faqat ideallar bor degan fikrdaman» (2,138), – deb yozadi u.

S. Husayn Abdulla Qodiriy hech qanday yangi adabiy usul va priyom ijod qilmadi. U Jorj Zaydondan aynan foydalana turib, ifoda va tasvirda ancha mahorat ko‘rsatgan deb biladi. Muhimi, munaqqid Abdulla Qodiriy individualligini e’tirof etadi. Uslubdagi, ifodadagi mushtaraklik hech qanday ko‘chirmachilik emas deb biladi. U Abdulla Qodiriy tomonidan o‘ziga nisbatan bildirilgan: «... tanqidchi yozuvda,



tilda bir oz no‘noqroq yoki beparvo harakat qilsa kerakkim, uning jum-lalaridan bir qismi izohga muhtoj ko‘rindilar» (3,196), – degan ta‘kidi-ni to‘g‘ri va foydali deb e‘tirof etadi.

Nazarimizda, bu S. Husaynning Abdulla Qodiriyga yon bosishi emas, siyosatdan xoli bo‘lgan juz‘iy kamchilik ekani uchun tan olinish ekanligini e‘tiborga olish kerak.

S. Husayn Abdulla Qodiriyning hozirgi o‘zbek yozuvchilariga nis-batan so‘z va ifodani berishda, tasvirni hayajonli chiqarishda mahoratli ekanligini samimiy e‘tirof etadi. U ruhiy kechinmalarni berishda ba‘zan ijodkorning ifoda topolmay hayratda qolishini tushunadi, e‘tirof etadi. Demak, Abdulla Qodiriyning «qalamim ojizdir» – degan iqroring sabablarini tushunadi. Lekin, umuman, yozuvchilar oldiga talab qo‘yar ekan, bunday qalam ojizligi bilan hayratda qolish mumkin emas deb hisoblaydi. Mavjud material ustida ko‘proq fikrlash, yangi-yangi ifodalar ijod etish nafaqat mahoratli ijodkorlar safini kengaytiradi, bal-ki adabiy tilni ham boyitadi deb qalam ahlini faollikka da‘vat etadi.

Shubhasiz, bunday talablar endigina shakllanib kelayotgan yangi davr adabiyoti uchun haqli va o‘rinli edi. Biroq, S. Husayn yana siyosiy jihatga urg‘u berib, o‘z ojizligini arz qilish idealist romantik yozuv-chilarda uchraydir, deb ta‘kidlab qo‘yishni unutmaydi: «...ko‘rsatish emas, ular ustida hayajonli-tasviriy ifodalar bilan mulohazalar, xayollar yuritish birinchi o‘ringa qo‘yiladi. «Hayrat», «ojiz qolish», «noiloj»likning hammasi shundan. Ya‘ni, dunyoni boricha to‘g‘ri, to‘la moddiy tushunmaslik va chiza olmaslikdan kelib chiqadir» (2,149).

Demak, **ijodkorning o‘ziga xos uslubi** uning hayot hodisalarini tanlashi, uni xayolidagi olam bilan uyg‘unlashtirib, badiiy til vositasida akslantirishidir.

Qahramonlar ruhiyati, kechinmalari maromini ta‘sirchan ko‘rsata olish ham ijodkor uslubiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Primqul Qodi-rovning «Ona lochin vidosi» romanida bunday o‘rinlar bor: «Gavhar-shod begim Sohibqiron Amir Temur xonadoniga kelin bo‘lib tushgan-dan beri o‘nlab yillar davomida betashvish va bexavotir o‘tgan kunlari juda kam bo‘lgan. Mudom tog‘lar atrofida o‘ralashgan bulutlarning

shamol-boʻronlarini eslatuvchi urush-yurishlar, ichki-tashqi nizolarning girdobini koʻrgan. Toʻgʻri, begimning toleʻyiga Shohruh mirzo faqat qilich chopadigan bahodir yigit emas, balki madrasa koʻrgan, kitobni sevadigan, oilasiga astoydil mehr qoʻygan fozil inson boʻlib yetishdi. U bilan birga boʻlgan kunlarida Gavharshod begim oʻzini baxtiyor his qiladi» («Jahon adabiyoti» jurnali, 1997, 1-son. – B.121). Boshqa bir adib Gavharshod begimning bu kechinmalarini yana oʻzgacha tarzda ifodalashi mumkin.

Umuman, uslub ijodkorning oʻziga xosligini – uning xayol, tasavvuri koʻlami, inson qalbini his qilish darajasi, hayot hodisalari va kishilararo munosabatlar murakkabligini tahlil qilish layoqati, soʻz boyligini namoyon etuvchi hodisadir.

*Eliotning fikricha, yaxshi va yuzaki sheʼrlarni uchratishimiz mumkin. Poeziyada chuqur hissiyotlar boʻlishi shart. Bu chuqur hissiyotlar avtobiografik tabiatga ega boʻlmasligi lozim. Hissiyotlar shunday ifodalanishi lozimki, shoirning shaxsiy hayoti sheʼriyatiga taʼsiri oz boʻlishi lozim. Bundan tashqari, u ayni shu jihat yomon va yuzaki sheʼrlar yaratilishiga sabab boʻladi deb hisoblaydi. Bu fikri bilan u sheʼriyatdagi chuqur hissiyotlarga qarshi emas. U faqat oʻtkir hissiyotlar avtobiografik xarakterga ega boʻlmasligi lozim deb hisoblaydi.*

*Va nihoyat, anʼanaviy tarzda adabiyotshunoslik liberal gumanizmni va uning farazlarini shubhadan xoli deb hisoblaydi. U insonni – predmet sifatida, texnik maʼnoda – ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarga bogʻliq, mohiyatan – erkin shaxs deb hisoblaydi. Biz oʻzimizni, oʻz taqdirimizni oʻz qoʻllarimiz bilan yaratamiz. Mazkur maqsadlarga erishishda oldimizda tanlovlar bor. Taqdirimiz tanlovimizga bogʻliq.*

Ijodkor oʻz asarining boshiga, ilk jumlasiga juda qattiq eʼtibor qiladi, chunki uning asari shu soʻzlar bilan boshlanadi va oʻquvchi qalbiga sehrli kuy misoli oqib kiradi. Bundan tashqari, asar yakuni ham mukammal tarzda gʻoyaning tugallanishi, soʻnggi nuqtasi sifatida tasavvur

---

<sup>1</sup> Hans Bertens. Literary Theory. The basics, 2001, – page 12.

<sup>2</sup> Oʻsha asar. – page 24.



hosil qilishi zarur. Bu o'rinda O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanini misol sifatida keltirishning o'zi kifoya. «Rost bilan yolg'onning o'rtasi – to'rt enlik», degan gap bor. Qiziq nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi – to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas ko'rganingga ishon... Maqsad – shu. (boshlanishi)»<sup>1</sup>.

«Quyosh har kuni uyg'ongan zahoti jilmayib boqadi-yu unsiz xitob qiladi: Bir kiprik qoqgulik qisqagina umringizda tinch-totuv yashalaring bo'lmaydimi? Goh non talashasizlar, goh shon! Goh makon talashasizlar, goh imon? Axir hammangiz insonsiz-ku. Hammangiz mening bolalarimsiz-ku, men sizlarning otangizman-ku! Bir-birlaringiz bilan qirpichoq bo'laverishlaringizni ko'raverib charchab ketdim-ku! Yetar axir, yetar bolajonlarim! O'z onangizni – Yer kurrasini adoyi tamom qilib tinchimoqchimisiz?! Onangiz shu umidda tuqqanmidi sizni?! Shu niyatda ko'tarib yuribdimi ko'ksida!» (oxiri)<sup>2</sup>

Har bir ijodkor o'z asarini boshlanish nuqtasiga, ilk jumlasiga va tashiydigan ma'no, mazmuniga katta e'tibor beradi. Zero, har qanday asarning sarlavhasi shu asarning butun mazmun mohiyatini o'zida mujassam etsa, birinchi jumla, abzas shu mazmun-mohiyatning boshlovi hisoblanadi.

Har bir asarda, u xoh hajman katta bo'lsin, xoh kichik muallifning orzu-umidlari (bu garchi ramziy ma'noda bo'lsa ham) o'z ifodasini topishi ayni haqiqat. Ana shu orzu-umidlar asarda qatlam-qatlam tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa asar qatlamlarining ham o'rganilishi ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi.

Asar muallifi o'z asarini qoralar ekan, o'zi yaratgan obrazlar, qahramonlarni o'z farzandi kabi qabul qiladi, ularning hayoti, taqdiri bilan chambarchas bog'liq tarzda hayot kechiradi, ularning dardu alamini, orzu-tashvishlarini o'ziniki deb biladi, yig'lasa azob chekadi, kulsa xursand bo'ladi. Fransuz yozuvchisi Gyustav Flober o'z

<sup>1</sup> Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989. – B. 5.

<sup>2</sup> O'sha asar. – B. 536.

asari – «Bovari xonim»dagi qahramonni (Emmani), bu – menman, degan ekan. O‘zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriy esa, Kumushni o‘ldirib qo‘ygan kuni aza ochgan ekan. Yuqoridagi mi-sollardan ko‘rinib turibdiki, asar qahramonlarining qonida ularning yaratuvchisi – ijodkor yashirin bo‘ladi, aslida qahramon muallifning farzandidir.

Bilamizki, har bir badiiy asarda milliy ruh, qahramonlar millatini ko‘rsatish uchun marosimlar urf-odatlar va boshqalar bo‘ladi. To‘y esa ana shu marosimlarning eng muhimi hisoblanadi. To‘g‘ri, asardagi milliy ruhni berish uchun marosimlar tasviri zarur o‘rin tutadi, biroq bu ayni vaqtda millat ruhiga ham bog‘liq jarayon. To‘y marosimlari, asosan, o‘zbek (umuman olganda, O‘rta Osiyo xalqlari)lar uchun muhim. Boshqa xalqlarda esa, bu o‘rinda boshqa timsollar, voqealar ishlatiladi. Masalan, qardosh qirg‘iz adibi «Oltovlon va Yettinchi»da gruzin isyonchilarining ruhiyatini ko‘rsatmoq uchun may va qo‘shiqdan foydalanadi, o‘quvchi esa (shaxsan menda ham) asarni o‘qir ekan, isyonchilar aytayotgan vatan haqidagi, ona yurtning keng dalalari, purviqor tog‘lari to‘g‘risidagi qo‘shiqlari quloqlari ostida anchagacha jarang sochib turaveradi.

Qaysi bir asar bo‘lmasin undagi bosh qahramonlar voqealar to‘foni orasida goh-goh ko‘rinmay ketadi, go‘yo voqea, hodisalar bag‘riga singib ketgandek. Mana shunday paytda ijodkor ikkinchi yoki uchinchi darajali personaj – qahramonlar tasvirini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bunday usul orqali ijodkor bosh qahramon(lari)ni e‘tibordan chetda qoldirishni emas, balki kitobxon e‘tiborini ikkinchi, uchinchi darajali personajlarga jalb etish yo‘li bilan asosiy qahramonlari qanday muhit, sharoit va jamiyatda yashayotganini ko‘rsatishga intiladi. Boshqa tomondan ijodkorning maqsadi kitobxonni jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar va bu qatlamni hosil qiluvchilar bilan tanishtirishdir. Ma‘lumki, hech bir asarda bu qahramonlar asarning boshidan to oxirigacha bo‘y ko‘rsatmaydilar. Go‘yo bosh qahramonlarning uzoq yo‘lidagi bir manzildek tezda ortda qoladilar. Ular o‘z zimmalariga muallif tomonidan yuklangan vazifani o‘tagach, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladilar. Lekin, ulug‘ ijodkorlar bunday personajlarni shunday mahorat bilan yaratadilar, ular tarixi bilan mukammal tanishtiradilar,



katta asar ichidagi, kichik, ammo mustaqil bir asar kabi o'quvchi xotirasida mustahkamlanib qoladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «Obid ketmon»idagi «Bir kulki va bir tulki» kabi.

Asarda ikki xil bosh qahramonni uchratasiz, ulardan biri sizga yoqadi – u aqlli, mard, jasur, odil va oqil, biri esa sizning g'azabin-gizni qo'zg'aydi – razil, nomard qahramon sizning ta'bingizni tirriq qiladi. Bular asarning ijobiy va salbiy qahramonlaridir. Ularning o'zaro janglari tufayli asar voqealari yanada keskin sur'atda kechadi, siz esa hodisalar ummoniga – kitob mutolaasiga boshingiz bilan sho'ng'iysiz. Ma'lumki, muayyan asardagi personajlar obyektiga ijodkor-subyektning munosabati ikki qutbli bo'ladi. Birinchisi – ijobiy, ikkinchisi – salbiy. Shunga ko'ra asar qahramoni ham ijobiy yoki salbiy bo'ladi. Ijodkor o'z «yaxshi ko'rganlari»ning ham, «yomon ko'rganlari»ning ham qiyofasini yaratadi. Bosh qahramonning xarakteri, ma'naviy dunyosi, shubhasiz, boshqa qahramonlarniki kabi voqealar rivoji bilan ochila boradi.

Prozaik asarlarda badiiy tasviriy-ta'sirchan vositalardan foydalanish imkoni cheksizdir. Ana shunday badiiy tasvirlardan biri personajlarning ichki nutqi – monologi hisoblanadi. «Qutlug' qon» romanida kitobxon faqat asosiy qahramonlarning emas, balki ayrim ikkinchi, hatto, uchinchi daraja personajlarining ham o'z boshlariga tushgan ko'rgiliklari, qalb kechinmalarini ichki monolog yordamida yuzaga chiqarilganini payqaydi. Ichki monolog obrazning ichki ruhiyatini ko'zgdagi kabi yaqqol ko'rsatishning eng ma'qul yo'li hisoblanadi. Ijodkor qahramonning ba'zi kechinmalarini o'z tilidan bergani ma'qul, ammo personajning ovoz chiqarib gapirishi biroz noqulay holat. Yoki yozuvchining o'z tilidan «Palonchi bunday o'yladi», deyishi ham notabiiy. Bu o'rinda personajning ichki nutqi juda katta ko'mak beradi. Qahramon qaysidir voqea, hodisa tufayli tilga kiradi (ichida albatta), so'zlaydi, hech kimga aytmagan so'zlarini, dardlarini

---

<sup>1</sup> *Toxirov Z. Ijod laboratoriyasi. –T.:Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013. – B. 32–33.*

o'quvchiga to'lib sola boshlaydi. Bu esa qahramon tasvirining yanada mukammallashishini, tiniqlashishini ta'minlaydi.

Ijodkor ayrim hollarda izchil tasvirni shartta uzib, boshqa mavzuga o'tadi, bu usuldan o'rni bilan foydalanadi. Albatta bunda personajning «sir saqlash»ini ta'minlaydi. Chunki, bu vaqtda qahramon murakkab holatga tushib qoladi, asar niyatini yuzaga chiqarishi maqbul kelmaydi.

So'z, til – adib qo'lidagi eng asosiy qurol. So'z adib qurgan mustahkam qal'aning g'ishtlari, ularni bir tekis, bir-biriga bog'lab terib chiqsagina qal'a – asar mustahkam va asrlar bilan bahs boylashadi, kelajak avlodlarga o'z bunyodkori xabarini yetkazadi. Ayni vaqtda, so'z juda qudratli kuchdir. Terib-terib aytilgan so'zlar ulkan urushni boshlashi va yoki uni bartaraf etishi mumkin. Atoqli adibimiz Abdulla Qahhor aytgani kabi, so'z atom bombasidanda kuchli, uni xashaki ishlarga safarbar etib bo'lmaydi.

Har bir ijodkor, avvalo, xalq tilini yaxshi bilishi lozim. «Narsa, voqea va hodisalarni aniq, ravon, yorqin, tushunarli anglatishi uchun xalq tili o'z bag'rida noyob javohirlarni saqlovchi ummondir». Ijodkor esa mana shu ummonga chuqur sho'ng'iy oluvchi g'avvos bo'lishi kerak. Shunda u ushbu tildan, uning boy xazinasidan xohlagancha foydalana oladi. Ijod mahsulida o'nlab maqollar, qochirimlar, maxsus ifodalar, o'xshatishlar, so'z o'yinlari, takror qo'llanmalar bor rangi bilan tovlanadi. Agar ijodkor shularga muvaffaq bo'lsa, uning asari ham jonli, obrazli tilga ega bo'ladi.

Asardagi barcha personajlar – ular asosiy qahramonlar bo'ladimi yoki ikkinchi, uchinchi darajalimi, baribir hammasi o'z tilida so'zlaydi. Adib ularning o'z nutqidan foydalanib, muayyan shaxs-personaj tavsifini yaratadi. Har bir personaj o'ziga yarashiq tilda so'zlaydi (aslida, ijodkor tomonidan so'zlaniladi) va o'zlarining kim ekanligini ko'rsatadi. Iste'dod egasi bo'lmish ijodkor, turli tabaqa vakillarining nutqini, so'zlash tarzini yaxshi bilishi talab qilinadi. Bu o'rinda buyuk adiblarning xalq ichida ko'p bo'lishga harakat qilganliklarini tushunsa bo'ladi.

Har bir ijodkorning asarlarida rang-barang obrazlar, o'xshatish, tashbehtar ma'lum darajada bo'ladi. Asar nasrdami, nazmdami, bundan



qat'iy nazar, lirik chekinmalar, manzara, qiyofa tasviri g'amgin, shodon holatlar, shunga mos tabiat ko'rinishlaridan xoli bo'lmaydi, bo'lishi ham mumkin emas. Bularning barchasiga ijodkor til lug'at boyligidagi so'zlardan foydalanish, ularni uslubiy qo'llash orqali erishadi. Bu orqali (ya'ni chekinishlar) muallif asari qahramoni holati, kechinmalarini tasvir yordamida ifodalaydi. Bu hatto qahramonning o'zining tasviri bo'lmasligi ham mumkin, bu tabiat, atrofdagi voqealar, shahar yoki qishloqning qaysidir ko'rinishi bo'lishi mumkin. Va bu o'quvchining ham tasavvur doirasida xuddi film kartinalari kabi birma-bir o'tib boraveradi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rindiki, ijodkorning tili va uslubi oddiy xabar, kitobxon bilan personajlar o'rtasidagi kommunikatsiya tilidan butkul farqlanadi. U hamma bilgan, hamma eshitgan, hamma qo'llay oladigan tildan o'zining badiiy go'zalligi bilan tubdan farq qiladi.

«Ijod laboratoriyasi deganda, tabiiyki, umumiy fikrlar tushuniladi. Lekin har qanday umumiylikka xususiylikdan borgan ma'qul ko'rinadi. Shu ma'noda biz ushbu qo'llanmada umuman ijod laboratoriyasi haqida fikr yuritgan holda uni ochib berish uchun xususiy ijod laboratoriyalariga murojaat etdik, ya'ni fikr isboti uchun Oybek, qisman Abdulla Qodiriy ijodiy laboratoriyasiga murojat qildik, – deydi Zoir Tohirov kitobi xulosasida, – Aslida har bir ijodkor u xoh dongdor bo'lsin, xoh o'rtacha bo'lsin individual ijod olamiga ega bo'ladi va mana shu olamining kengligi, yuksakligi darajasiga ko'ra ijodiy sohada o'z maqomiga ega bo'ladi, ya'ni uning ijodkorlik salohiyati belgilanadi. Oybek ham boshqa- o'zbek ijodkorlari, xususan, Abdulla Qodiriy izidan borib, o'zbek romanchiligining rivojlanishiga ulkan hissa qo'sha olgan, o'zbek badiiy adabiyotining badiiy tasvir imkoniyatlaridan ijodiy foydalanib, uni yuqori kengliklarga olib chiqqan adibdir. G'afur G'ulom, asosan, poetik ijodkor esa-da, poeziyada ham zabardast. Shular tufayli o'zbek adabiy tilining olmosdek yangi qirralari ochilib, jilolar rang-barangligi ortadi.

Hozirgi kunga kelib ijod laboratoriyasi janr jihatidan boy va uslublari ham rang-barang. Adabiyotimizning bugungi yuksak badiiy darajasi ijodning barcha sohasida, u badiiy ijod bo'ladimi yoki publitsistik ijod

bo'ladimi, yuksak saviyada bo'lishini ta'min eta oladi. Boisi Abdulla Qodiriyning romanlari, Cho'lponning «Kecha va kunduz», Oybekning «Qutlug' qon», «Navoiy» asarlari, G'afur G'ulomning «Shum bola»si, O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari»ning har biri alohida ijod laboratoriyasi sifatida tadqiq etishga loyiq. Mana shularni chuqur o'rga-nib, so'ng ijod laboratoriyasi xususida so'z yuritish joizdir. Yuqoridagi adiblar har birining ijod laboratoriyasi misoli daryolardek bir dengizda tutashadi. Bu dengiz esa o'zbek ijodchiligi dengizidir. Bu dengiz ha-misha unga sho'ng'imoqchi bo'lgan g'avvoslarni o'z ajoyibotlari bilan lol qoldiradi. Ijodkor bo'laman degan inson borki, bu dengizdan – ijod laboratoriyasidan o'rganishi kerak. Ammo faqat o'rganibgina qolmay, uni o'z individual ijodiyotidagi yangi-yangi topilmalar bilan boyitishi- ham farz, ham qarz hisoblanadi. Shunda ijodning manguga daxldor namunalari dunyoga keladi, kelgusi ijodkor avlod uchun ibrat bo'lib qoladi»<sup>1</sup>.

Muallifning, ayniqsa, «Ijodkor bo'laman degan inson borki, bu dengizdan – ijod laboratoriyasidan o'rganishi kerak», degan gapi to'g'ri, ayni haqiqat. Chunki ijodkorlar shunchaki tug'ilmaydi (rost, biz bu o'rinda iste'dod tushunchasini butunlay yo'qqa chiqarmoqchi emasmiz, Alloh yuqtirgan qobiliyat bo'lmasa odam bolasi bir qadam ham tashlay olmagan bo'lur edi), ular tarbiyalanadi, ijodkor bo'lib ulg'ayadi. U o'zidan oldin kelgan asarlarni o'rganibgina o'z g'oyasini qanday qilib auditoriyaga yetkazish lozimligini, so'z ustida qanday ishlash kerakligini tasvirlashni o'rganadi. O'zi esa keyinchalik yangicha usul bilan o'quvchi ko'ngliga kirib boradigan asarlar yaratadi.

### **Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Hans Bertens*. Literary Theory. The basics, 2001, – pages 12, 24.
2. *Boboyev T.* Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: «O'zbekiston». 2000.

---

<sup>1</sup> *Tohirov Z.* Ijod laboratoriyasi. –T.: Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013. – B. 57.



3. *Boltaboyev H.* Nasr va uslub. – T.: «Fan». 1992.
4. *Sultonov I.* Adabiyot nazariyasi. – T.: «O‘qituvchi». 2005.

### **Mavzuga doir mustaqil ish topshiriqlari**

1. Siyosiy, shaxsiy, tabiat lirikasi.
2. Satira, yumor ham mustaqil ijod turi sifatida.
3. Kulgu tug‘dirish shakllari.
4. Badiiy adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik masalasi.
5. Badiiy asarda estetik ideal muammosi.
6. Adabiyotda mazmun va shakl birligi.
7. Ijtimoiy g‘oya va badiiy g‘oya o‘rtasida umumiy va farqli jihatlari.
8. Badiiy asarda fabula, sujet va kompozitsiya.

### **Mavzu yuzasidan savollar**

1. An‘ana va yangilanishlar deganda nimani tushunasiz?
2. Sharq adabiyotida an‘anaviylikning o‘ziga xos xususiyatlari qanday?
3. Zamonaviy adabiyotda ijodkor uslubidagi o‘ziga xosliklarni aytib bering.

### **Test savollari**

1. Yozuvchi, shoirning «xat»(uslub)i uning asarlarida qay tarzda namoyon bo‘ladi?
  - A. Tili, qahramonlarining so‘zlash tarzida;
  - B. Voqealarning tanlab olinishida;
  - C. Bayon etilishida;
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

2. O'ziga xos uslubga egalik ijodkorda nimalar bo'lishini taqozo etadi?

- A. Hayotiy tajriba, turmushni kuzatish;
- B. Bilim daraja, did, saviya, dunyoqarash birligi;
- C. Qonun-qoidaga rioya, tartiblilik;
- D. A va B javoblari to'g'ri.

3. Shoir, yozuvchining qiziqishi, fe'l-atvori, ichki dunyosi uning nimasini ko'rsatadi?

- A. Uslubini; B. Obrazini; C. Ma'nosini; D. Muomalasini.

4. Ijodiy uslubda tilning ahamiyati qay darajada muhim sanaladi?

- A. Ijodiy uslub asarning tili orqaligina aks etadi;
- B. Ijodiy uslub deganda asarning tilinigina nazarda tutmaslik kerak;
- C. Tilning uslubga umuman bog'liqlik jihati yo'q;
- D. Ijodkor tili doim qaysi tilda yozilganiga bog'liq bo'ladi.

5. «Bayon tarzi», «fikrni ifoda etish mahorati» ijodiy uslub tushunchasiga bog'liqmi?

- A. Ushbu ikki tushuncha ijodiy uslubni to'liq aks ettiradi;
- B. Bu tushunchalar ijodiy uslubni ifodalamaydi;
- C. Ushbu ikki tushuncha ijodiy uslubni qisman aks ettiradi;
- D. Ijodkor uslubida faqat «bayon tarzi»gina bo'ladi.

6. Ijodkor uslubi shakllanishida tashqi omillarning ahamiyati qanday?

- A. Tashqi omillarning ahamiyati yo'q;
- B. Tashqi omillarning ahamiyati bor;
- C. Faqat tashqi omillargina shakllantiradi;
- D. Ichki omillar bo'lmasa tashqi omillarning ta'siri seziladi.



7. Ijodkor xayolotining namoyon bo'lish tarzi nima?

A. Fazilat;

B. Uslub; C.

Husnixat; D.

Xayol.

8. Ijodkorning o'ziga xos uslubi deganda nimani tushunasiz?

A. Voqealarni o'ziga xos ta'riflash;

B. Til vositalaridan foydalana olish;

C. Uning hayot hodisalarini tanlashi, uni xayolidagi olam bilan uyg'unlashtirib, badiiy til vositasida akslantirishidir;

D. Badiiy obrazlarning o'ziga xosligi.

9. «So'z, til – adib qo'lidagi eng asosiy quroldir» ta'rifiga yaqin fikrni toping.

A. Til eng buyuk qurol;

B. Adabiyot so'z san'ati;

C. Adabiyotda so'zning o'rni beqiyos chunki u ijodkor mahoratini yuzaga chiqaradi;

D. So'z adabiy hodisa.

## FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### «Keys-stadi» metodi

«Keys- stadi» – inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodi-  
sa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil  
qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.  
Mazkur metod dastlab 1921-yilda Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan  
iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan.  
Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil  
uchun foydalanish mumkin.

Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who),  
Qachon (When), Qayerda (Where),

Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima (What).

### «Aqliy hujum»

#### metodini amalga oshirishning qonun-qoidalari:

- fikrlar xilma-xilligi asosiy maqsad ekanligini anglash;
- barcha fikr-mulohazalar ahamiyatli ekanligini qatʼiy hisobga olgan holda talabaga nisbatan hech qanday bosim oʻtkazmaslik va uni tanqidiy qabul qilmaslik;
- oʻz fikrini bildirmoqchi boʻlganlarga imkoniyat yaratish;
- fikr-mulohazalar qaytarilishini xotirjam qabul qilish;
- oʻzaro hech qanday baholash va tanqidning boʻlmasligiga erishish;
- oʻzini vazmin va xotirjam tutish, oʻzaro mulohazalarni bildirayotganlarga muomala madaniyati asosida munosabatda boʻlish;
- qiziqarli va asosli fikrlarni rivojlantirish;
- bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ilm-fan tomonidan eʼtirof etilgan xulosa, yondashuv va fikr-mulohazalarni talabalarga yetkazish;
- dars jarayonidagi ishtirokchilarning barchasini oʻzaro hurmat, boshqalar fikrini tinglash va tahlil qilishda qanoatli boʻlishga chaqirish.



## **Metodini amalga oshirishdagi taxminiy savollar**

1. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari nima?
2. Adabiyot nazariyasi nimani o'rganadi?
3. Adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasini qanday tushunasiz?
4. Adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi o'zaro farqli va mushtarak xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

*Izoh:* Metodni amalga oshirish jarayonida taxminiy savollardan professor-o'qituvchi tomonidan guruh talabalari uchun mos deb hisoblangan ikki yoki uchta berish maqsadga muvofiq. Shuningdek, talabalar guruhi bilim darajasidan kelib chiqib savollar qatorini yanada boyitish yoki kengaytirish mumkin.

### **«Idrok xaritasi»**

Talabalarning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'lagan ketma-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi.


Metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Ushbu metodni amalga oshirish jarayonida talabalar guruhlarga ajratiladi. Metodning qonun-qoidasi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga kalit so'z yozilgan qog'ozlar tarqatiladi. Kalit so'zlarni asosiy chiziq bilan bog'lab, tushunchalar yoziladi. Ular to'g'ri ketma-ketlikda qo'yilganda quyidagi ko'rinishni hosil qiladi.

Guruhlarning metod asosidagi topshiriqni bajarganligi bo'yicha o'zlashtirgan ballari aniqlangach, slayd yordamida guruhlarga berilgan topshiriqning to'g'ri bajarilgan varianti (agar topshiriq ikki yoki undan

ko‘p bo‘lsa ular ketma-ket) namoyish etiladi. Bu esa, nafaqat alohida guruh, balki barcha talabalarning mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlash hamda ularda mavzu yuzasidan vujudga kelgan tushunmovchilik yoki savollarga qisqa vaqt davomida aniqlik kiritish va javob berish imkoniyatini yaratadi.

### «Klaster»

Fikrlarning tarmoqlanishi – talabalarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Ular to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘yilganda quyidagi ko‘rinishni hosil qiladi:





## «Rezyume»

Mazkur metod talabalarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosi yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatadi.

Bu metodda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zarurlari belgilanadi. Shuningdek, metodni o‘tkazishda quyidagi tartib-qoidalarga amal qilinishi lozim:

– o‘qituvchi talabalarning soniga qarab, 3–5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

– o‘qituvchi talabalarni mashg‘ulot maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiradi;

– har bir guruh a’zolari qog‘ozda belgilangan muammoning afzallik va kamchiliklarini aniqlab, o‘z fikrlarini yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoning yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

– har bir guruhning a’zolaridan biri tayyorlagan materialni jamoa nomidan taqdimot qiladi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o‘qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;

– o‘qituvchi boshqa guruh a’zolaridan taqdimot etgan guruhning xulosasini so‘rab, ularning fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so‘ng taqdimot guruhi o‘z xulosasi bilan tanishtiradi;

– o‘qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so‘ngra mashg‘ulotni yakunlaydi.

Quyida metodni o‘tkazish uchun berilgan mavzu va unga tegishli topshiriqlarni havola etamiz:

Afzal- ligi	Kamchi- ligi	Afzal- ligi	Kamchi- ligi	Afzal- ligi	Kamchi- ligi	Afzal- ligi	Kam- chiligi
Xulosa:							

### «Suhbat ma'ruza»

#### metodini amalga oshirishning qonun-qoidalari:

- fikrlar xilma-xilligi asosiy maqsad ekanligini anglash;
- barcha fikr-mulohazalar ahamiyatli ekanligini qat'iy hisobga olgan holda talabaga nisbatan hech qanday bosim o'tkazmaslik va uni tanqidiy qabul qilmaslik;
- o'z fikrini bildirmoqchi bo'lganlarga imkoniyat yaratish;
- fikr-mulohazalar qaytarilishini xotirjam qabul qilish;
- o'zaro hech qanday baholash va tanqidning bo'lmasligiga erishish;
- o'zini vazmin va xotirjam tutish, o'zaro mulohazalarni bildirayotganlarga muomala;
- madaniyati asosida munosabatda bo'lish;
- qiziqarli va asosli fikrlarni rivojlantirish;
- bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ilm-fan tomonidan e'tirof etilgan xulosa, yondashuv va fikr-mulohazalarni talabalarga yetkazish;
- dars jarayonidagi ishtirokchilarning barchasini o'zaro hurmat, boshqalar fikrini tinglash va tahlil qilishda qanoatli bo'lishga chaqirish.



## **Metodni amalga oshirishdagi taxminiy savollar**

1. San'at turlarining farqlanishi tamoyillari qanday?
2. Adabiyot va estetik kategoriyalar o'rtasidagi uzviylik nimada?
3. Badiiy adabiyot va hayot haqida tushuncha.
4. Badiiy asarning umrboqiylik asoslari nimada?

**Izoh:** Metodni amalga oshirish jarayonida taxminiy savollardan professor-o'qituvchi tomonidan guruh talabalari uchun mos deb hisoblangan ikki yoki uchtasini berish maqsadga muvofiq. Shuningdek, talabalar guruhi bilim darajasidan kelib chiqib savollar qatorini yanada boyitish yoki kengaytirish mumkin.

### **«TUSHUNCHALAR TAHLILI»**

#### **metodini amalga oshirishning qonun-qoidalari:**

- fikrlar xilma-xilligi asosiy maqsad ekanligini anglash;
- barcha fikr-mulohazalar ahamiyatli ekanligini qat'iy hisobga olgan holda talabaga nisbatan hech qanday bosim o'tkazmaslik va uni tanqidiy qabul qilmaslik;
- o'z fikrini bildirmoqchi bo'lganlarga imkoniyat yaratish;
- fikr-mulohazalar qaytarilishini xotirjam qabul qilish;
- o'zaro hech qanday baholash va tanqid bo'lmasligiga erishish;
- o'zini vazmin va xotirjam tutish, o'zaro mulohazalarni bildirayotganlarga muomala madaniyati asosida munosabatda bo'lish;
- qiziqarli va asosli fikrlarni rivojlantirish;
- bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ilm-fan tomonidan e'tirof etilgan xulosa, yondashuv va fikr-mulohazalarni talabalarga yetkazish;
- dars jarayonidagi ishtirokchilarning barchasini o'zaro hurmat, boshqalar fikrini tinglash va tahlil qilishda qanoatli bo'lishga chaqirish.

## **Metodni amalga oshirishdagi taxminiy savollar**

1. Badiiy va ijtimoiy g'oya deganda nimani tushunasiz?
2. Obyektiv g'oya nima?
3. Mavzu va g'oya munosabatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni izohlab bering.
4. Shakl keng ma'nodagi obrazlar strukturasi bo'la oladimi?
5. Sujet va kompozitsiya haqidagi birlamchi fikrlaringiz qanday?
6. Sujet tiplari qaysilar?
7. Xronotop tushunchasini izohlang.

**Izoh:** Metodni amalga oshirish jarayonida taxminiy savollardan professor-o'qituvchi tomonidan guruh talabalari uchun mos deb hisoblangan ikki yoki uchlasini berish maqsadga muvofiq. Shuningdek, talabalar guruhi bilim darajasidan kelib chiqib savollar qatorini yanada boyitish yoki kengaytirish mumkin.



## GLOSSARIY

**Adabiyot** – arabcha soʻz boʻlib, «odob» (koʻplik shakli «adab») soʻzidan olingan.

**Adabiyotshunoslik** – soʻzi ikki qismdan iborat boʻlib, u «adabiyot bilan shugʻullanish», «adabiyotni oʻrganish» maʼnosini anglatadi. Bundan ayon boʻladiki, adabiyotshunoslik adabiyot haqidagi fandır.

**Adabiyot tarixi** – adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning oʻziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini oʻrganadi.

**Adabiyot nazariyasi** – adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bogʻliqlikni, soʻz sanʼatining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bogʻliq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning oʻziga xos xususiyatlarini, badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yoʻnalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni oʻrganadi.

**Adabiy tanqid** – joriy adabiy jarayonni tahlil qiladi. Yaratilayotgan asarlarning gʻoyaviy-estetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo boʻlayotgan oʻzgarish, yoʻnalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga taʼsiri haqida fikr bildiradi.

**Filologiya** – grekcha soʻz boʻlib, philo – sevaman, logos – soʻz, bilim demakdir.

**Obraz** – soʻzining oʻzagi «raz» (chiziq) boʻlib, undan «razit» (chizmoq, yoʻnmoq, oʻymoq), undan «obrazit» (chizib, oʻyib, yoʻnib shakl yasamoq) paydo boʻlgan. Ana shu «obrazit» soʻzidan «obraz» atamasi vujudga kelgan. Bu soʻz «umuman olingan tasvir» maʼnosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashtirilgan xususiyatni oʻzida gavdalantirgan hodisadir.

**Badiiylik** – hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini taʼsirlantiradigan, unda tasavvur uygʻotadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha sanʼat turlariga xos hodisa.

**Badiiy toʻqima** – obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni oʻylab topish.

**Realistik obrazlar** – xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar.

**Romantik obrazlar** – ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosi. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to‘g‘risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo‘ladi.

**Xayoliy-fantastik obrazlar** – romantik obrazlarga o‘xshab ketadi. Bu obrazlarda ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo‘ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo‘jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko‘rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin.

**Majoziy obrazlar** – muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlar. Jumladan, so‘fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muqabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.

**Allegorik obrazlar** – majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo‘ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe‘l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko‘rsatiladi.

**Xarakter** – o‘z xatti-harakatlari, maqsad, intilishlari, o‘y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe‘l-atvori bilan alohida ajralib turadigan to‘laqonli obrazdir. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo‘la olmaydi. Asardagi yetakchi qahramon har jihatdan faol bo‘lsa, o‘zining barcha jihatlari bilan yorqin ko‘rinib tursagina u badiiy xarakter bo‘la oladi.

**Personaj** – badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan badiiy xarakter darajasiga ko‘tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi.

**Shakl va mazmun** – voqea-hodisalarning tashqi ko‘rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

**Mavzu** – ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasi. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir.

**G‘oya** – ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma‘lum bir izga solib turadi.



**Konflikt** – lotincha «conflictus» soʻzidan olingan boʻlib, «toʻqnashish» degan maʼnoni bildiradi. Ziddiyat, toʻqnashuv hayot taraqqiyotini taʼminlovchi asos boʻlgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli boʻlishining yetakchi vositasidir.

**Kompozitsiya** – lotincha «compositio» soʻzidan olingan boʻlib, «tuzilish, qurilish, tarkib» demakdir. Badiiy asar kompozitsiyasiga quyidagicha taʼrif-tavsif berish keng tarqalgan: «Badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining maʼlum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi»-.

**Sujet** – fransuzcha «sujet» soʻzidan olingan boʻlib, «narsa, mazmun, mavzu» degan maʼnoni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar oʻrtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.

**Fabula** – lotincha «fabula» soʻzidan olingan boʻlib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos boʻlgan hayotiy material nazarda tutiladi. «Fabula – asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bogʻliqlikdagi yaxlit silsilasi» ham deyiladi. Oʻz maʼno va mohiyatiga koʻra bu ikki termin bir-biriga sinonimik xarakterga ega boʻlib, hozirgi adabiyotshunoslikda sujet termini faol qoʻllanadi. Fabula termini esa, asta-sekin isteʼmoldan tushib qolmoqda».

**Ekspozitsiya** – lotincha «expositio» soʻzidan olingan boʻlib, «tushuntirish» degan maʼnoni anglatadi. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, qahramonlar unib-oʻsgan muhit shart-sharoiti kabilar tasviri ekspozitsiya deb yuritiladi. Ekspozitsiya asarning istalgan oʻrnida boʻlishi mumkin.

**Tugun** – badiiy asarda qahramonlar oʻrtasidagi ziddiyatlarning paydo boʻlishi. Tugun, koʻpincha, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror jiddiy muammo yuzasidan tortishishi tufayli paydo boʻladi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar oʻrtasida emas, qahramonning aynan oʻzining oʻy-kechinmalari bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkin.

**Voqea rivoji** – sujetdagi voqealarning maʼlum tugundan soʻnggi rivojlanish jarayoni. Tugun toʻsatdan yuzaga kelganday boʻlishi mumkin. Biroq voqea rivoji uzoq davom etadigan jarayon.

**Perepetiya** – sujet voqealari rivoji davomida paydo boʻlgan yangi tugunlar yoki chigalliklar.

**Voqealar kulminatsiyasi** – asar sujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko‘tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko‘rsatadigan epizod.

**Yechim** – sujet voqealari va qahramonlar taqdirining hal bo‘lishini gavdalandiruvchi epizod.

**Muqaddima** – muallif o‘quvchiga o‘z maqsad-muddaosini ma’lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi.

**Xotima** – qahramonlarning asar sujeti voqealari tamom bo‘lgandan keyingi taqdiri haqida ma’lumot beruvchi qismi.

**Portret** – fransuzcha «portrait» so‘zidan olingan bo‘lib, «tasvir» degan ma’noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo‘ladigan omillar orasida eng muhimidir. Chunki yozuvchi voqealarda ishtirok etayotgan, o‘ylayotgan, qanaqadir maqsadlari bo‘lgan qahramon qiyofasi, ko‘rinishini albatta gavdalandiradi. Qahramon portreti uning suratini ko‘rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o‘zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo‘ladi.

**Detal** – ijodkor e’tiborini qaratgan personajlar ko‘rinishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to‘g‘risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa detallar asosida hosil bo‘ladi. Detal qahramon portretini emas, uning fe’l-atvorini ko‘rsatishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon xarakter-sajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalandirishga ham asos bo‘ladi.

**Lirik chekinish** – ijodkorning sujet voqealarini to‘xtatib, ular tufayli o‘zida paydo bo‘lgan ichki kechinmalarni bayon etishi.

**Peyzaj** – fransuzcha «paysage» so‘zidan olingan bo‘lib, «mamlakat», «joy» degan ma’noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqea-hodisalar kechgan joylar ko‘rinishi tasviridir. U qahramonlar holati, kayfiyatini gavdalandirishning muayyan vositasi hisoblanadi.

**Sayyor sujet** – bir xil mavzu, bir xil qahramonlar taqdiri naql qilingan asarlar. Sayyor sujet barcha milliy adabiyotlar tarixida mavjud hodisa.



**Badiiy asar tili** – adabiy til me'yorlariga tayanadigan, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik, aforizm kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.

**Dialog** – yunoncha «dialogos» so'zidan olingan bo'lib, «ikki kishi o'rtasidagi so'zlashuv» degan ma'noni anglatadi.

**Monolog** – ham yunoncha (monos – bir va logos – so'z, nutq) so'z bo'lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

**Jargon** – fransuzcha so'z bo'lib, «buzilgan til» degan ma'noni bildiradi. Binobarin, jargon sun'iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo'llanadi. Jargon so'zlar ham barcha kishilarning-nutqida ishlatiladigan so'z, iboralardan tarkib topgan bo'ladi.

**Metafora** – yunoncha «metaphora» so'zidan olingan bo'lib, «ko'chirish» degan ma'noni anglatadi. U narsa-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan bo'ladi. Biroq metafora aynan o'xshatish emas.

**Metonimiya** – ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim. Metonimiya yunoncha metonomadzo so'zi bo'lib, «qayta nomlash»dir.

**Sinekdoxa** – yunoncha «synekdoche» so'zidan olingan bo'lib, unda bir qism yoki bo'lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va ak-sincha. Ya'ni, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo'laki haqida mulohaza yuritiladi.

**Allegoriya** (majoz) – yunoncha allos – boshqa, o'zga va agoreuo – gapiraman, demakdir. U ertak va masallarda, ayniqsa, keng qo'llanadi. Masalan, tulki qiyofasida ayyor kishilar nazarda tutiladi. Chumoli mehnatkash, zahmatkash odamlar timsoli sanaladi. Allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng o'ng'ay shakli hisoblanadi.

**Jonlantirish** – kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko'chirish. Masalan, xo'mraygan bulutlar deyiladi. Bunda kishilarga xos xo'mrayish jonsiz bulutga ko'chirilgan bo'ladi.

Asarlarda tog‘- tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi.

**Sifatlash** – narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko‘rsatish. Sifatlash ikki xil bo‘ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo‘lib, unda narsa-hodisalarning o‘tkinchi belgilari ta’kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo‘lib, bunda narsa-hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

**O‘xshatish** – narsa-buyumning ma’lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirish. O‘xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkonini beradi.

**Mubolag‘a** – narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlash. Mubolag‘a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi.

**Intonatsiya** – lotincha «intonare» so‘zidan olingan bo‘lib, «qattiq talaffuz etish» degan ma’noni bildiradi. U so‘zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi. Badiiy asarda intonatsiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.

**Parallelizm** – ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon qo‘yish orqali mazmunni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo‘l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta’sirchanligi kuchaytiriladi.

**Takror** – parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko‘rinib turadi, chunki takror ayrim so‘z, iboralarning ma’lum bir tartib asosida qayta-qayta takror muayyan maqsadga muvofiq qo‘llanadi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko‘rinishlari bor.

**Anafora** – yunoncha «anaphor» so‘zidan olingan bo‘lib, «yuqoriga ko‘tarilish» degan ma’noni bildiradi. Bunda bir xil so‘z yoki so‘z birikmasi she’r misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.

**Inversiya** – lotincha «inversi» so‘zidan olingan bo‘lib, «o‘rin almashtirish» degan ma’noni bildiradi. Bunda gap bo‘laklari grammatika me’yorlari tartibidan farqliroq tarzda qo‘llanadi. Inversiya ta’kidlan-



moqchi bo'lgan fikrga mantiqiy urg'u berish, uni kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llanadi.

**Antiteza** – fikr ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llanadigan ifoda usullari. U qarama-qarshi fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

**Ritorik murojaat** – tantanavorlik, ko'tarinkilik yoki kesatish, kuchli- g'azab, nafratni ifodalash uchun qo'llanadigan xitob shaklidagi ifoda usuli.

**Sillabik she'r tizimi** – bo'g'inlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalq she'riyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she'riyati ham sillabik she'r tizimiga mansubdir.

**Metrik she'r tizimi** – bo'g'inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she'riyati shunday xususiyatga ega.

**Sillabo-tonik she'r tizimi** – urg'uli, urg'usiz bo'g'inlarning ma'lum tartibda kelishiga asoslanadi. Rus she'riyati shundaydir.

**Tonik she'r tizimi** – misralarda urg'usiz bo'g'in qancha bo'lishidan qat'iy nazar, ritm hosil bo'lishi, urg'ularning bir maromda kelishiga asoslanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: «O'zbekiston». 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: «O'zbekiston». 2019.
3. *Hans Bertens.* «Literary Theory. The basics». First published 2001.
4. *Terry Eagleton.* Literary Theory. Bleckwell Publishers Ltd, 2003.
5. *Dominick Lacapra.* History, literature, critical theory. Cornell university press. 2013
6. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. Epos. – T.: «Fan», 1991. 2-jild. Lirik. – T.: «Fan», 1992.
7. *Vohidov R., Eshonqulov N.* O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T.O'Z UI Adabiyot jamg'armasi nashriyoti; 2006.
8. *Karimov N., Nazarov B., Normatov U., Mamajanov S., Sharafiddinov O.* XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. «O'qituvchi» 1999.
9. *Nazarov B., Rasulov A., Ahmedova Sh., Qahramonov Q.* O'zbek adabiy tanqidi tarixi. –T.: Tafakkur qanoti, 2012.
10. *Normatova Sh.* Jahon adabiyoti. –T.: «Cho'lpon», 2008.
11. *Yo'ldoshev Sa'dulla va boshq.* Qadimgi va o'rta asrlar G'arbiy Yevropa falsafasi. –T., 2003.
12. *Yo'ldoshev S. va boshq.* Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. –T., 2002.
13. *Boboyev T.* Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: «O'zbekiston», 2000.
14. *Sulton I.* Adabiyot nazariyasi. – T.: «O'qituvchi». 2005.
15. *Уеллек Р., Уоррен О.* Теория литературы. – М., 1978.
16. *Arastu.* Poetika. Axloqi kabir. – T.: «Yangi asr avlodi». 2004.
17. *Бахтин М.М.* Эстетика словесного творчества. – М.: «Искусство», 1979. – С. 424.
18. Гадамер Г. Актуальности прекрасного. – М., 1991.



19. *Jo'raqulov U.* Hududsiz jilva. – T.: «Fan». 2006.
20. *Karimov B.* Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – T.: «Fan». 2006.
22. *Normatov U.* Ustoz ibрати. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
22. *Rasulov A.* Tanqid, talqin, baholash. – T.: «Fan». 2006.
23. *Sarimsoqov B.* Badiiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004.
24. *Sharafiddinov O.* Ijodni anglash baxti. – T.: «Sharq». 2004.
25. *Quronov D.* Cho'lpon nasri poetikasi. – T.: «Sharq». 2004.
26. *Hojiahmedov A.* Mumtoz badiiyat malohati. – T.: «Sharq». 1999.

#### **Internet saytlari**

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.google.uz>

<http://www.dissercat.com>

<http://www.msu.ru>

[www.worldliteraturetoday.org](http://www.worldliteraturetoday.org)

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Adabiyot nazariyasi fan sifatida.....	5
Badiiy adabiyotning o‘ziga xosligi.....	21
Badiiy obraz va obrazlilik .....	33
Badiiy asar tili .....	46
Sujet, konflikt, kompozitsiya .....	64
She’r tizimlari .....	79
Adabiy tur va janrlar.....	95
Ijodiy uslublar .....	111
Ijodkor uslubining o‘ziga xosligi .....	128
Fanni o‘qitishda foydalaniladigan intrefaol ta’lim metodlari .....	142
Glossariy .....	149
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	156



Tashmuvamedova Latofat Ismatovna

# ADABIYOT TARIXI VA NAZARIYASI

I-qism. «Adabiyot nazariyasi»

*O'quv qo'llanma*

Muharrir: — M.X. Mustafayeva

Musahhih: — I.T. Nishanbayeva

Kompyuterda  
sahifalovchi: — J.R. Azimov

ADABIYOT TARIXI  
VA AXBORIYATI

Noshirlik faoliyatini boshlagani haqida vakolatli  
davlat organini xabardor qilgani to'g'risida  
**TASDIQNOMA**

№ 3991

2020 yil 23 oktyabrda bosishga ruxsat etildi  
Bichimi 60x84, 1/16. Times New Roman garniturasini.  
Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 10, nashr bosma tobog'i 10.  
Adadi 100 nusxada. 13-sonli buyurtma

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Maxorat-71

“Shafolat nur fayz” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Nodira-19  
Telefon +99899 993-83-36





